

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2020 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz**

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINGOSARI Karomat Mullaxo'jayeua
MAS'UL KOTIB Ilyos Ismoilov
TAHRIR HAY'ATI Zaynobiddin Abdirashidov Karl Rayxl (Germaniya) Isa Habibeyli (Ozarbayjon) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyoung Oh (Koreya) Vahit Turk (Turkiya) Boqijon To'xliyev Qosimjon Sodiqov G'aybulla Boboyorov Onal Kaya (Turkiya) Kimura Satoru (Yaponiya) Nurboy Jabborov Aftondil Erkinov Rashid Zohidov Jabbor Eshonqul Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Baxtiyor Abdushukurov Sarvinoz Sotiboldiyeva Dilnavoz Yusupova Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon) Qo'ldosh Pardayev Nodirbek Jo'raqo'ziyev

MUNDARIJA	
ADABIYOTSHUNOSLIK	
Dilnavoz Yusupova Temuriylar davridagi aruzga doir turkiy risolalarda bahrlar va vaznlar tavsifi	3
Otabek Jo'raboyev Temuriy mirzolarning adabiy shaxsiyatini o'rganishda manbalarning o'rni.	26
Olmosxon Abdurahmonova Munozara janri tarixi va takomili	39
TILSHUNOSLIK	
Qosimjon Sodiqov Turkiy yozma yodgorliklar tilida ot-kesim va uning ifodalanishi.	62
MANBASHUNOSLIK. MATNSHUNOSLIK	
Nigora Sulaymonova Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" asari qo'lyozma nusxalari haqida	78
Bahriddin Umurzoqov "Rashahot ayn al-hayot" asarining Turkiya fondlaridagi nusxalari ilmiy tavsifi va tekstologik tadqiqi	98
Ozoda Tojiboyeva "Iskandarnoma"larning nasriy manbalari xususida	122

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
 DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
 EXECUTIVE SECRETARY	
Ilyos Ismailov	
 EDITORIAL BOARD	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Vahit Turk (Turkey)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Gaybullah Babayarov	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Nurboy Jabborov	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Jabbor Eshonqul	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Sarvinoz Sotiboldieva	
Dilnavoz Yusupova	
Kuldosh Pardaev	
Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)	
Nodirbek Jurakuziev	

CONTENTS	
 LITERATURE	
Dilnavoz Yusupova	
Description of poetic meters and sizes in the turkic treatises on the aruz during the Timurid period	3
 Otabek Juraboev	
The importance of sources in the study of the literary personality of the Timurids	26
 Olmoskhon Abdurahmonova	
History and development of the discussion genre	39
 LINGUISTICS	
Kosimjon Sodikov	
The predicative parts of speech except the verb (ot-kesim) and its expression in the language of old turkic inscriptions	62
 TEXTOLOGY	
Nigora Sulaymonova	
About manuscripts of Mahmud Zamakhshari's "Kashshof"	78
 Bahriddin Umurzokov	
"Rashahot ayn al-hayat" in the turkish manuscript collections scientific description and textological study of copies	98
 Ozoda Tojiboeva	
About the prose sources of "Iskandarnoma"	122

Dilnavoz Yusupova*(Toshkent, O'zbekiston)*

dilnavoz@navoiy-uni.uz

Temuriylar davridagi aruzga doir turkiy risolalarda bahrlar va vaznlar tavsifi

Abstrakt

Maqolada temuriylar davrida turkiy aruzning shakllanishi va taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan risolalar: Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a", Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" va Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi" da keltirilgan bahr va vazn masalalari tahlil qilingan. Mumtoz poetikaga doir ilk turkiy risola hisoblangan "Funun ul-balog'a" asarida bahrlar tasnifi va tavsifi o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilganligi ta'kidlanadi, muallif bahrlarning tarkibiy xususiyatlariga ko'ra ularni ikki guruhga ajratib tasnif qilganligiga diqqat qaratiladi. Shuningdek, risolada 40ta bahr nazariy jihatdan tahlil etilganligi, ushbu bahrlardan 20tasi Shayx Ahmad Taroziygacha yaratilgan risolalarda mavjud bo'lmaganligi, ularni muallifning o'zi kashf qilganligi bilan bog'liq ma'lumotlar ham keltiriladi.

Maqolada Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida 19 bahr va u bilan bog'liq holda 160ga yaqin vazn haqida ma'lumot berilganligi, Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi" da esa Navoiyning asariga qo'shimcha ravishda yana ikki bahr: Ariz va Amiq bahrlari ham alohida tavsiflanganligi, jami "Aruz risolasi" da 21 bahr, 537 vazn keltirilganligi aytib o'tiladi. Tahlil asnosida maqola muallifi turkiy aruzshunoslik temuriylar davrida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan degan xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: *aruz, bahr, vazn, taqti', doira, musamman, musaddas.*

Mualliflar haqida: *Dilnavoz Yusupova* – filologiya fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Yusupova, Dilnavoz. 2020. "Temuriylar davridagi aruzga doir turkiy risolalarda bahrlar va vaznlar tavsifi". *Oltin bitiglar* 4: 3—25.

Kirish

Aruz metrik she'r tizimi arablarda paydo bo'lgan ta'limot bo'lib, uning nazariy asoslari VIII asrda adabiyotshunos va musiqashunos olim Xalil ibn Ahmad tomonidan ishlab chiqilgan. Xalil ibn Ahmad Farohidiy 715/719-786/791-yillarda yashab faoliyat yuritgan bo'lib, aruzga doir tadqiqotlarda uning arab grammatikasi, arab she'riyati nazariyasiga doir ko'plab asarlar yaratgani e'tirof etiladi [Toirov 1997, 15; To'ychiyeva 2018, 74]. Xalil ibn Ahmad filologik ilmlar bilan birgalikda, tafsir, hadis, kalom ilmlarini ham mukammal o'rganganligi, bu borada o'z davrining mashhur olimi Abu Amro ibn al-Alo' (771/776 v.e.) ga shogird tushganligi haqida ma'lumotlar bor [Frolov 1991, 186-188]. Shuningdek, u musiqa va matematika ilmlari bilan ham shug'ullanganki, bularning barchasi keyinchalik uning o'z davri uchun yangi bo'lgan she'riy tizim – aruz ilmining asoschisi bo'lishiga zamin hozirlagan. Manbalarda uning "Aruz risolasi" muallifi ekanligi aytiladi, lekin bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Aruz she'riy tizimi arablardan forsiy va turkiy adabiyotga keng yoyildi. Hijratning ilk asrlarida Islom davlati butun Eronni fath etdi. Qadimiy Sosoniy madaniyati tomir otgan bu hududlarga islomiyat va arablar bilan Qur'oni Karim va u ifodalangan til – arab tili kirib keldi. Natijada, she'riyatda ham asta-sekin arablarga xos yangilanishlar bo'y ko'rsata boshladi.

Turkiy adabiyotda islomiyatdan avval o'ziga xos maxsus nazm texnikasi bo'lgan va bu tizim bo'g'inlar soniga asoslangan. Ushbu tizimda yozilgan she'rlarning aksariyat qismi to'rtliklardan iborat bo'lishi bilan ahamiyatli edi. Kuzatuvlarga ko'ra, turkiy xalqlar ilk bor aruz tizimida qalam tebrata boshlaganlarida barmoq vazn tizimiga yaqin turuvchi vaznlardan foydalanganlar. Aruz muomalaga kirgan ilk davrlarda yozilgan Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari "Shohnoma" vaznida, ya'ni Mutaqorib bahrida yozilgan. Yusuf Xos Xojibning aynan shu o'lchovni tanlashiga sabablardan biri sifatida Mutaqorib bahrining turkiy xalqlar she'riy tizimi bo'lmish barmoqning eng faol shakllaridan bo'lgan o'n bir bo'g'inli vazniga juda ham uyg'un ekanligini keltirish mumkin. Adib Ahmadning "Hibat ul-haqoyiq" asarida ham ushbu o'lchov to'rtliklar shaklida ifoda etilgan. Demak, aruz tizimining turkiy adabiyotga kirib kelishi va ming yillarga yaqin vaqt davomida yetakchi she'riy tizimiga aylanishi sun'iy ravishda sodir bo'lmasdan, o'ziga xos qonuniyatga ega ekan.

Asosiy qism

O'rta asrlarga kelib, aruzshunoslik alohida fan sifatida shakllandi va bu sohada ko'plab yutuqlarga erishildi: yangi bahrlar, doiralar, vaznlar kashf etildi, aruz ilmiga yangi atama va tushunchalar olib kirildi. Arab, fors va turkiy tillarda ushbu ilmning mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab risolalar yaratildi. Temuriylar davriga kelib, turkiy ijodkorlar: Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a", Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi" ("Muxtasar")da aruz ilmiga doir nazariy qonun-qoidalar ishlab chiqildi. Ushbu asarlardagi aruz qonuniyatlari haqida bir qancha tadqiqotlar [DeWEESE 2005, 74-77; Hayitmetov 2002, 70-74; Sultonov 1947; Hasanov 1981; Stebleva 2012] yaratilgan bo'lsa-da, ularda bahrlar qiyosi bilan bog'liq muammo maxsus tadqiq etilmagan edi, vaholanki, bahrlar masalasi mumtoz aruzshunoslikning eng muhim tarmog'i hisoblanadi, chunki aynan shu tarmoq aruzshunoslarning aruz ilmiga qo'shgan hissalari va turkiy aruzning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aruzshunoslik tarixida bahr tushunchasi

Aruz tizimida ruknlar birlashib, bahrlarni hosil qiladi. Bahr so'zi arab tilida "dengiz" degan ma'noni bildiradi. Manbalarda ushbu so'zning dengiz bilan aloqadorligi haqida forsigo'y ijodkorlar: Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam" va Sayfiy Buxoriyning "Aruzi Sayfiy" asarlarida ma'lumot keltiriladi. Xususan, Sayfiy ushbu so'zni atama bilan bog'liq holda quyidagicha talqin qiladi: "Bahr "dengiz" degan ma'noni bildiradi; ammo forsiy tildagi atamalarda u she'riyatdagi bir qancha turlarni o'z ichiga olgan vaznli o'lchovlarning to'plam yoki sinflarining biri ma'nosini anglatadi. U dengizga solishtiriladi, chunki dengiz narsalarning turlarini, marjonlar, o'simliklar, hayvonlar va boshqalarni o'z ichiga oladi, shuningdek, she'rlar ham izohlanayotganidek, turli bahrlarda yaratilgan bo'ladi. Ba'zilar bundagi o'xshashlikni joylashuvda deb aytadilar, kishi suv tubiga yiqilganda gangiydi va chalkashadi, she'riyat dengiziga yiqilganda ham vaznlarning ko'plab o'zgargan shakllariga duch keladi" [Sayfiy 1876, 15]. Ko'rinadiki, Sayfiy "bahr" so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolari orasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratar ekan, aruz tizimidagi hyech bir atama tasodifiy bo'lmasdan, muayyan asosga ega ekanligini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Xalil ibn Ahmaddan so'ng aruz ilmi uning shogirdi va izdoshi Abu Hasan Said ibn Mis'ad Axfash (826/836 v.e.) tomonidan davom ettirildi. Axfash o'zining "Kitob ul-aruz"

asarida Xalil ibn Ahmad ta'limotidagi 15ta bahr yoniga, yana bir bahr (mutadorik)ni qo'shib, bahrlar sonini 16 taga yetkazadi. Ushbu bahrni "Doirayi munfarida" tarkibiga kiritib, doira nomini "Doirayi muttafiqa" deb o'zgartiradi.

Aruzga doir manbalarda bahrlar soni turlicha ko'rsatiladi. Agar Xalil ibn Ahmad yaratgan aruz tizimida 15ta bahr (Tavil, Madid, Basit, Vofir, Komil, Hazaj, Rajaz, Ramal, Sari', Munsarihi, Muzori', Xafif, Muqtazab, Mujtass va Mutaqorib) mavjud bo'lsa, keyinroq uning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy (835 yilda v.e.) yana bir bahr (Mutadorik)ni kashf qiladi va shu tariqa arab bahrlari soni 16taga yetadi [Musulmankulov 1989, 91]. Forsiy aruzshunoslar ushbu bahrlar qatoriga yana uch bahr: Jadid (G'arib), Qarib va Mushokilni qo'shadilar va natijada jami bahrlar soni 19taga yetadi. "Al-mo'jam"da Shams Qays Roziy ushbu 19 bahrni mutaqqaddim (avvaldan mavjud) bahrlar tarzida e'tirof etib, ularning har birini misollar bilan izohlaydi. Asarda mazkur bahrlar tavsifidan so'ng alohida faslda yana 21 bahrning nomi keltirilib, muallif ularni mustahdas (yangi bunyod qilingan) bahrlar deb ataydi. Shams Qaysning fikricha, ular forsiy aruzshunoslar Bahrom Sarahsiy, Buzurgmehr Qosimiylar tomonidan kashf qilingan [Roziy 1991, 147]. Nasiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" asarida esa 18 bahr keltirilgan bo'lib, unda avvalgi risolada keltirilmagan Maqlubi Tavil bahrining berilishi hamda Mushokil va G'arib bahrlarining tushib qoldirilishi muallifning ushbu masalaga o'z salafidan ayricha munosabatda bo'lganligini ko'rsatadi [Tusiy 1992, 57-65].

Qaysi bahr ilgari paydo bo'lgan?

Aruzshunoslikda qaysi bahr ilgari paydo bo'lgan degan masalada bahsli qarashlar mavjud. Arab aruzi tadqiqotchilari D.Frolov, Filishtinskiy, Shidfar "arab she'ri dastavval saj' shaklida paydo bo'lgan, Rajaz bahri esa saj'dan o'sib chiqqan, shu ma'noda Rajaz bahri eng qadimiy bahr hisoblanadi" degan fikrni bildiradilar [Frolov 1991, 94-96; Filishtinskiy 1978, 50; Shidfar 1974, 79]. O'zbek olimi E.Talabovning fikriga ko'ra, agar birinchi she'r saj'dan paydo bo'lgan bo'lsa, unda u faqat Rajaz emas, Komil yoki Vofir doirasida bo'lishi ham mumkin. Bunda olim qadimgi arab she'riyatidagi "Kohin saj'lari"ni misol qilib keltirib, ular hijolarning harfiy va savtiy sifatiga ko'ra, Komil va Vofirga yaqinroq turadi, degan xulosaga keladi [Talabov 2017, 16]. Arab olimi J.Zaydonning arab adabiyoti tarixiga doir tadqiqotida arablarda dastlab she'r aytgan kishi sifatida Mudor ibn Nizor nomi tilga olinadi. Rivoyat qilishlaricha, safarlardan birida

bir kuni u ehtiyotsizlik qilib, tuyasidan yiqilib tushibdi va qo'lini sindirib olibdi. Atrofdagilar uni ko'tarib olib borayotganlarida, u og'riqqa chiday olmay,

Va.yada.h, va.yada.h (Voy qo'lim, voy qo'lim) deb yig'lab yuborgan ekan. Olomon esa uni tinchitish uchun

Ha.yadah, ha.yadah (Ha, ana qo'li, ha mana qo'li) degan misralarni aytgan ekanlar. Shu tariqa, qo'shqofiyali bayt dunyoga kelibdi. E.Talabovning fikricha, ushbu bayt Ramal bahrining Ramali maqsur (ruknlari: foilon foilon foilon foilon) vazniga mos keladi, shunga ko'ra ilk arabiy she'r Ramalda yaratilgan deyish ham mumkin. "...Agar bu borada Rajaz birlamchi sifatida tan olinsa, u holda unda saj'nikidan ko'ra, maqolning unsurlari ko'proq. Ammo agar she'rni saj'dan farq etish mumkin bo'lsa, unda Komil yoki Vofirdagi bayt birlamchi paydo bo'lgan deyish mantiqan to'g'riroq bo'ladi, chunki unsurlar shunga moyil. Agar she'rboshi qo'shiq bo'lsa, u Ramalda bo'lgan, albatta. Arab she'rini shu uch yo'nalishda tadqiq etish to'g'ri bo'ladi" [Talabov 2017, 5]. Arab aruzida qaysi bahr ilgari paydo bo'lganligi bahstlab bo'lsa-da, turkiy aruz qaysi bahr orqali adabiyotga kirib kelganligi aniq: bu yuqorida ta'kidlanganidek, Mutaqorib bahridir. Turkiy aruzshunoslar: Shayx Ahmad Taroziy hamda Zahiriddin Muhammad Boburning o'z risolalarida bahrlar tavsifini aynan Mutaqorib bahridan boshlaganliklari (Zamaxshariy, Shams Qays Roziy, Nasiruddin Tusiy risolalarida bahrlar tavsifi Tavildan boshlangan) ham muayyan ma'noda shu bilan bog'lanadi.

Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida bahrlar va vaznlar

Turkiy adabiyotda mumtoz poetikaga doir ilk nazariy asar sifatida e'tirof etiladigan Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari 1436/1437-yilda yozilgan bo'lib, Amir Temurning (1336–1404) nabirasi, Movarounnahrning o'sha paytdagi hukmdori Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek ibn Shohrux Mirzoga (1394–1449) bag'ishlangan. Bugungi kunda asarning fanga ma'lum yagona qo'lyozma nusxasi London shahridagi Bodlian kutubxonasida №-Eliott 127 raqami ostida saqlanmoqda. Qo'lyozma 139 sahifadan iborat bo'lib, asar matni 1b-sahifadan boshlangan va 139a-sahifada uzilib qolgan. Asar bo'yicha tadqiqot olib borgan olim Devin De Uisning aytishicha, "Funun ul-balog'a"ning mazkur nusxasi kuchli bo'ronda yoqqan yomg'irda ko'plab qo'lyozmalar qatori jiddiy shikastlangan va qo'lyozmaning so'nggi sahifalari yaroqsiz holga kelgan [DeWEESE 2005, 76]. Muallifning aytishicha, asar

muqaddima hamda alohida nomlangan besh qism (afsuski, muammo ilmiga bag'ishlangan beshinchi qism qo'lyozma tarkibida yo'q)dan iborat bo'lib, risolaning to'rtinchi qismi aruz ilmi qonuniyatlariga bag'ishlangan. Ushbu qism 76b-sahifadan boshlanadi. Olim ushbu qism uchun kichik muqaddima ham bitgan. Mazkur muqaddima aruz tizimidagi bahrlar soni haqidagi ma'lumotlar bilan boshlanadi. Unga ko'ra, arab olimlari aruzda o'n olti bahrni keltirsalar, ajam olimlari uni yigirma to'rttaga yetkazganlar. Shayx Ahmad Taroziy shu holatga havas qilib, she'r vazniga oid asar bitishni va har bir vaznga turkiy tildagi baytlarni misol qilib keltirishni maqsad qilganligini yozadi. Muallif ushbu qismni yozishdan avval arab va fors tilida yaratilgan aruzga doir manbalar: Mahmud Zamaxshariyning "Al-qistos" (XI), Abul Jaysh al-Andalusiyning "Aruzi Andalusiyy" (XIII), Nasiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" (1253) kabi asarlaridan foydalanganligii aytadi: "Bu havastin ko'p nusxalarni mutolaa qildi. Netokkim, "Aruzi qistos" va "Aruzi Andalusiyy" va "Me'yor ul ash'or". Va bu tariqa nusxalarning bahrlarida ko'p g'avvosliq qilduk" (Taroziy (qo'lyozma): 76 b). So'ngra bobning asosiy qismi "Fasl" deb nomlangan bo'lim bilan boshlanadi. Bobdagi fasllar raqamlanmagan bo'lib, jami olti faslda aruzga doir nazariy masalalar keltiriladi, har bir fasl aruzning maxsus jihatlarini yoritishga bag'ishlangan. Risolaning bahrlar haqidagi qismi 4–6-fasllarni o'z ichiga oladi. Muallif dastlab sakkizta asl rukn haqida ma'lumot berar ekan, bahrlarni aynan mazkur solim ruknlar va ulardan hosil bo'lgan zihoflar ishtirokida paydo qiladigan ruknlar shakllantirishini ma'lum qiladi.

Muallif bahrlarni ikki guruhga ajratar ekan, arabnavis olim Mahmud Zamaxshariyning asarida keltirilgan tasnifdan foydalanadi. Ma'lumki, Mahmud Zamaxshariy Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan va jahon tamadduni xazinasini ilm sohasining turli tarmoqlariga doir ellikdan ortiq asarlari bilan boyitgan yirik olim bo'lib, uning "Al-Qistos al-mustaqim fi ilm-al-aruz" ("Aruz ilmiga doir haqiqiy mezon") risolasi aruz ilmiga bag'ishlangan. Asarda aruzga xos birliklar: juzv, rukn, zihof, doiralar bilan bir qatorda bahrlar masalasiga ham to'xtalib o'tilgan. Zamaxshariy asarda bahrlarni ikki qismga ajratib tasnif qiladi: 1) muttafiq ul-arkon (bir xil asliy ruknlardan tashkil topgan bahrlar). Bularga Komil, Vofir, Hazaj, Rajaz, Ramal, Mutaqorib, Rakz (Mutadorik) bahrlari kiritilgan; 2) muxtalif ul-arkon (turli asliy ruknlarning takroridan hosil bo'ladigan bahrlar). Bularga muallif Tavi, Madid, Basit, Sari', Munsarih, Xafif, Muzori', Muqtazab, Mujtass bahrlari kiritadi. Uning fikricha, bahrlarni bu tarzda tasnif qilib o'rganish ularning o'ziga xos xususiyatlari (qanday ruknlardan

tarkib topganligi)ni o'zlashtirishga yordam beradi [Zamaxshariy 1989, 59-68]. Aynan shu tasnif Shayx Ahmad Taroziy tomonidan ham muvaffaqiyat bilan qo'llanilganligini ko'ramiz: 1) *muttafiq ul-ajzo* – faqatgina bir asl rukndan, ya'ni muallifning tili bilan aytganda, arkoni solimadan tashkil topgan bahrlar. Masalan, fauvlun rukni baytda sakkiz marta takrorlanib kelsa, bu aynan muttafiq ul-ajzoga kiruvchi mutaforib bahridir. Shayx Ahmad Taroziy mazkur guruhga sakkizta bahrni kiritadi. Ularni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

1-jadval. *Muttafiq ul-ajzoga kiruvchi bahrlar*

№	Bahr nomi	Asliy ruknlari va taqti'i
1	Mutaforib	Fauvlun fauylun fauylun fauylun V - - / V - - / V - - / V - -
2	Mutadorik	Foilun foilun foilun foilun - V - - V - - V - - V - -
3	Hazaj	Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V - - - / V - - - / V - - - / V - - -
4	Ramal	Foilotun foilotun foilotun foilotun - V - - / - V - - / - V - - / - V - -
5	Rajaz	Mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun - - V - / - - V - / - - V - / - - V -
6	Vofir	Mafoilatun mafoilatun mafoilatun mafoilatun V - V V - / V - V V - / V - V V - / V - V V -
7	Komil	Mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun V V - V - / V V - V - / V V - V - / V V - V -
8	Saqil	Maf'uvlotu maf'uvlotu maf'uvlotu maf'uvlotu - - - V / - - - V / - - - V / - - - V

Ushbu bahrlardan dastlabki yettitasi aruzshunoslik uchun an'anaviy bo'lib, so'nggi sakkizinchi bahr muallifning o'zi tomonidan turkiy aruzshunoslikka olib kirilgan. Bu bahr ritm jihatdan og'ir ohangga ega bo'lganligi uchun Saqil (ar. "og'ir") deb atalgan. Saqil bizgacha yetib kelgan arab va fors-tojik aruzshunosligiga doir manbalarda uchramaydi. Bu bahr maf'uvlotu (---V) asliy ruknining baytdagi takroriga asoslanadi. Shayx Ahmad Taroziydan avval o'tgan aruzshunoslar ham, keyingi davr olimlari ham bir ovozdan ushbu asliy rukndan alohida bahr hosil bo'lmashligini ta'kidlaydilar. [Zamaxshariy 1989, 18; Tusiy 1992, 29-30; Frolov 1991, 316;

Musulmankulov 1989, 81). Bizningcha, bunda maf'uvlotu asliy ruknining vatadi maf'ruq bilan tugashi shunday xulosaga olib kelgan. Lekin Taroziy ushbu bahrning xos bahrlardan ekanligini aytib, Saqili musammani solim vazniga bir bayt misol keltiradi:

Sendek yori / shirin ro'yu / nozuk tab' / qayda bor,
 - - - V / - - - V / - - - V / - - - V
Sen ey dildor qilsa zulmu bizdin pand ol zinhor.
 - - - V / - - - V / - - - V / - - - V.

Shuningdek, muallif bu bahr vaznlari nomatbu' (yoqimli ohangga ega emas) ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Bilgilkim, bu bahrning musammanidin va musaddasidin hyech matbu' she'r kelmas" [Taroziy (qo'lyozma): 121 b]. Darhaqiqat, rukn so'ngida qisqa hijoning kelishi ohangning og'ir chiqishiga olib keladi va bu hol misra oxiri uchun ayniqsa notabiiydir, chunki she'riy nutqda misra oxiri odatda, cho'ziq hijo bilan yakunlanadi. Shu sababli bo'lsa kerak, Shayx Ahmad Taroziydan so'ng ham ushbu bahr aruzga doir risolalardan o'rin olmagan.

2) *muxtalif ul-ajzo* – turli asl ruknlarning takroridan hosil bo'lgan bahrlar. Masalan, fauvlun mafoiylun fauvlun mafoiylun. Ko'rib turibmizki, ikki solim rukn o'zaro almashib, yangi bahrni hosil qilmoqda. Shu o'rinda shayx Ahmad Taroziy bir nuqtaga alohida urg'u beradi: "Va shart uldurkim, ul ikki juzvnikim, tarkib etib, bahr qilurlar, bir-birining uxti (opa-singil – D.Yu.) kerak. Agar begona bo'lsa, bu toifaning qoshinda ravo ermas" [Taroziy 1436/ 1437 (qo'lyozma): 78b].

Bu o'rinda shayx Ahmad Taroziy e'tibor qaratgan nuqta shuki, ikki solim ruknni almashtirib qo'llash natijasida muxtalif ul-ajzoga kiruvchi biror bahr hosil qilinsa, undan keyingi bahr uning teskarisini takrorlashi lozim, agar bu shart ado etilmasa, u bahr sifatida tan olinmaydi. Buni muallif muxtalif ul-ajzoning birinchi va ikkinchi bahri sifatida keltirgan bahrlarning ruknlariga diqqat qilish orqali yanada yaxshiroq tushunib olish mumkin. Birinchi bahr Muqorin deb nomlanib, taqti'i quyidagichadir: fauvlun foilun fauvlun foilun. Endi ikkinchi bahrga e'tibor qaratamiz: bu bahr Muvofiq deb nomlanib, uning taqti'i (paradigmasi) quyidagicha namoyon bo'ladi: foilun fauvlun foilun fauvlun. Ko'rib o'tilganidek, Muqorin bahridagi ruknlarning o'rni almashinib takrorlansa, Muvofiq bahri hosil bo'lyapti. Bu esa shayx Ahmad Taroziy ta'kidlaganidek, ul ikki juzvning uxti, ya'ni opa-singil bo'layotganligini bildiradi. Shayx Ahmad Taroziy keltirayotgan mazkur she'riy vazn qonuniyati undan keyin bitilgan Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" hamda Zahiriddin Muhammad

Boburning “Risolai aruz” asarlarida uchramaydi.

Yuqorida biz muttafiqlar ul-ajzo bahrlarini jadval shaklida keltirdik, quyida esa muxtalif ul-ajzoga kiruvchi bahrlar bilan tanishamiz:

2-jadval. *Muxtalif ul-ajzoga kiruvchi bahrlar*

№	Bahr nomi	Ruknlari va taqti'i
1	Muqorin	Fauvlun foilun fauylun foilun V - - / - V - / V - - / - V -
2	Muvofiq	Foilun fauylun foilun fauylun - V - / V - - / - V - / V - -
3	Tavil	Fauvlun mafoiylun fauylun mafoiylun ¹ V - - / V - - - / V - - / V - - -
4	Jazil	Mafoiylun fauylun mafoiylun fauylun V - - - / V - - / V - - - / V - -
5	Farid	Fauvlun foilotun fauylun foilotun V - - / - V - - / V - - / - V - -
6	Mazid	Foilotun fauylun foilotun fauylun - V - - / V - - / - V - - / V - -
7	Mutarokib	Mustaf'ilun fauylun mustaf'ilun fauylun - - V - / V - - / - - V - / V - -
8	Mutadovil	Fauvlun mustaf'ilun fauylun mustaf'ilun V - - / - - V - / V - - / - - V -
9	Mutaloyim	Mafoiylun foilun ² mafoiylun foilun V - - - / - V - / V - - - / - V -
10	Mutanofir	Foilun mafoiylun foilun mafoiylun - V - / V - - - / - V - / V - - -
11	Jadid	Foilun foilotun foilun foilotun - V - / - V - - / - V - / - V - -
12	Madid	Foilotun foilun foilotun foilun - V - - / - V - / - V - - / - V -
13	Muhit	Foilun mustaf'ilun foilun mustaf'ilun - V - / - - V - / - V - / - - V -
14	Basit	Mustaf'ilun foilun mustaf'ilun foilun - - V - / - V - / - - V - / - V -

¹ Qo'lyozmada ruknlar o'zini almashtirilib berilgan.

² Qo'lyozmada yanglish tarzda fauylun yozilgan.

15	Muzori'	Mafoiylun foilotun mafoiylun foilotun V - - - / - V - - / V - - - / - V - -
16	Mushokil	Foilotun mafoiylun foilotun mafoiylun - V - - / V - - - / - V - - / V - - -
17	Sahih	Mafoiylun mustaf'ilun mafoiylun mustaf'ilun V - - - / - - V - / V - - - / - - V -
18	Sarih	Mustaf'ilun mafoiylun mustaf'ilun mafoiylun - - V - / V - - - / - - V - / V - - -
19	Xafif	Foilotun mustaf'ilun foilotun mustaf'ilun - V - - / - - V - / - V - - / - - V -
20	Mujtass	Mustaf'ilun foilotun mustaf'ilun foilotun - - V - / - V - - / - - V - / - V - -
21	Ajib	Mafoilatun ¹ mutafoilun mafoilatun mutafoi- lun V - - - / V V - V - / V - - - / V V - V -
22	G'arib	Mutafoilun mafoilatun mutafoilun mafoila- tun V V - V - / V - - - / V V - V - / V - - -
23	Muntaxab	Foilon maf'uvlotu foilon maf'uvlotu - V - / - - - V / - V - / - - - V
24	Muqtazab	Maf'uvlotu foilon maf'uvlotu foilon - - - V / - V - / - - - V / - V -
25	Muzhar	Foilotun maf'uvlotu foilotun maf'uvlotu - V - - / - - - V / - V - - / - - - V
26	Muzmar	Maf'uvlotu foilotun maf'uvlotu foilotun - - - V / - V - - / - - - V / - V - -
27	Munsarih	Mustaf'ilun maf'uvlotu mustaf'ilun maf'uvlotu - - V - / - - - V / - - V - / - - - V
28	Mundaraj	Maf'uvlotu mustaf'ilun maf'uvlotu mus- taf'ilun - - - V / - - V - / - - - V / - - V -
29	Sari'	Mustaf'ilun mustaf'ilun maf'uvlotu - - V - / - - V - / - - - V
30	Badi'	Maf'uvlotu mustaf'ilun mustaf'ilun - - - V / - - V - / - - V -

¹ Qo'lyozmada yanglish tarzda *mafoilun* yozilgan.

31	Qarib	Mafoiylun mafoiylun foilotun V - - - / V - - - / - V - -
32	Salib	Foilotun mafoiylun mafoiylun - V - - / V - - - / V - - -

Mazkur bahrilarni keltirgach, muallif mazkur o'ttiz ikki bahr bir-birining aksi ekanligini ta'kidlab, jami o'zi keltirgan qirq bahrning o'n to'qqiztasi (Tavil, Madid, Basit, Vofir, Komil, Ramal, Rajaz, Hazaj, Sari', Munsarihi, Xafif, Muzori', Muqtazab, Mujtass, Mutaqorib, Mutadorik, Mushokil, G'arib, Qarib) ilgari mavjud bo'lganligini aytib o'tadi. Bu esa qolgan yigirma bir bahrni muallifning o'zi tartib berganligi bilan bog'liq taxminni vujudga bildiradi.

Oltinchi faslda Shayx Ahmad Taroziy bahrilar tavsifini boshlar ekan, o'zi ta'kidlab o'tganidek, eng avval musamman (sakkiz) ruknli vaznlar, so'ngra musaddas (olti) ruknli vaznlar va eng so'ngida murabba' (to'rt) ruknli vaznlarga to'xtaladi. Asarda vazn so'zi "shu'ba" istilohi ostida berilgan bo'lib, ularni keltirishda dastavval vazn (shu'ba) nomi, so'ngra uning ruknlari, shu vaznga mos bayt va uning taqti'i keltiriladi. Eng muhimi, har bir vazn uchun tanlangan misollar turkiy tilda bo'lib, ba'zi o'rinlarda berilgan ma'lumotlarni mustahkamlash, vaznning xos xususiyatlarini yana kengroq anglatish uchun forsiy adabiyotga ham murojaat qilinadi. Masalan, asarning mutaqoribi musammani maqsur vazniga ta'rif berilgan quyidagi parchani ko'rib chiqsak:

"Bu shu'bani "Solim-us sadri maqsur-uz-zarb" o'qurlar. Hazo vaznihi:

Fauvlun / fauylun / fauylun / fauyl

Misolihi:

Qilur har / zamon ko'z / laring jon / shikor

Fauvlun / fauylun / fauylun / fauyl

Ko'ngilni / qilur zul / fingiz be / qaror

Fauvlun / fauylun / fauylun / fauyl

Ba bahrning shu'basi xostur va munda ko'p nusxalar bitibturlar va malik ul-kalom Firdavsiy "Shohnoma"sin bu vaznda aytibtur. Va muning zarbi gohi fauyl kelur, netokkim ko'rguzduk va gohi mahzuf uz-zarb qilurlar faal bo'lur...

Misoli... Firdavsiy Tusiy aytur:

Farangis bishnidu ruxro bijast,

Miyonro ba zunnori xunin bibast..." [Shayx Ahmad

Taroziy (qo'lyozma): 90a].

Shu tariqa Mutaqorib bahrining musamman ruknli vaznlariga 12, musaddas ruknli vaznlariga 4 va murabba' ruknli vaznlariga 2ta,

jami 18ta vaznga misol keltiriladi. Muallif kitobxonga bahrlarning qonuniyatlari yaxshi ma'lum bo'lishi uchun uch bahr: Hazaj, Ramal va Rajaz bahrlariga kengroq to'xtalib o'tishga qaror qiladi va ushbu qarorini quyidagicha izohlaydi:

“Ul sababtin bu uch bahrni ayirduqkim, bularning solimi base matbu' va xushoyandadur va bulardin ko'p matbu' shu'balar qo'por...” [Shayx Ahmad Taroziy (qo'lyozma): 88b]. Shundan kelib chiqib, faslning Hazaj bahriga bag'ishlangan qismi salmoqli o'rin tutib, Hazaj bahridan 108ta vazn keltirilgan, shulardan 89 tasi musamman ruknli vaznlar bo'lsa, 15tasi musaddas va 3tasi murabba' ruknlardan iborat. Muallif Hazaj bahriga doir qismni yakunlagach, Ramal bahri tavsifiga o'tadi, lekin Ramal bahri asarda Hazaj bahri singari batafsil emas. Buni olim quyidagicha izohlaydi: “Bilgilkim, biz yuqori aytib erdukkim, uch bahrni sharh etoli deb. Emdi bu bahr (Ramal bahrining – D.Yu.)ning muzohifotining tarkibin va tartibin hazaj bahrindin qiyos qilsoq, ma'lum bo'lurkim, har bahrg'a ne miqdor shu'ba lozim bo'lur. Agar barchasin bitir bo'lsoq, bu kitob aning ehtimolin qila olmas...” (Taroziy (qo'lyozma): 115a). Shu tariqa muallif endi Ramal bahrining faqat “matbui mashhur va mu'tabar” vaznlariga to'xtalib o'tadi. So'ng muallif Rajaz bahri vaznlarini keltiradi, uning musamman ruknli vaznlariga misollar keltirgach, mazkur keltirilgan vaznlarda forsiy yoki turkiy tilda she'r aytilmasligini ma'lum qilib, mahoratni namoyish qilish uchun gohida bir g'azal yoki qit'a yozilishini ta'kidlaydi. Shu tariqa shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy bahrlar va ularning vaznlariga xos bo'lgan xususiyatlarni bayon qilib boradi, vaznlarni keltirgan va keltirmaganligining sabablarini izohlaydi.

Umuman olganda, asarda tahlili keltirilgan yuqoridagi 8 bahrni ular tarkibiga kiruvchi vaznlar bilan birga quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

3-jadval. “*Funun ul-balog'a*”da keltirilgan muttafiq ul-ajzo bahrlar va vaznlar

No	Bahr nomi	Musamman ruknli vaznlar	Musaddas ruknli vaznlar	Murabba' ruknli vaznlar	Muttavval ruknli vaznlar	Jami
1	Mutaqorib	11	4	3	–	18
2	Mutadorik	6	5	2	–	13
3	Hazaj	89	15	3	1	108
4	Ramal	8	3	1	1	13

5	Rajaz	14	1	1	1	17
6	Vofir	4	1	1	–	6
7	Komil	7	7	3	–	17
8	Saqil	1				1
	Jami	140	36	14	3	193

Qo'lyozmaning 122a sahifasidan boshlab muxtalif ul-ajzo bahrlari tavsifi boshlanadi. Ularning soni 32ta bo'lib, har ikkitasining ruknlari bir-birining teskari holdagi takroridan iborat. Boshqacha aytganda, 16 xil taqti' (paradigma) o'zaro o'rin almashinib, 32ta bahrni hosil qiladi. Ushbu bahrlardan 13tasi aruzshunoslikka doir risolalar, xususan Alisher Navoiy va Boburning risolalarida mavjud. Ular quyidagilardir: Tavi, Ariz, Madid, Amiq, Basit, Muzori', Mushokil, Xafif, Muqtass, Muqtazab, Munsarih, Sari', Qarib. Quyidagi bahrlar esa fors-tojik risolalarida ham, boshqa turkiy risolalarda ham uchramaydi: Muqorin, Muvofiq, Farid, Mazid, Mutarokib, Mutadovil, Mutaloyim, Mutanofir, Muhit, Sahih, Sarih, Ajib, G'arib, Muntaxab, Muzhar, Muzmar, Mundaraj, Badi', Salib. Ushbu bahrlarning aksariyati musamman (sakkiz) ruknli bo'lib, faqat Sari', Badi', Qarib, Salib bahrlari musaddas (olti) ruknli bahrlar hisoblanadi.

Biz yuqorida forsigo'y olim Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam" asarida ham 40ta bahr keltirilganligi va ulardan aksariyatini muallif mustahdas (yangi) deb ataganligi haqida ma'lumot bergan edik. Bu ikki risoladagi noan'anaviy bahrlar haqida umumiy tasavvur hosil bo'lishi uchun ularni jadval asosida ko'rsatamiz:

4-jadval. *Shams Qays Roziy va Shayx Ahmad Taroziy risolalarida keltirilgan bahrlar*

№	Bahr nomi	Al-Mo'jam	Funun-ul balog'a
Musamman ruknli vaznlar			
1.	Tavi	+	+
2.	Madid	+	+
3.	Basit	+	+
4.	Vofir	+	+
5.	Komil	+	+
6.	Hazaj	+	+
7.	Rajaz	+	+
8.	Ramal	+	+

9.	Sari'	+	+
10.	Munsarih	+	+
11.	Xafif	+	+
12.	Muzori'	+	+
13.	Muqtazab	+	+
14.	Mujtass	+	+
15.	Mutaqorib	+	+
16.	Saqil	-	+
17.	Mutadorik	-	+
18.	Jazil	-	+
19.	Farid	-	+
20.	Mazid	-	+
21.	Mutaqorib	-	+
22.	Mutadovil	-	+
23.	Mutaloyim	-	+
24.	Mutanofir	-	+
25.	Jadid	-	+
26.	Muhit	-	+
27.	Mushokil	-	+
28.	Sahih	-	+
29.	Sarih	-	+
30.	Ajib	-	+
31.	G'arib	-	+
32.	Muntaxab	-	+
33.	Muqtazab	-	+
34.	Muzhor	-	+
35.	Muzmar	-	+
36.	Mundaraj	-	+
Musaddas ruknli vaznlar			
37.	Sari'	-	+
38.	Badi'	-	+
39.	Qarib	-	+
40.	Salib	-	+
41.	Sarim	+	-
42.	Kabir	+	-

43.	Badil	+	–
44.	Qalib	+	–
45.	Hamid	+	–
46.	Sag’ir	+	–
47.	Asamm	+	–
48.	Salim	+	–
49.	Hamim	+	–
50.	Qote’	+	–
51.	Mushtarak	+	–
52.	Muammam	+	–
53.	Musattar	+	–
54.	Muayyan	+	–
55.	Bois	+	–
56.	Masnu’	+	–
57.	Musta’mal	+	–
58.	Ahras	+	–
59.	Mubham	+	–
60.	Muhmal	+	–
61.	Ma’kus	+	–

Agar diqqat qaratilsa, jalvaldagi 20 bahr har ikkala risola uchun umumiy bo’lib, qolgan bahrlar bir risolada mavjud bo’lsa, ikkinchisida uchramaydi.

Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida bahrlar masalasi

Turkiy aruzshunoslikka doir ikkinchi manba hisoblanmish Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari 1492-93-yillarda yaratilgan. Navoiy Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a” asari bilan tanish bo’lmagani uchun aruz nazariyasiga doir qonun-qoidalarini turkiy tilda ilk marta bayon qilayotganini alohida ta’kidlaydi, xususan “g’araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqi’ bo’lubdur, anga zobitae va qonune yo’q erkondur...” deb yozarkan,

turkiy tilda aruz qonun-qoidalariga oid maxsus asar yo'qligini aytib o'tadi [Navoiy 2011, 578].

Alisher Navoiy muqaddimada o'zidan avval yaratilgan aruzga doir manbalar: Xalil ibn Ahmadning "Kitob ul-ayn", Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam", Nasiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or", Abdurahmon Jomiyning "Risolai aruz" asarlariga to'xtalib o'tib, ularda mavjud bo'lmagan ba'zi qoida, doira va vaznlarni o'z asarida keltirib o'tishini aytadi. Ya'ni: "...necha qoidau doira va vaznkim, hyech aruzda, misli fan vozii Xalil ibni Ahmad va ilm ustodi Shams Qays kutubida va Xoja Nasir Tusiyning "Me'yor ul-ash'or"ida, balki Hazrati Maxdumiy navvara marqadahu nuran "Aruz"larida yo'q erdikim, bu faqir bu fan usulidin istixroj qilib erdikim, bu kitobg'a izofa qildim" [Navoiy 2011, 534]. Ushbu manbalardan Abdurahmon Jomiyning "Risolai aruz" asari Alisher Navoiy uchun tayanch manba bo'lib xizmat qilgan, Navoiy juzvlar talqini, zihof, bahrlar masalasida Jomiy risolasiga tayanadi.

Asarda doiralar – tuzilish jihatidan o'xshash bo'lgan bahrlar guruhi ta'rifiga o'tilib, jami 7ta doira keltirilgan. Ulardan to'rttasi Navoiygacha yaratilgan fors-tojik risolalarida mavjud edi: "Doirayi mu'talifa" (Ramal, Hazaj va Rajaz bahrlaridan tuzilgan), "Doirayi muxtalifa" (Muqtazab, Mujtass, Munsarihi va Muzori' bahrlaridan tuzilgan), "Doirayi muntazia" (Mushokil, Sari', Jadid, Qarib va Xafif bahrlaridan tuzilgan), "Doirayi muttafiqa" (Mutaqorib va Mutadorik bahrlaridan tuzilgan). Navoiy ushbu doiralarga qo'shimcha tarzda yana uchta doira haqida ma'lumot beradi. Asardagi 5-doirani bevosita Alisher Navoiyning o'zi tartib bergan bo'lib, bunda Navoiy "Doirayi muxtalifa"dagi 4 bahr va "Doirayi muntazia"dagi 5 bahr – jami 9 bahrning solim (ya'ni zihof kirmagan, o'zgarishga uchramagan) ruknlarini jamlab, ularni bir doiraga kiritadi va bu doirani "Doirayi mujtamia" deb ataydi. 6-daira "Doirayi muxtalita" deb atalib, bu doiraga Navoiy Komil va Vofir bahrlarini kiritadi va mazkur bahrlarning matbu' (yoqimli) bahrlar ekanligini, lekin negadir ularda kam she'r yozilganligini ta'kidlab o'tadi. 7-daira "Doirayi mushtabiha" esa uch – Tavil, Madid va Basit bahrlaridan tuzilgan. Navoiyning yozishicha, bu bahrlar arab adabiyotiga xos bo'lib, ajam she'riyatida deyarli qo'llanilmagan va maxsus doiraga kiritilmagan.

Asarning she'r taqti'i (paradigma)ga bag'ishlangan fasli turkiy aruzning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy bunda bevosita turkiy til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda taqti' qoidalarini bayon qiladi hamda bahr va vaznlarni

aniqlash usullarini tushuntiradi. Ma'lumki, taqti' (ar. "kesish", "parchalash") aruzshunoslikda she'r vaznini aniqlash uchun baytni ruknlarga ajratish bo'lib, mumtoz she'rshunoslikda taqti'ga vaznni belgilashning muhim uchuli sifatida qaralgan. "Taqti'ni bilmagan kishi baytni ruknlarga parchalay olmaydi, she'rning vaznini to'g'ri belgilashi qiyin... Taqti' yozuv, orfografiya va talaffuz normalari, til tarixi bilan uzviy bog'liqdir; ayniqsa, fonetika, vazn va nutq aloqasini aniqlashda uning ahamiyati kattadir" [To'ychiev 1985, 80]. Navoiy taqti'ga ta'rif bergach, kitobat (yozuv)da bor, lekin lafzda (talaffuz) da hisobga olinmaydigan ba'zi harf va harfiy birikmalarga e'tibor qaratadi. Ulardan biri "vov"i atf ("va" bog'lovchisi) bo'lib, jumlar orasida kelganda "u" tarzida o'qiladi. Masalan, "xobu xo'rd", "jonu jahon". Shuningdek, "nun" harfi "xun", "xon", "don" so'zlarida taqti'ga kirmaydi. Lekin ushbu jumlar izofa yoki "a", "u", "yo" unlilarini qabul qilsa ("xu-ni", "xo-ni", "do-ni" singari), taqti'ga daxldor bo'ladi yoki "dast", "mast", "guft" kabi jumlar uch undosh va bir unli harfdan iborat bo'lib, bunda ikkinchi qator undosh, ya'ni "t" harfi qisqa hijo hisoblanadi. Ushbu jumlar misra o'rtasida kelsa, "t" harfidan so'ng qisqa "i" unlisi talaffuz etiladi. Agar ushbu jumlar misra oxirida kelsa, sokin harf tarzida talaffuz qilinadi. Navoiyning yozishicha, arab alifbosida "nun" va "kof" harflarining birikmasi asosida yoziladigan "ng" tovushi taqti'da doim ham belgilanavermaydi. Agar yozuvda harakatsiz "nun" harfidan so'ng "kof" harfi kelsa, "nun" taqti'da e'tiborga olinmaydi. Masalan, mening, oning kabi so'zlarda. Ushbu so'zlar faal (V -) ruknini vujudga keltiradi. "Boshqacha aytganda, bo'g'inni yakunlovchi harf "kof" hisoblanadi va bu birinchi bo'g'inning cho'ziq hamda taqti'dagi ruknga mos bo'lishi uchun yetarlidir. Shu sababli "kof" harfidan avval kelayotgan "nun" harfi taqti'dan soqit qilinadi, ya'ni ortiqcha hisoblanadi" [Stebleva 2012, 114].

Forsiy va turkiy tilda ba'zan vazn talabi bilan o'ta cho'ziq hijo oxirida keluvchi qator undoshlar (masalan, "do'st", "rost" so'zlarida) bir cho'ziq va ikki qisqa hijo o'rniga o'tadi. Shunda taqti' quyidagicha bo'ladi: do'st (- V V), rost (- V V). Ko'rinadiki, aruziy matnda she'r taqti'i bilan bog'liq o'rinlarda asosiy e'tibor yozuvga emas, balki talaffuzga qaratiladi va aruzshunos olim, shoir yoki ijodkor matn bilan ishlashda kitobat (yozuv)da bor, lekin lafzda (talaffuz)da hisobga olinmaydigan harf va harfiy birikmalarni nazardan soqit qilmasligi talab etiladi.

Risolaning keyingi faslida bahrlar va ulardan hosil bo'luvchi vaznlar bayoniga o'tiladi. Bunda Navoiy bahrlar tartibini yuqorida keltirilgan doiralar asosida berib boradi. Shu ma'noda Navoiy

dastavval “Doirayi mu’talifa” tarkibiga kiruvchi Hazaj bahri vaznlarini keltirib o’tadi. Asarda Hazaj bahrining 11ta musamman ruknli, 10ta musaddas ruknli va bitta murabba’ ruknli vaznlari, agar unga 24ta ruboiy vaznlari ham qo’shiladigan bo’lsa, jami 46 vazni keltirilgan.

“Mezon ul-avzon” asarida Rajazi musammani matviyi maxbun (ruknlari va paradigmasi: muftailun mafoilun muftailun mafoilun, – V V – / V – V – / – V V – / V – V –), Komili musammani solim (ruknlari va paradigmasi: mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun, V V – V – / V V – V – / V V – V – / V V – V –), Mutaqoribi musammani mahzuf (fauvlun fauylun fauylun faal, V – – / V – – / V – – / V –) va boshqa yana ko’plab vaznlar uchun “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidan misollar keltirilishi ushbu vaznlarning turkiy g’azaliyot uchun shunchaki tajriba bo’lmay, balki ularda badiiyat jihatdan yuksak g’azallar yozish mumkinligini ko’rsatadi.

Xususan, hazaji musammani solim vaznini ta’riflashda Navoiy o’z devonidan quyidagi baytni keltiradi:

*Zihi mulkung/ ning o’n sekiz /mingidin bir / kelib olam,
Bu olam ich / ra bir uyluk / qulung Havvo / bilan odam.*
Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

Risolada 9 ta poetik shakl va ularning vaznlari haqida ham ma’lumot keltirilgan bo’lib, ularning aksariyati turkiy xalq og’zaki ijodiga mansubdir. Navoiy ularning xalq orasida tarqalgan nomlaridan foydalanadi, nomi yo’qlarini esa aruzdagi vaznlardan qaysi biriga mos bo’lsa, shu vazn nomi bilan ataydi. Ushbu poetik shakllar quyidagilardir: o’n olti ruknli ramali maxbun, tuyuq, qo’shuq (1), qo’shuq (2), chinga, muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy, turkiy.

“Mezon ul-avzon”da jami 19 bahr, 160 vazn keltirilgan bo’lib, vaznlar uchun tanlangan misollar asosan muallifning o’z ijodi mahsulidir. Asar tarkibida Xoja Ismat Buxoriy va Husayn Boyqaro ijodidan ham baytlar uchraydi.

Boburning “Aruz risolasi”da bahrlar

“Mezon ul-avzon” o’zidan keyin turkiy tilda Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi” asari yaratilishi uchun zamin hozirladi. Boburning “Aruz risolasi” 1524-1525-yillarda yaratilgan [Hasanov 1981, 13]. Risola Alisher Navoiy risolasidan an’anaviy 19 bahrga qo’shimcha tarzda tahlilga tortilgan Ariz va Amiq bahrlarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Bobur o’z risolasida Ariz bahri haqida ma’lumot keltirar ekan, bu bahrning arab aruzida mavjud emasligini,

balki fors shoirlarining ixtirosi ekanligini alohida ta'kidlaydi: "Bu vaznda toziy (arabcha – D.Yu.) she'r topmaydurlar. Bu bahrni ajam shu'arosi paydo qilib Maqlubi tavil (tavilning ziddi – D.Yu.) debturlar, Ariz ham derlar" [Bobir 1971, 27]. Shuningdek, Bobur ariz bahrining mafoiylun fauvlun mafoiylun fauvlun (paradigmasi : V – – – | V – – | V – – – | V – –) ruknlarining takroridan vujudga kelishi haqida ham aytib o'tadi. Bobur risolaning bahrlar tahliliga doir qismida ariz bahridan hosil bo'luvchi to'rt musta'mal (iste'moldagi) vazn haqida ma'lumot berib, bu vaznlarning ikkitasi musta'mali matbu' (istemoldagi yoqimli) ekanligini ta'kidlaydi. Ulardan biri Arizi musammani solim vazniga o'zining:

Labing marjon, tishing dur, xating rayhon, xading gul,

Soching anbar, yuzung hur, menging mo'lton, yuzung mul –

baytini misol qilib keltiradi [Bobir 1971, 84]. Bu bayt shoirning "Devon"ida uchramaydi, bu holat Boburning mazkur baytni shunchaki tajriba uchun, tahlil qilinayotgan vaznga misol sifatida yozganligini ko'rsatadi. Ariz bahrining arizi musammani maqbuz (mafoilun fauvlun mafoilun fauvlun) vazni uchun esa Toriy taxallusli shoirning:

Sangaki bargi guldin libos qilsa bo'lg'ay,

Gule bu gulshan ichra qiyos qilsa bo'lg'ay –

bayti keltirilgan, afsuski bu shoir haqida hozircha manbalarda biror ma'lumot uchramadi.

Diqqatni tortadigan jihati, shu o'rinda Arizi musammani musabbag' vazni uchun misol sifatida Alisher Navoiydan ham bir bayt keltirilgan [Bobir 1971: 84]. Kuzatishlarimiz asosida ma'lum bo'ldiki, ushbu misol shunchaki bir baytli parcha bo'lmay, "Xazoyin ul-maoniy"dan o'rin olingan g'azal matla'si ekan. Bobur keltirgan ushbu bayt quyidagicha:

Sanoyi zoting ichra topib ajz, ahli idrok,

Gahi louhsi aytib zamone "mo arafnok".

Mazkur matla' "Navodir ush-shabob" devoniga 322-raqam bilan kiritilgan bo'lib [Navoiy 2011, 334], mavzusiga ko'ra hamd g'azal hisoblanadi.

G'azal matla'sini paradigma asosida ko'radigan bo'lsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

Sanovu zoting ichra topib ajz, ahli idrok,

Mafoiylun fauvlun mafoiylun fauvlon

V – – – / V – – / V – – – / V – ~

Gahi louhsi aytib zamone "mo arafnok".

Mafoiylun fauvlun mafoiylun fauvlon.

V - - - / V - - / V - - - / V - ~

Darhaqiqat, ushbu paradigma g'azalning Arizi musammani musabbag' (mafoiylun fauvlun mafoiylun fauvlon) vaznida yaratilganligini ko'rsatadi.

Risolada keltirilgan Amiq bahri ham noan'anaviy bahrlardan bo'lib, foilun va foilotun ruknlarining takroridan vujudga keladi. Boburning ma'lumot berishicha, ushbu bahr ham forsiy shoirlarning ixtirosidir. Ushbu bahrning arab she'riyatiga xos bo'lgan madid bahri singari foilun va foilotun ruknlaridan tarkib topganligini, faqat unda ruknlar o'rni teskari holda takrorlanishini hisobga olib, uni shartli ravishda maqlubi madid deb aytish mumkin (Madid bahrining musamman shakli: foilotun foilun foilotun foilun). Risolada Amiqning musamman (sakkiz ruknli) va murabba' (to'rt ruknli) shakllariga forsiy va turkiy baytlardan misollar keltiriladi. Xususan, Amiq bahrining Amiqi musammani solim vazniga quyidagi bayt keltirilgan:

So'yi man goh-gohye, dilbaro, yak nigohye,

Dilbaro, yak nigohye so'yi man goh-gohye [Bobir 1971,

86].

(Ruknlari: foilun foilotun foilun foilotun).

Keltirilgan baytning mazmuni va saviyasi Boburning uni tajriba uchun yozganligini ko'rsatadi. Xuddi shunday fikrni turkiy misol haqida ham aytish mumkin:

Kel beri ey parikim, hajrdin xastadurmen,

La'linga tashnadurmen, zulfunga bastadurmen.

Garchi Bobur Amiq bahrining ikki vazni musta'mal, biri musta'mali matbu' (iste'moldagi yoqimli) vazn ekanligini ta'kidlasada, turkiy she'riyatda Boburgacha va undan keyin ham ushbu vaznda to'liq g'azal yoki boshqa janrdagi she'r yaratilganligini uchratmadik.

Bobur asarda ushbu bahrlarni maxsus doiraga ham kiritadi. Bobur risolasida jami 9 doira keltirilgan bo'lib, ariz va amiq bahrlari Tavil, Madid va Basit bahrlari bilan birga "Doirayi muxtalifa"ga kiritilgan.

Xulosa

Biz turkiy tilda yaratilgan aruzga doir risolalarda bahrlar masalasini qiyosan o'rganish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari turkiy aruzshunoslikka doir ilk asar bo'lib, unda nazariy jihatdan 40ta bahr nomi keltirilgan. Bahrlarning 20tasi aruzshunoslikka doir boshqa forsiy va arabiy manbalarda uchramaydi. Bu holat ushbu bahrlarning

mumtoz aruzshunoslik uchun ham yangi ekanligini va ularni Shayx Ahmad Taroziyning o'zi tartib berganligini ko'rsatadi. Shayx Ahmad Taroziy bahrlarni ikki katta guruhga ajratishda vatandoshimiz Mahmud Zamaxshariyning "Al-qistos" asaridagi tasnifga suyanadi. Bu tasnif keyinchalik Bobur risolasida ham istifoda etilgan.

Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida 19 bahr, 160ta vazn keltirilgan. Navoiy o'z risolasida tayanch manba sifatida Abdurahmon Jomiyning "Risolai aruz" asaridan foydalangani uchun aruzshunoslikda mavjud an'anaviy 19 bahrgagina to'xtalib o'tadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi"da an'anaviy 19 bahrga qo'shimcha tarzda yana ikki bahr, jami 21 bahr keltirilgan. Shunga binoan uning asarida 9 doira, 537 vazn tahlil qilingan. Umuman olganda, bu uch ijodkorning aruz ilmiga doir risolalarini bahrlar misolida qiyosan o'rganish natijalari turkiy aruzshunoslik temuriylar davrida o'zining tadrijiy takomiliga yetganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

- Бобир, Захириддин. 1971. *Мухтасар*. Тошкент: Фан.
- Бухорий, Сайфий. 1867. *Арузи Сайфи*. Калькутта.
- DeWEESE, Devin. 2005. "The Predecessors of Nava'i in the "Funun al-balagh" of shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century". *Journal of Turkish studies* 29: 73 – 163.
- Фильштинский, Исаак. 1978. *Арабская литература в средние века*. Москва: Главная редакция восточной литературы.
- Фролов, Дмитрий. 1991. *Классический арабский стих. История и теория аруда*. Москва: Наука.
- Хайитметов, Абдуқодир. 2002. "Адабиётдан туркийда биринчи назарий қўлланма". *Ўзбек тили ва адабиёти журнали* 1: 70-74.
- Ҳасанов, Саидбек. 1981. *Бобирнинг "Аруз рисоласи" асари*. Тошкент: Фан.
- Ҳожиаҳмедов, Анвар. 1988. *Ўзбек арузи луғати*. Тошкент: Шарқ.
- Навоий, Алишер. 2011. *Мезон ул-авзон. Тўла асарлар тўплами*. Жилд 10. Тошкент: Ғафур Ғулом.
- Навоий, Алишер. 2011. *Наводир уш-шабоб. Тўла асарлар тўплами*. Жилд 4. Тошкент: Ғафур Ғулом.
- Розий, Шамс Қайс. 1991. *Ал-мўъжам*. Душанбе: Адиб.
- Стеблева, Ива. 2012. *Тюркская поэтика: этапы развития: VIII-XX вв*. Москва: Восточная литература.
- Султонов, Иззат. 1947. *Навоий "Мезон ул-авзон"и ва унинг критик тек-сти*. Докторлик диссертацияси. Тошкент.
- Тарозий, Шайх Аҳмад ибн Худойдод. *Фунун ул-балоға*. (Бодлиан кутубхонасида сақланувчи Eliott № 127 рақамли қўлёзма).
- Тоиров, Урватуло. 1997. *Становление и развитие аруза в теории и практике персидско-таджикской поэзии*. Душанбе.

- Тусий, Насируддин. 1992. *Меъёр ул-ашъор*. Душанбе: Ориёно.
- Тўйчиев, Уммат. 1985. *Ўзбек поэзиясида аруз системаси*. Тошкент: Фан.
- Тўйчиева, Гулхумор. 2018. *Ислом даври шеърятда аруз тизими ва унинг эволюцион тараққиёти*. Докторлик диссертацияси. Тошкент.
- Yusupova, Dilnavoz. 2020. "Poetry meters (bahrs), concentric circles (doirs) and the sizes of rubai in the aruz studies of the timurids' period". *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. Vol.24. Issue 08.
- Шидфар, Бетси. 1974. *Образная система арабской классической литературы (VI–XII вв.)*. Москва: Наука.

Dilnavoz Yusupova

(Tashkent, Uzbekistan)
dilnavoz@navoiy-uni.uz

Description of Poetic Meters and Sizes in the Turkic Treatises on the Aruz During the Timurid Period

Abstract

The article analyzes the problems of bakhrs (poetic meters) and vazns (sizes) presented in the Turkic treatises, which played a significant role in the formation and development of Aruz studies of the Timurid period, such as "Funun al-balaga" by Sheikh Ahmad Tarozi, "Mezon al-avzon" Alisher Navoi and "Aruz Risolasi" by Zakhiriddin Muhammad Babur. It is argued that in "Funun al-balaga", which is considered the first Turkic treatise, the qualification and definition of bakhrs were implemented specifically in a special direction. The work theoretically analyzed 40 bakhrs, 20 of which were not included in the treatises created before Sheikh Ahmad Tarozi. These meters were created by the author himself.

In his treatise "Mezon al-Avzon" Alisher Navoi analyzed 160 vazns associated with 19 bakhrs. In addition to those presented in Alisher Navoi's treatise, Babur discovered two more bakhrs and qualified them as "Ariz" and "Amik" bakhtras in his treatise. Babur showed 21 meters and 537 vazns in the Treatise on Aruz. The author of the article comes to the conclusion that Aruz studies reached its peak during the Timurid period.

Key words: *aruz (prosody), bakhr (poetic meter), vazn (size), taqti' (paradigm), doira (circle), musamman, musaddas.*

About the authors: *Dilnavoz Yusupova* – Doctor of Sciences in Philology, Assistant Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

Recommended citation: Yusupova, Dilnavoz. 2020. "Description of poetic meters and sizes in the turkic treatises on the aruz during the timurid period". *Golden Scripts* 4: 3—25.

References

- Bobir, Zahiriddin. 1971. *Muxtasar*. Toshkent: Fan.
- Sayfiy, Buxoriy. 1867. *Aruzi Sayfi*. Kalkutta.
- DeWEESE, Devin. 2005. "The Predecessors of Nava'i in the "Funun al-balagh" of shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century". *Journal of Turkish studies* 29: 73 – 163.
- Filshtinskiy, Isaak. 1978. *Arabskaya literatura v srednie veka*. Moskva: Glavnaya redaktsiya vostochnoy literaturi.
- Frolov, Dmitriy. 1991. *Klassicheskiy arabskiy stix. Istoriya i teoriya aruda*. Moskva: Nauka.
- Hayitmetov, Abduqodir (2002). "Adabiyotdan turkiyda birinchi nazariy qo'llanma". *O'zbek tili va adabiyoti jurnali* 1: 70-74.
- Hasanov, Saidbek. 1981. *Bobirning "Aruz risolasi" asari*. Toshkent: Fan.
- Hojiahmedov, Anvar. 1988. *O'zbek aruzi lug'ati*. Toshkent: Sharq
- Navoiy, Alisher. 2011. *Mezon ul-avzon*. To'la asarlar to'plami. Jild 10. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Navoiy, Alisher. 2011. *Navodir ush-shabob*. To'la asarlar to'plami. Jild 4. Toshkent: G'afur G'ulom.
- Roziy, Shams Qays. 1991. *Al-mo'jam*. Dushanbe: Adib.
- Stebleva, Iva. 2012. *Tyurkskaya poetika: etapi razvitiya: VIII-XX vv*. Moskva: Vostochnaya literatura.
- Sultonov, Izzat. 1947. *Navoiy "Mezon ul-avzon"i va uning kritik teksti*. Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent.
- Taroziy, Shayx Ahmad ibn Xudoydod. *Funun ul-balog'a*. (Bodleyn kutubxonasida saqlanuvchi Eliott № 127 raqamli qo'lyozma).
- Toirov, Urvatulo. 1997. *Stanovlenie i razvitie aruza v teorii i praktike persidsko-tadjikskoy poezii*. Dushanbe.
- Tusiy, Nasiruddin. 1992. *Me'yor ul-ash'or*. Dushanbe: Oriyono.
- To'ychiev, Ummat. 1985. *O'zbek poeziyasida aruz sistemasi*. Toshkent: Fan
- To'ychieva, Gulxumor. 2018. *Islom davri she'riyatida aruz tizimi va uning evolyusion taraqqiyoti*. Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent.
- Yusupova, Dilnavoz. 2020. "Poetry meters (bahrs), concentric circles (doirs) and the sizes of rubai in the aruz studies of the timurids' period". *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. Vol.24. Issue 08.
- Shidfar, Betsi. 1974. *Obraznaya sistema arabskoy klassicheskoy literaturi (VI-XII vv.)*. Moskva: Nauka.

Otabek Jo'raboyev*(Toshkent, O'zbekiston)*

atabekrj@gmail.com

Temuriy mirzolarning adabiy shaxsiyatini o'rganishda manbalarning o'rni

Abstrakt

Adabiy shaxsiyat tushunchasi har kishiga xos bo'lgan shaxsiyatdan farq qilib, adabiy va madaniy birikimdagi ijodkorning borlig'ini ifoda etadi. Shu ma'noda, XV asr hukmdorlari va ayni damda madaniy auradagi yetakchilar bo'lgan temuriy mirzolar o'z davrining adabiyot ahli yoki adabiyot namoyondalari sifatida manbalarda zikr etiladi. Bu borada Alisher Navoiyning "Majolis-un-nafois", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat-ush-shuaro", Zahiriddin Muhammad Boburning "Vaqoye'" ("Boburnoma"), G'iyosiddin Xondamirning "Habib-us-siyar", Muhammad Haydar mirzoning "Tarixi Rashidiy", Faxriy Hiraviyning "Ravzat-us-salotin", Zayniddin Vosifiyning "Badoe'-ul-vaqoe'", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkir-ul-as'hob" asarlarini sanash mumkin.

Tarixda she'r yozgan yoki boshqa ijod turi bilan shug'ullangan hukmdorlar ko'p o'tgan. Biroq bir shajaradan so'z san'atiga hissa qo'shgan butun boshli avlodning yetishib chiqishi kamyob hodisa. Bu borada temuriyzodalarning adabiyot bilan shug'ullanganlari, badiiy ijodni san'at darajasida qadrlanganlari isbottalab voqelik emas.

Temuriy mirzolarning adabiy shaxsiyatlari yuqorida ta'kidlangan manbalarda qay darajada zikr etilgan, ularga baho berishda mualliflarning yondashuvi va tamoyillari qanday edi? Mana shu kabi savollarga javob izlash ushbu maqolada maqsad qilib olingan. Maqolada temuriy mirzolarning turkiy til va adabiyot rivojiga qo'shgan hissalar Alisher Navoiyning "Majolis-un-nafois" asaridan olingan parchalar yordamida izohlangan. Shuningdek, mazkur manbalardagi Shohrux mirzo, Xalil Sulton, Muhammad Mo'min mirzo, Shoh G'arib mirzo va Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi qarashlar o'zaro qiyoslanib, tavsifiy va tavsiliy tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *Temuriylar, adabiy shaxsiyat, manba, matn, devon, tazkira, shoir.*

Muallif haqida: *Otabek Jo'raboyev – filologiya fanlari nomzodi,*

dotsent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktor o'rinbosari.

Tavsiya etiladigan havola: Jo'raboyev, Otabek.2020. "Temuriy mirzolarning adabiy shaxsiyatini o'rganishda manbalarning o'rni". *Oltin bitiglar* 4: 26—38.

Kirish

Adabiy shaxsiyat tushunchasi har bir kishiga xos bo'lgan shaxsiyatdan farq qilib, adabiy va madaniy birikimdagi ijodkorning borlig'ini ifoda etadi. Shu ma'noda, Temuriylar davrida, xususan madaniy aurada mazkur davrning peshqadam va ayni damda mutasaddilari bo'lgan Temuriy mirzolar adabiyot kishilari yoki adabiy shaxsiyatlar o'laroq ham manbalardan o'rin olganlar. Avvalo, mazkur manbalarning eng mashhurlarini sanab o'tsak. Bular:

- 1) Alisher Navoiyning "Majolis-un-nafois";
- 2) Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat-ush-shuaro";
- 3) Zahiriddin Muhammad Boburning "Vaqoye'" ("Boburnoma");
- 4) G'iyosiddin Xondamirning "Habib-us-siyar";
- 5) Muhammad Haydar mirzoning "Tarixi Rashidiy";
- 6) Faxriy Hiraviyning "Ravzat-us-salotin";
- 7) Zayniddin Vosifiyning "Badoye'-ul-vaqoye'";
- 8) Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkir-ul-ahbob" asarlari.

Shu o'rinda mavzu doirasida u yoki bu darajada fikrlar bildirgan va o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tgan olimlar Abdurauf Fitrat [Fitrat 2000, 37-45], Hamid Sulaymon [Sulaymon 1969, 33-48], Abduqodir Hayitmetov [Hayitmetov 1996, 3-19], Abdurashid Abdug'afurov [Abdug'afurov 2000, 39-49], Suyima G'aniyeva [G'aniyeva 2001, 66-84], Bo'riboy Ahmedov [Ahmedov 1985], Ismoil Aka [Aka 1994], Ahmad Kartal [Kartal 2020] va Mevhibe Shahbaz [Shahbaz 2018, 313-328] kabi olimlar nomini takidlab o'tish joiz.

Masalaga kirishda ta'kidlash kerakki, yana boshqa tarixiy va adabiy manbalarda ham ushbu mavzu doirasida yoxud shunga yaqin tematikada ayrim ma'lumotlar mavjud bo'lishi ham mumkin. Lekin aynan Temuriy hukmdorlar yoki o'zlarining atamasi bilan aytganda "mirzo"larning ijodkorligi va adabiy shaxsiyati bilan bog'liq o'rinlar yuqoridagi manbalardagina yaqqolroq ko'zga tashlanadi, desak yanglishmaymiz.

Tarixda she'r yozgan yoki boshqa ijod turi bilan shug'ullangan hukmdorlar ko'p o'tgan. Lekin butun boshli bir suloladan ko'p

sonli ijodkor-shoirlar sirasi yoki pleyadasi tarix davomida juda kam chiqqan. Hatto, yo'q darajada deyish mumkin. Lekin Temuriy hukmdorlarning adabiyotsevarligi, san'atga oshuhtaligi va ilm-fanga muhabbati isbottalab hodisa emas.

Biz aynan yuqorida sanalgan manbalarning Temuriy mirzolar adabiy shaxsiyatini yoritib berishdagi qiymatini ta'kidlash bilan birga ushbu asarlar mualliflarining fikrlari nechog'lik aniq va ushbu faktlar ortida qanday asoslar mavjudligi nuqtayi nazaridan masalaga yondashishni maqsad qilib qo'ydik.

Sharqshunos Herman Vamberining ta'biri bilan aytganda: *"O'rta Osiyoda asl turklik davri Amir Temurdan boshlanadi"* [Vamberi 2019, 1, 267]. Shunisi achchiq haqiqatki, ushbu boshlangan turklik va turkiy tilning siyosiy maqomga chiqish davri Temuriylardan so'ng deyarli so'ndi. Shayboniylarning Temuriylar qadar ma'rifat va adabiy shaxsiyatga ega emasliklari bora-bora fors tili mavqeyini yana kuchaytirib yubordi.

Asosiy qism

Temuriylar davrida turkiy til va adabiyotga alohida e'tibor berilgan edi. Ma'lumki, Amir Alisher Navoiyning "Majolis-un-nafois" tazkirasidagi sakkiz majlis (bo'lim)dan iborat bo'lib, uning yettinchi majlisi bevosita mirzolarga, sakkizinchi esa faqat Sulton Husayn mirzoga bag'ishlangan. Ushbu asarda 400 dan ortiq shoir haqida ma'lumot berilgan bo'lsa, yettinchi majlisda birinchi galda Sohibqiron Amir Temur, so'ngra Shohruh mirzo, Abubakr mirzo, Sulton Iskandar, Xalil Sulton, Ulug'bek mirzo, Boysung'ur mirzo, Bobur mirzo (Abulqosim Bobur), Abdulatif mirzo, Jahonshoh mirzo, Ya'qub mirzo, Said Ahmad Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Boyqaro mirzo, Kichik mirzo, Sulton Badiuzzamon mirzo, Shoh G'arib mirzo, Faridun Husayn mirzo, Muhammad Husayn mirzo, Boysung'ir mirzo, Sulton Mas'ud mirzo va Sulton Ali mirzo nomlari hamda she'rlaridan namuna keltiriladi. Shu tariqa 22 ta temuriyzoda borasida to'xtalangan. Ulardan faqat Amir Temur va Shohruh mirzo she'r yozmasligi, qolganlarining esa nazm ahli ekanliklari misollar bilan dalillangan. Navoiy bu otabolani *"nazm aytmoqqa iltifot qilmaydur"* yoki *"nazmg'a mashg'ulluq qilmas erdi"* [Navoiy 1997, 163-164] deya ta'kidlasada, ularning so'z borasida nuqtadonliklari va she'riyatni nozik tushunishlari eslatib o'tgan. Qizig'i shundaki, Navoiy ularni ketma-ket keltiradi hamda taqdirleri va fe'llaridagi o'xshashlikni bildirgan holda: *"Aningdek otadin mundoq o'g'ul hech ajab emas"* deydi [Navoiy 1997, 164].

Davlatshoh "Tazkirat-ush-shuaro" asarida aynan Shohruh

mirzo bilan bog'liq bir ajib hikoyat beradi: *"Shohruh sulton Samarqand taxtiga o'tirgach Amir Temurning Ko'ksaroy va arkida saqlanayotgan xazinasiga qadam bosdi. (Lekin) ablahlarning dimog'i aqldan, johillar qalbi bilimdan holi bo'lganidek (Shohruh ham) o'sha xazinani ganjdan holi topdi. Tasodifan, mirzo asosining uchi bir dirhamga tegdi va uni mirzo olib hamyoniga soldi. So'ngra hamrohlariga yuzlanib dediki: Biz, Shu dirham haqqi, otamizdan qolgan xazina va merosdan bahramand bo'ldik..."* [Samarqandiy 1981, 144].

Ushbu hikoya asardagi Bisotiy Samarqandiy haqidagi fiqrada keltirilgan bo'lib, bu shoir yana bir temuriyzoda Xalil Sulton davrida mashhur bo'lgan va mirzoning marhamatiga sazovor bo'lgan edi. Davlatshoh, aslida, Xalil Sulton shoirning bir she'ri uchun bergan ming dirhami ortida saxovatpeshalik bo'lib ko'ringan isrofgarchiligi yotganini Shohruh mirzoning bo'm-bo'sh xazinaga kirishi bilan bejiz bog'lamagan. Negaki, "Tazkirat-ush-shuaro"ning aynan shu o'rnida: *"Sohibqiron o'z hukmronligi davrida Eron-u Turonning xirojidan jam qilgan, o'tkir qilich bilan bittalab jamlagan xazinani Sulton Xalil qoplab in'om qilib yubordi"* deyiladi [Samarqandiy 1981, 144].

Xalil Sultonning bu jihatlarini Navoiy "Majolis-un-nafois"da tilga olmaydi. Faqat Amir Temurdan keyin taxtga o'tirgani va she'r aytishi mashhurligini eslatib, Xoja Ismat Buxoriy unga qasida bag'ishlaganini ta'kidlaydi. Biroq qasidaning topilmaganini ham qistirib o'tadi: *"Hazrat sulton-us-salotinning voqeasidin so'ngra Samarqand taxtida saltanat qildi. Zurafo va shuaro majlisida jam' bo'lurlar erdi. Mashhurdurkim, o'zi she'r aytur erdi. Andoqkim, devoni ta'rfida Xoja Ismatulloh qasida aytibdur, ammo tilab topilmadi, ushbu matlayidin o'zgakim:*

*Ey turki pari paykarimiz, tarki jaf o'qil,
Komi dilimiz, la'li ravonbaxsh ravo qil"*

[Navoiy 1997, 165-166].

Haqiqatan, hanuz Xalil Sultonning Navoiy eslatgan turkiy devoni topilgan emas. Biroq keyinchalik ma'lum bo'lishicha, Ismat Buxoriy Xalil sultonga bir emas 40 ta qasida bag'ishlagan ekan.

Shunisi ajibki, aynan Navoiyning "Majolis-un-nafois" asarini keyinchalikforschaga tarjima qilgan va yana boshqa tazkirasi "Ravzat-us-salotin"ni tuzishda ham Navoiy yozmalaridan unumli foydalangan Faxriy Hiraviy Xalil Sultonni juda maqtaydi: *"Bag'oyat xushtab', zarif va nuktaguzor..."* [Hiraviy 2014, 42]. Hattoki, temuriyzodalardan tazkirasida birinchi bo'lib uni keltiradi.

Shuningdek, Faxriy Hiraviy Xalil Sultonning she'rdagi hozir-javobligi va shu bilan bobosi Amir Temurni xursand qilganligi bilan

bog'liq, Bag'dodni fath etishdagi Sulton Ahmadning kibrli qit'asiga hamonoq yozgan javob she'ri voqeasini ham aynan keltiradi.

Bobur esa o'z "Vaqoye" ("Boburnoma")sida Xalil Sultonga ortiqcha to'xtalmaydi. Ayrim joylardagina nomini eslaydi, xolos. Zayniddin Vosifiy "Badoe'-ul-vaqoe'" [Vosifiy 1983] va Hasanxo'ja Nisoriy "Muzakkir-ul-ahbob"da [Nisoriy 1993] u haqida to'xtalmaydi ham.

Hasanxo'ja ko'proq va asosan temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur va uning o'g'illariga to'xtaladi. Ularni juda maqtaydi, she'rlaridan yaxshi namunalar keltiradi. Bu borada Faxriy Hiraviy bilan yondashuvlari juda mos keladi. Nisoriy Bobur mirzo, Humoyun mirzo, Komron mirzo, Askariy mirzo va Hindol mirzolar haqida batafsil to'xtaldi. Ayniqsa, Boburning o'zi va Humoyun, Komronlar haqida ancha bayonlar bergan, ularning adabiy iqtidoriga tahsinlar o'qigan. To'g'ri, bu tafsilotlar orasida boshqa voqealarga ham chalg'ishlar bor. Masalan, Komron podshoh haqida to'xtalar ekan uning irodati Xoja Abdulhaq bin Xojago bin Xoja Nosiriddin Ubaydullohga ekanligini ta'kidlab, o'zining Xoja Abdulhaqqa ot olib borish voqeasini atroflicha aytadi [Nisoriy 1993, 60-61]. Yoki Komron mirzoning *"bu dunyoning o'tkinchi davlatidan ko'z yumgan va muazzama Ka'ba va mukarram Makka tavofiga yuzlangan"* [Nisoriy 1993, 61] safarini gapira turib, Makka va Ka'batulloh to'g'risidagi ma'lumotlarga o'tib ketadi. Ammo bu kabi jihatlariga qaramay, Nisoriyning temuriy-boburiyzodalar haqida keltirgan adabiy faktlari g'oyat qiziqarli va asoslidir. Masalan, Abdulazizxon (vafoti 1550-y.) haqida to'xtalganda uning "Aziziy" taxallusi bilan she'rlar ijod qilgani va aynan Komron mirzoning bir necha g'azaliga tatabbu' qilganini eslab, ularning matnini keltiradi [Nisoriy 1993, 45]. Ushbu dalilning o'ziyoq o'sha davrda Komron mirzo she'rlari Movarounnahr, xususan Buxoro saroyida mashhur ekanliga dalolat qiladi.

Faxriy Hiraviy esa tazkirasini o'z nomi bilan ijodkor sultonlarga bag'ishlagan va unda 36 nafar Temuriy mirzoning shoirligidan so'z yuritadi. Albatta, avvalo, uning hirotlik bo'lish bilan birga muallif ushbu asarini 1551-1555-yillarda yozganini diqqatga olmoq kerak. Shuning uchun, Navoiy tilga olmagan bir qancha temuriyzodalarni ham yodga keltiradi. Jumladan, Muhammad Mo'min mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Xon mirzo, Bobur mirzo, Nosir mirzo, Humoyun mirzo, Komron mirzo kabi. Albatta, Bobur podshohning ijodi va uning o'g'illari haqida ayonki Navoiy bilmagan hamda ular keyinroq yashashgan. Hamda ularning aksari Faxriy bilan zamondosh edi.

Ma'lumki, nomlari keltirilgan mirzolardan Mo'min mirzo

g'oyat iste'dodli va ma'rifatli shahzoda bo'lib, uning ayrim she'rlari, xususan Abdurahmon Jomiy g'azaliga mahorat bilan bog'lagan muxammasini ayrim manbalar va Faxriy ham keltiradi. U Mo'min mirzoning shaxsiyati va ijodiga juda yaxshi ta'rif beradi. Jumladan, aytadiki: *"Muhammad Mo'min mirzo Badi'uzzamon mirzoning o'g'li edi. Va (Sulton) Husayn mirzo avlodlarining otasi bilan bu barcha muxolifliklari uning nohaq xuni vositasi sababli bo'ldi... Va Muhammad Mo'min mirzo husn-u jamolda Yusufi soniy edi. Va latif tab'i bor edi va nazmi bag'oyat yaxshi edi..."* [Hiraviy 2014, 65].

Ushbu ma'lumotlar bilan birga Faxriy Hiraviy Mo'min mirzoni nohaq qatl etgan Sulton Husaynga Mavlono Gulxaniy atagan qit'ani eslatadi. So'ngra, Mo'min mirzo amakisi Muzaffar mirzo bilan jangda mag'lub bo'lgach, Mo'minning o'zi aytgan matla'ni keltiradi [Hiraviy 2014, 65]:

*Manam k-az zarbi tig'am besha xoli g'azanfar shud,
Falak yori nakard, ey do'ston, dushman Muzaffar shud.*

(Qilich zarbidan to'qaydagi sherni qochirgan men edim,
Taqdir yordam bermadi, do'stlar, dushman Muzaffar bo'ldi.)

Yoxud Mavlono Jomiy g'azaliga u tomonidan bog'langan taxmis mashhurliqi va mazmundorligi tazkirada alohida ta'kidlangan. Mana o'sha muxammasning dastlabki bandi:

*Mahiro ki oyati xo'bist dar shoni ruxash nozil,
Dil az man burd-u shud yakboragi az holi man g'ofil,
Namibinam dilashro jonibi ahli vafo moyil,
Musulmonon, che sozam chora bo on sho'xi sangi dil?
Ki ham kom az labash sa'bast-u ham sabr az ruxash
mushkil.*

(Bir mohsiymoning yuzi sha'niga yaxshi oyat nozil bo'ldi,
Qalbimni olib ketdi va yana bir bor mening holimdan g'ofil
bo'ldi,

Dilini vafo ahli tarafga moyilligini ko'rmasam,
Musulmonlar, ul bag'ri tosh sho'xga qanday chora qilayin
Ki, labidan kom olish qiyin-u ham yuzi tufayli sabr qilish
mushkil).

Haqiqatan ham mazkur misralardan Mo'min mirzoning g'oyatda iste'dodli ijodkor bo'lib yetishayotgan mirzolaridan biri

bo'lgani ko'rinib turibdi. Faxriy Hiraviy ham, albatta, ishonchli manbalar vositasida bu ma'lumotlarni bergan.

Biroq shunday iste'dod egasi Mo'min mirzoga Alisher Navoiyning o'z tazkirasida bayon bermaganligi qiziq. Fikrimizcha, bunga sabab, asar yozilgach, albatta, uni Sulton Husayn Boyqaroga taqdim etilmog'idir. Chunki ushbu asar yuzasidan muallif 1498-yilda ikkinchi tahrirni qilgan. Bu orada esa Mo'min mirzo vafot etgan edi (1497-y.). Ravshanki, bu salohiyatli va umidbaxsh shahzodaning she'r yozishini Navoiy aniq bilgan. Hattoki, manbalarga ko'ra u ko'p bora Navoiyning xos suhbatiga sazovor ham bo'lgan. Biroq uning o'z bobosi, ya'ni Sulton Husayn mirzo tomonidan ichkilik ta'sirida "bilib-bilmay" qatlig'a hukm berilib yuborilishi va keying oqibatidagi fojialar dog'i hali-hanuz ketmagan edi. Navoiy xuddi shu jihatlarni ko'zda tutgan holda Mo'min mirzodek iste'dodli yosh shoirni o'z tazkirasiga kiritmaslikka "majbur bo'ladi".

Yoki yana Sulton Mahmud mirzo (Abusaid mirzoning o'g'li, 1453-1495-y.y.) haqida ham Alisher Navoiy o'z tazkirasida eslamaydi. Vaholanki, u Samarqandda bir necha yil hukmdorlik qilgani, she'rlar ijod qilib, ulardan devon tartib bergani ma'lum. Bu haqda Bobur ham "Vaqoye"da eslaydi [Bobur 2002, 48]. Faxriy ham o'z tazkirasida bu temuriyzodani yaxshi eslaydi va she'rlarini maqtaydi [Hiraviy 2014, 55].

Ammo Bobur o'z amakisi bo'lgan bu ijodkor Temuriy mirzoning she'rlarini tanqid qiladi: *"Tab'i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she'ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she'r aytqandin aytmag'an yaxshiroqdur"* [Bobur 2002, 48].

Nazarimizda, Alisher Navoiy ham aynan shu – Bobur ko'zda tutgan jihatlarni bilgan va shuning uchun o'z asariga Sulton Mahmud mirzoni kiritmay qo'yaqolgan.

Sulton Husaynning yana bir o'g'li Shoh G'arib mirzo haqida esa deyarli barcha mualliflar birvarakayiga faqat ijobiy jihatlarni ko'rsatganlar. Aslida, Shoh G'arib mirzo (1470 – 1496) jismonan nosog'lom kishi bo'lgan. Lekin uning bu jihatini Navoiy va Faxriy tilga olmaydi. Bobur esa aytadi: *"Shoh G'arib mirzo... bukri edi. Agarchi hay'ati yomon erdi, tab'i xo'b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg'ub edi. G'aribiy taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi, turkiy va forsiy she'r aytur edi..."* [Bobur 2002, 129].

Bu o'rinda, Bobur o'ziga xos ochiqlik bilan Shoh G'aribning jismoniy qusurini aytyapti, lekin uning ijodiy shaxsiyatiga hamda insoniyligiga katta baho bermoqda. Har uch muallif ham uning devoni ma'qul ekanini ta'kidlashadi. Ya'ni, G'aribiy shoir o'laroq

e'tirofga sazovor temuriyzoda.

Yana mualliflarning maqtovda fikrlari bir joydan chiqqan mirzo bu Boysung'ur edi (1397-1433-y.y.). Uning yaxshi ishlari, san'at va adabiyotga homiyligi, xattotlik ilmi va boshqa jihatlarini barcha mualliflar alqagan. Masalan, Navoiy uni *"xushtab', saxiy, hunarparvar podshoh... xattot, naqqosh, sozanda, go'yandadin benazir..."* desa [Navoiy 1997, 166], Faxriy Hiraviy ham aynan shu sifatlarni keltiradi va Bobo Savdoyi bilan bog'liq voqeani qo'shimcha qiladi [Hiraviy 2014, 46-47].

Ko'p yodga olingan Bobur mirzoning o'zi haqida Muhammad Haydar mirzo yozadi: *"... Hutba va yorliqlarda uni "Zahiriddin Muhammad Bobur" deb aytishdi va yozishdi. Ammo u ko'proq Bobur podshoh nomi bilan mashhurdir... U turli go'zal fazilatlar, maqtovga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelardi. Turkiy she'riyatda Mir Alisherdan keyin hech kim uningchalik ko'p yozmagan. U turkiyda ajoyib totli devon tartib bergan..."* [Haydar 2010, 250].

Nisoriy tazkirasida shunday keltiradi: *"Bobur podshohning fazilatlarini bisyor va kamolotlari beshumordir. Aruz bo'yicha yozgan risolasi bir dengizdurkim, ichi to'la javohir-u durdona, fiqh masalalarini dag'i bir risolada mubayyan qilgankim, yozg'uvchisi donishmandligidin bir nishona. Turkiy va forsiyda yaxshi she'rlari bor..."* [Nisoriy 1993, 53].

Faxriy esa shunday yozadi: *"Umarshayx mirzo farzandi edi va Amir Temur Sohibqironning majid avlodi sultonlaridandir. Undan keyin fahm-u farosat va shamshir zarbida Sulton Husayn mirzoga teng podshoh yo'q edi... Va musiqa ilmida benazir edi. Va turkiy va forsiy ash'orda va aruz va qofiyada yuksak mahorati bor edi..."* [Hiraviy 2014, 65].

Demakki, mana shunday o'rinlarda turli ijodkorlarning shaxsiyatiga munaqqidlarning turlicha munosabatlarini ham ko'rish mumkin. Albatta, har bir muallif o'z mavqeyi darajasi va tafakkur doirasidan kelib chiqib baho beradi. Masalan, Navoiy, Davlatshoh va Bobur Temuriylarni ichdan yaxshi bilishgan. O'zlari yozayotgan mirzolar bilan ko'rishgan, muloqotda bo'lgan, insoniy sifatlarini ham sinovdan o'tkazishgan. Biroq ularning jamiyatdagi mavqeyi vasf etilayotgan mirzolarga turlicha munosabatda bo'lishni ham taqozo qiladi.

Aytaylik, Navoiy Sulton Husaynga har qancha yaqin bo'lib, arbob sifatidagi o'rni yuqori bo'lsa ham ayrim masalalarda mirzolar haqida jim bo'lishni yoki bor narsani ham e'tirof etmaslikni afzal

biladi.

Davlatshohning esa mansabi ham, mavqeyi ham Navoiydan ancha past edi. Shuning uchun u deyarli tanqidiy mulohazani tilga olmaydi. Faqat Sulton Xalilning xazinani sarf qilishdagi tiyiqsizligi kabi o'rinlarni hikoyatlar yordamida ishoralarda berib ketadi.

Zahiriddin Bobur esa o'zi ham temuriyzoda va hukmdor. Asar yozishda, ayniqsa kishilar yoki ijodkorlarga baho berishda faqat o'z bilimi, tajribasi va dunyoqarashidan kelib chiqibgina baho beradi. O'zgalar fikri bilan bo'lishish yoki kimgadair qaramlik tuyg'ulari undan butkul begona. Shuning uchun u uslubda ham, bayonda ham mutlaq erkin yo'l tutadi. Shu bilan birga, ta'kidlangan mualliflardan Navoiy va Bobur Temuriy ijodkorlarning turkiy tilda yozib yozib-yozmasligiga alohida e'tiborni qaratishgan. Aytish zarurki, bu jihat ular uchun juda muhim faktor edi.

Alisher Navoiy mazkur tazkirasida 459ta shoir haqida ma'lumot bergan bo'lsa, ulardan atigi 41 nafari zullisonayn (ikki tilda yozuvchi) ijodkorlar bo'lib, ularning 12 tasi Temuriy mirzolardir. (Ta'kidlash kerakki, bu sanoq nomlari keltirilgan 22 nafar mirzodan 12 tasini, ya'ni yarmidan ortig'i 60% ini tashkil qiladi.) Misol uchun, Navoiy Shohruh mirzodan keyinoq Abubakr va Sulton Iskandar mirzolarining ijodkorligini baholayotib, ularning tuyuqlaridan namuna keltiradi va *"turkonaroq"* deya ta'riflaydi. Boshqa mirzolarining ham turkiy tilda ijod qilganiga alohida urg'u bergani holda, samimiy izhorini bayon qilib ketadi. Bobur ham *"Vaqoye"* sahifalaridagi Temuriy qarindoshlarining turkiy tilga rag'bat bilan yondashganini alohida yozib o'tadi (Shoh G'arib, Sulton Mas'ud kabi).

Bundan tashqari, Navoiy *"Muhokamat-ul-lug'atayn"* asarida o'zining til siyosatini aniq va ravshan bayon etgan. Bu borada amalga oshirgan zahmatli ishlarini ham alohida ta'kidlagan. U kuyinib shunday ta'kidlaydi: *"...bu xalq orasidan paydo bo'lgan tab' ahli salohiyat va tab'larini o'zga til bilan zohir qilmasalar erdi va agar ikkala til birla aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aytsalar erdi..."* [Navoiy 2000, 23].

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, Temuriylar davri va xususan Temuriy mirzolarining adabiy shaxsiyatini o'rganishda yuqoridagi kabi manbalarning o'rni beqiyosdir. Oradan uch asr o'tib vengriyalik olim H.Vamberi ta'kidlagan edi: *"Mir Alisher... o'zining turk tilidagi bitmas-tuganmas asarlari bilan, Eron adiblarining kamsitish va kulishlariga qarshi turk millati vakillarini chin qalbidan mudofaa etish bilan*

barhayotlligida ham, vafotidan so'ng ham vatandoshlarining buyuk hurmatiga sazovor bo'ldi" [Vamberi 2019, 2, 33 – 34].

Aytish mumkinki, o'zining turkiy tili bilan ko'prak aytib o'zgalarga namuna bo'lish va bu borada ko'p yutuqlarga erishish Navoiy davrida ro'yobga chiqqan edi. Boburning o'zi ham davlatida bunga amal qildi. Aslan salohiyatli Temuriy mirzolarning ko'p qismi Navoiy o'gitlariga amal qilishar, turkiy tilga rag'bat ko'rsatishar, davlat miqyosida ish yuritishda turkiyga katta e'tibor berishar, ularga taqdim etilayotgan asarlarning aksari ham turkiy tilda edi (masalan, Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan Sakkokiy qasidalari va Shayx Ahmad Taroziyning "Funun-ul-balog'a" asari).

Adabiyotlar

- Абдуғафуров, Абдурашид. 2000. "Темурийлар ва ўзбек адабиёти равнақи". *Адабиёт кўзгуси* 6: 39 – 49.
- Аҳмедов, Бўрибой. 1985. *Навоий замондошлари хотирасида*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Aka, İsmail. 1994. *Mirza Şahrüh ve Zamanı (1405-1447)*. Ankara: TTK Yay.
- Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2002. *Бобурнома (Вақое)*. Нашрга тайёрловчи: С.Ҳасанов. Тошкент: Шарқ.
- Фитрат, Абдурауф. 2000. *Танланган асарлар, 2*. Нашрга тайёрловчи: Ҳ.Болтабоев. Тошкент: Маънавият.
- Ҳайдар, Муҳаммад мирзо. 2010. *Тарихи-Рашидий*. Таржимонлар: В.Раҳмонов ва Я. Эгамова. Тошкент: Шарқ.
- Ҳайитметов, Абдуқодир. 1996. *Темурийлар даври ўзбек адабиёти*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Ҳиравий, Фаҳрий. 2014. *Равзат-ус-салотин*. Таржимон: Ж.Жўраев. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Kartal, Ahmet. 2020. "Baykara meclisinden yansımalar". *Divan Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 24: 285 – 349.
- Навоий, Алишер. 1997. *Мажолис-ун-нафоис*. Мукаммал асарлар тўплами, 13. Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 2000. *Муҳокамат-ул-лугатайн*. Мукаммал асарлар тўплами, 16. Тошкент: Фан.
- Нисорий, Ҳасанхўжа. 1993. *Музаккир-ул-аҳбоб*. Таржимон: И.Бекжонов. Тошкент: Мерос.
- Самарқандий, Давлатшоҳ. 1981. *Тазкират-уш-шуаро*. Таржимон: Б.Аҳмедов. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Sulaymon, Hamid. 1969. *The problems of studying artistic manuscripts and the art of calligraphy of the age of Timurides*. Tashkent.
- Şahbaz, Mevhibe. 2018. "Timulularda Şehzade Eğitimi". *Çukurova Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 18 (1): 313 – 328.
- Вамбери, Ҳерман. 2019. *Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи*, 1-китоб. Таржимон: С.Аҳмад. Тошкент: Info capital group.
- Вамбери, Ҳерман. 2019. *Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи*, 2-китоб.

Таржимон: С.Аҳмад. Тошкент: Info capital group.

Восифий, Зайниддин. 1979. *Бадоеъ-ул-вақоеъ*. Таржимон: Н.Норкулов. Тошкент: Адабиёт ва санъат.

Ғаниева, Суйима. 2001. "Алишер Навоий ва ижодкор темурий шахзодалар". *Навоийнинг ижод олами*, 66-84. Тошкент: Фан.

Otabek Juraboev

(Tashkent, Uzbekiston)

atabekrj@gmail.com

The Importance of Sources in the Study of the Literary Personality of the Timurids

Abstract

The concept of a literary personality expresses the literary and cultural accumulation of the artist, which differs from the personality unique to each person. In this sense, the Timurids-mirzas, who were outstanding and at the same time rulers of the period in the cultural sphere of the XV century, appeared in the sources as literary people or literary figures. If you count some sources related to the topic: "Majalis-un-nafais" Alisher Navoi, "Tazkirat-ush-shuara" of Devletsah Samarkandi, "Wakaya" (Baburname) of Zahiriddin Muhammad Bobur, "Habib-us-siyar" of Giyaseddin Khandemir, "Tarikh-i Rashidi" of Muhammed Haider Mirza, "Ravzat-us-Salatin" by Fakhr-i Heravi, "Badee-ul-wakaye" of Zayniddin Vosifiy, "Muzakkir-ul-ahbab" of Hasanhoja Nisari.

Throughout history, there have been many rulers who wrote poetry or engaged in other arts. However, this is a very rare event in the history of literature, when there are many masters who grew up from the same dynasty. In this respect, it is a fact that the Timurid rulers did not require much evidence that they were interested in and interested in literature, artistic creativity, and ingenuity.

Having stated the value of the Timurid mirzas in reflecting their literary personality in the above-mentioned and related sources, we have defined the purpose and duty to indicate how clear the ideas of the authors of the mentioned works are and what are the principles underlying them.

The article explains the significance of the Timurids for the Turkish language and literature by citing examples from Alisher Navai's book "Majalis-un-nafais", whose works they wrote in Chagatai Turkic and other sources. In fact, the information contained in the sources about Shahrukh

mirza, Khalil Sultan, Mohammad Mumin mirza, Shah Garib mirza, and Zahiriddin Mohammad Babur has been identified, described, and analyzed.

Key words: *Timurids, literary personality, source, text, divan, tezkire, poetry.*

About the author: *Otabek Juraboev* – Doctor Of Philosophy In Philology, Assistant Professor, Deputy Director for Scientific Affairs of the Alisher Navoi State Museum of Literature Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Recommended citation: Juraboev, Otabek. 2020. "The Importance of Sources in the Study of the Literary Personality of the Timurids". *Golden Scripts* 4: 27—38.

References

- Abdug'afurov, Abdurashid. 2000. "Temuriylar va o'zbek adabiyoti ravnaqi". *Adabiyot ko'zgusi* 6: 39 – 49.
- Ahmedov, Bo'riboy. 1985. *Navoiy zamondoshlari xotirasida*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Aka, İsmail. 1994. *Mirza Şahruh ve Zamanı (1405-1447)*. Ankara: TTK Yay.
- Bobur, Zahiriddin Muhammad. 2002. *Boburnoma (Vaqoye)*. Nashrga tayyorlovchi: S.Hasanov. Toshkent: Sharq.
- Fitrat, Abdurauf. 2000. *Tanlangan asarlar, 2*. Nashrga tayyorlovchi: H.Boltaboyev. Toshkent: Ma'naviyat.
- Haydar, Muhammad mirzo. 2010. *Tarihi-Rashidiy*. Tarjimonlar: V.Rahmonov va Y. Egamova. Toshkent: Sharq.
- Hayitmetov, Abduqodir. 1996. *Temuriylar davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Hiraviy, Faxriy. 2014. *Ravzat-us-salotin*. Tarjimon: J.Jo'rayev. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Kartal, Ahmet. 2020. "Baykara meclisinden yansımalar". *Divan Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 24: 285 – 349.
- Navoiy, Alisher. 1997. *Majolis-un-nafois*. Mukammal asarlar to'plami, 13. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 2000. *Muhokamat-ul-lug'atayn*. Mukammal asarlar to'plami, 16. Toshkent: Fan.
- Nisoriy, Hasanxo'ja. 1993. *Muzakkir-ul-ahbob*. Tarjimon: I.Bekjonov. Toshkent: Meros.
- Samarqandiy, Davlatshoh. 1981. *Tazkirat-ush-shuaro*. Tarjimon: B.Ahmedov. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Sulaymon, Hamid. 1969. *The problems of studying artistic manuscripts and the art of calligraphy of the age of Timurides*. Tashkent.
- Şahbaz, Mevhibe. 2018. "Timulularda Şehzade Eğitimi". *Çukurova Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 18 (1): 313 – 328.
- Vamberi, Herman. 2019. *Buhoro yoxud Movarounnahr tarihi*, 1-kitob. Tarjimon: S.Ahmad. Toshkent: Info capital group.

- Vamberi, Herman. 2019. *Buhoro yoxud Movarounnahr tarihi*, 2-kitob.
Tarjimon: S.Ahmad. Toshkent: Info capital group.
- Vosifiy, Zayniddin. 1979. *Badoe'-ul-vaqoe'*. Tarjimon: N.Norqulov.
Toshkent: Adabiyot va san'at.
- G'aniyeva, Suyima. 2001. "Alisher Navoiy va ijodkor temuriy shahzodalar". *Navoiyning ijod olami*, 66-84. Toshkent: Fan.

Olmosxon Abdurahmonova*(Qo'qon, O'zbekiston)*

os0893@mail.ru

Munozara janri tarixi va takomili

Abstrakt

Maqola badiiy adabiyotda munozara janrining taraqqiy etish tadriji va takomiliga bag'ishlangan. Shuningdek, munozara so'zining ma'nosi va u qanday vazifani bajaradi, adabiyotshunoslikda o'rni qanday degan savollarga javob beradi. Munozara atamasining izohli hamda ensiklopedik lug'atlarda qanday ma'nolarda kelishiga qarab ular turlarga ajratib izohlangan.

Olimlarning munozara janriga bildirgan fikrlari umumlashtirilib yaxlit xulosaga kelingan. Maqolada, shuningdek, munozaraning yaratilish tarixi yoritilgan. G'arb va sharq xalqlari adabiyoti qiyosiy o'rganilib, mulohazalar ilmiy asosda ko'rsatib berilgan. Ya'ni munozara ilk yozuv paydo bo'lgan Mesopotamiya sivilizatsiyasi Shummer-akkad davrdan to hozirgi kunga qadar mashaqqatli yo'lni bosib o'tgani to'g'risida ilmiy dalillar asosida yoritilgan. Bundan tashqari munozara arab adabiyotida yuzaga kelgan bo'lsa-da, fors-tojik adabiyotida yuksak pog'onalarga erishgani yoritilgan. Buning ilk namunasi sifatida qadimgi yozma yodgorlik "Draxti Asurik" (Echki bilan Palma daraxti) o'rtasidagi bahs va undan keyingi davrlardagi munozaralar misol tariqasida yoritilgan.

O'zbek mumtoz adabiyotidagi munozara janri, asosan, ikki turga boshqa adabiy janrlar tarkibiy qismi sifatida va mustaqil janr sifatida bo'lib o'rganilgan. Bu esa munozara janri taraqqiqiyotiga sezilarli ta'sirini o'tkazgan.

Adabiy aloqalar xalqlarning madaniy aloqalari kabi qadimiydir. Ularning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy shart-sharoitlari, urf-odatlar, adabiy aloqalari etnik tarkib jihatdan umumiy bo'lgan. Ushbu xalqlar adabiyotini o'rganar ekanmiz ular orasida munozara janrida barakali ish olib borganliklarini guvohi bo'lamiz. Shu jumladan, Ozarbayjon, Turk xalqlari adabiyotida munozara janri bo'yicha qilingan ishlar alohida ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *munozara, adabiy manba, qo'lyozma, adabiy janr, she'riyat, janr, qiyosiy tahlil, badiiy mahorat.*

Muallif haqida: *Olmosxon Abdurahmonova* – doktorant, Qo‘qon davlat pedagogika instituti.

Tavsiya etiladigan havola: Abdurahmonova, Olmosxon. 2020. “Munozara janri tarixi va takomili”. *Oltin bitiglar* 4: 39—61.

Kirish

Rus adabiyotshunosi Pospelov “Janr – asarlar muammosining tarixiy takrorlanadigan tomoni” [Поспелов 1978, 15], – deb yozgan edi. Bu fikr faqat rus adabiyoti uchun emas, dunyodagi barcha xalqlar adabiyoti uchun ham xosdir. Zero, adabiy janrlar nihoyatda uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tadi. Ana shu jarayonda u ko‘plab o‘zgarishlarga uchraydi, takomillashib boradi. O‘zgarish va takomillashish jarayoni janrning mazmuniga ham, shakliga ham daxldor bo‘lishi mumkin [Jalolova 1992, 7]. Bunday holat mumtoz adabiyotdagi deyarli barcha janrlar, jumladan, munozaralar uchun ham xosdir. Tabiiyki, biz ishni munozara nima, u qanday janr, uning asl mohiyati nimalardan iborat degan savolga javob izlashdan boshlaganimiz maqsadga muvofiq.

Adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug‘atida [Salayev 2010, 146]: Munozara arabcha **مُناظرة** so‘zidan olingan bo‘lib, **“bahs, tortishuv”** degan ma’nolarni anglatadi. Munozara – fors-tojik va turkiy xalqlar mumtoz adabiyotida turli narsa yoki jonivorlarning bahslashuvi, tortishuvi tarzida yozilgan badiiy asar. Munozara nasr uslubida ham, nazm uslubida ham yozilishi mumkin. Munozara ko‘pincha qissadan hissa yoki muallifning asar voqealaridan chiqargan xulosasi bilan tugallanadi.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasda [O‘ME 2000.] “Munozara – fikrlar kurashi shaklida yozilgan badiiy asar. Munozarada turli narsa, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar konfliktga kirishadi. Obrazlar ko‘pincha ramziy mohiyat kasb etib, o‘zaro bahslashadilar. Ba‘zan Munozarada maqtov (panegirik) qismi ham bo‘ladi. Unda mazkur asarni yozishga turtki bergan odam maqtaladi. Ammo, bu hamma asarlarda ham bo‘lavermaydi” – deya ta’rif berilgan.

Islom ensiklopediyasida [Wagner 1993, 565 – 566] *“bahs haqiqatni ochish uchun munozaralar tamoyillarini o‘rganadigan fan nomi”* deb ta’riflangan. “Nazara”ning ildizidan kelib chiqqan, arabcha *o‘ylashga qarash* ma’nosini anglatuvchi munozara so‘zi “birgalikda qarash, birgalikda o‘ylash, qoidaga muvofiq bir-birlari bilan suhbatlashish, ilmiy bahs” degan ma’noni anglatadi.

Munozara janr sifatida juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, jahon xalqlarining barchasida alohida va mustaqil janr sifatida uchraydi. Turkman xalq masallarini o'rgangan E.Ashirova janrning tarixiy ildizlarini izlar ekan, uning asosiy tabiiy manbalaridan birini munozaralarda ko'rishi ham tasodifiy emas [Аширова 1988, 65]. Agar qadimgi Yunon, Rim va jahon adabiyoti ko'zdan kechirilsa, ularda ham ushbu janrning analoglarini uchratish mumkin:

Tenson [Брокгауза 1890 – 1907] yoki *tenzona* (fransuzcha *tenson*, Provence *tenso*, lotincha *tensiodan*) – Provans lirikasining bir shakli (qarang), u *contensio*, *partimen*, *jocz-partitz*, *tornayamen*, *trouvarlar* (XII – XIII asr fransuz she'rlarining qadimiy nomi) uchun – *partura* yoki *jeu-partiu* deb ham nomlangan. Bu ismlarning barchasi *raqobat*, *kurash* degan ma'noni anglatadi. Tensona – ikki yoki undan ortiq xonandalar o'rtasidagi she'riy dialog; Ba'zan bu to'g'ri va tezkor bo'lmagan she'riy bahs; gohida bir shoirdan ikkinchisiga savol-javoblar, bahs va e'tirozlar yuborilgan. Bizgacha yetib kelgan ba'zi she'rlarda hakamlarning ismlari va qarorlari saqlanib qolgan.

Debat [Брокгауза 1890 – 1907] (yunoncha *Diázap* – o'qiyman) – aniq tuzilgan va maxsus tashkil etilgan jamoatchilik fikr almashish, dolzarb mavzular bo'yicha ikki tomon o'rtasida bahs. Ushbu turdagi ommaviy bahs-munozaralar munozara ishtirokchilari uchinchi tomonni bir-birlariga emas, balki o'zlarining haqlariga ishontirishlarini ta'minlashga qaratilgan. Debat ishtirokchilari tomonidan ishlatiladigan og'zaki va og'zaki bo'lmagan vositalar, qo'yilgan muammo bo'yicha tinglovchilar o'rtasida ma'lum fikrni shakllantirishga qaratilgan. Debatlarni ko'pincha prezidentlikka nomzodlarning saylovoldi siyosiy muhokamalari tushuniladi.

Dispute [Диспут – вигипедия] (lotincha *Disputatio*) – O'rta asr Yevropasining sxolastik ta'lim tizimida, diniy yoki ilmiy haqiqatni aniqlash maqsadida olib boriladigan nizolarni rasmiy yo'llari. Ushbu jarayon rasmiy qoidalarga bo'ysungan bo'lib, ularning asosiysi yaxshi tasdiqlangan yozma nufuzli manbalarga havolalar va har ikki tomonning dalillarini puxta tahlil qilish edi. Nizolarning yana bir toifasi dinlararo nizolar bo'lib, ular ma'lum bir diniy ta'limotning ustunligini isbotlash uchun mo'ljallangan.

Shu nuqtayi nazardan yuqoridagi fikrlarni yakdillikka keltirgan holda munozaralarni bir nechta turga ajratish mumkin:

- ilmiy munozara;
- siyosiy munozara;
- falsafiy munozara;
- diniy munozara;

- adabiy munozara va boshqalar

Adabiyotshunos Idris Kadio'gli esa munozaralarni o'rganish davomida uni ikki turga ajratadi [Idris Kadioğlu 2011, 69]:

Birinchisi – ilmiy munozara va savol-javob kabi usullardan foydalangan holda *din, mantiq va falsafa bilan bog'liq* masalalar muhokama qilinadigan didaktik ilmiy matnlar. Ilmiy munozara, shuningdek, Cedel deb ataladi, bu ma'lum qoidalar bilan intellektual munozaradir.

Ikkinchisi – adabiy munozaraning turi. Ular turli xil mavjudotlar yoki tushunchalar ifodalaydigan fikrning ustunligini isbotlash uchun o'zlarining dalillarini keltiradigan she'riy va nasriy asarlardir. Demak, munozaralar faqatgina adabiyotshunoslik sohasiga tegishli bo'lmay, siyosiy hamda ijtimoiy sohalarda ham o'z o'rniga egadir. Bizning tadqiqot ishimiz adabiy munozaralar qismi bilan bog'liq bo'lgani bois, boshqa munozara turlariga to'xtalmadik.

Asosiy qism

Adabiy munozara haqida olimlarning turli qarashlari mavjud bo'lib, u janr sifatida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Y.E.Bertels ta'rifiga ko'ra [Бертельс 1960, 240] “munozara” termini qasidaning o'ziga xos turidir, nasib esa bahs bo'lib, ikki qarama-qarshi tarafning o'zaro munozarasidir. Tortishuv odatdagiday tantanali madh qasidaga bag'ishlangan shaxsni sharaflash bilan tugallanadi” – deydi. Bunga sabab, ayrim munozaralarda hamd qismining mavjudligidir. Shuning uchun ba'zi tadqiqotchilar Bertels fikrini ma'qullaydilar [Чайкин 1934, 133].

Adabiyotshunos E.Rustamov ham munozara janrini “O'z ustunligini ko'rsatmoqchi bo'lgan ikki qarama-qarshi tomonning kuchli bahsi, tortishuvi asosida qurilgan badiiy asar [Рустамов 1963, 138]” – deya qayd etadi.

Nasimxon Rahmon esa Y. E. Bertels fikri o'zini oqlamasligini, munozarada hamd shart emas, shuning uchun qasida bilan bu janr o'rtasidagi aloqadorlik to'g'risida gapirish ham ortiqcha ekanini bildiradi [Рахмонов 2007, 258].

Feruza Ahmedova yangi Eron adabiyotidagi munozaralarning kelib chiqishini o'rganib chiqqan maqolasida [Abdullayeva 2012, 253] “...Munozara ritorik protsedura sifatida, asosan, qasida, ya'ni she'riy panegirik shaklida ishlagan, keyinchalik g'azal yoki ruboiy ko'rinishida ham bo'lgan... Qasida va munozara dastlab bir-biriga birlashtirilgan ikki xil janrdir” tarzidagi mulohazalarini bildirib o'tadi.

M.Abduvohidova ham munozarani adabiyotimiz tarixida alohida janr sifatida taraqqiy etishi bilan birga, boshqa adabiy janrlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazgani haqidagi fikrlarini bir necha dalillar orqali tushuntirishga urinadi [Абдувоҳидова 1984, 72] Masalan, Yusuf Amiriyning "Ey sitamgar,..." – deya boshlanuvchi tuyuqi, "Chog'ir va Bang munozara"sida ruboiy, g'azal, muammo janrlaridan olingan misollarning asar to'qimasiga singib ketganini, A.Navoiy, Atoiyning ayrim g'azallari munozara ko'rinishida yozilgani shu bilan birga masal janri bilan munozara janrini uyg'un hamda ikki xil janr sifatidagi o'rinlarini Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari orqali tushuntiradi. Bu bilan birga olima munozarani ikki xil usulda o'rganishni tavsiya qiladi:

1. Alohida bir janr sifatida o'rganish;
2. Boshqa adabiy janrlar bilan dialektik taraqqiyotini, ular taraqqiyotiga o'tkazgan samarali ta'sirini o'rganish.

Demak, "O'zbek mumtoz adabiyotida" munozara janri mustaqil janr sifatida shakllanguniga qadar boshqa adabiy janrlar tarkibida rivojlanib, sayqallandi va badiiy qimmatga ega mustaqil janr sifatida o'z o'rnini topdi.

Munozara nafaqat o'zbek mumtoz adabiyotida balki, sharq va g'arb adabiyotida ham qadimdan o'z o'rniga ega bo'lgan adabiy janrlardan biri hisoblanadi. Agar yozuvni ixtiro qilgan shumerlardan boshlab qaysi eng qadimiy yozma adabiy janr ekanini so'rasak, bizning javoblarimizdan biri, shubhasiz, "munozara" bo'ladi [Abdullayeva 2012, 255]. Chunki, ushbu adabiy janr sharq va g'arb olimlari o'rtasida juda ko'p muhokamalarga sababchi bo'lgan adabiy janrlardan biridir.

Enrike Zimenez munozaralarning jahon adabiyotida naqadar nufuzli bo'lganiga to'xtalar ekan, munozarali she'rlar global miqyosda ko'rib chiqilganda kamdan-kam uchraydigan janrligini aytsa, Markus Ziemann esa Mesopotamiyada paydo bo'lgan bu tur bugungi kunda ham son-sanoqsiz madaniyatlarda yashagani va ular Mesopotamiya bilan bevosita yoki bilvosita o'zaro aloqadaligi, oromiy, suryoniy, injildan keyingi ibroniy, arab, fors, turk, o'rta asr lotin tillarida va arablar Ispaniyani bosib olganlaridan keyin Yevropada munozara uslubidagi she'rlar yozilgani to'g'risida o'z mulohazalarini bildiradi [Marcus Ziemann 2017, 545]. Shunday ekan, munozara dunyo adabiyotshunosligida juda keng ildiz yoygan adabiy janrlar qatoriga kiradi. Munozara janri jahon adabiyotida bir nechta nomlar bilan yuritiladi:

- Lotinda *altercatio, conflictus, disputatio*;

- Fransuz tilida *debat, tenson*;
- Inglizcha *controversy, debate, discourse, dialogue*;
- Nemis tilida *ransgstreit*;
- Italyan tilida *kontrasti* [Meserret Şaylan 1965, 3-4].

Birinchi adabiy munozaralar Mesopotamiya sivilizatsiyasi (yozuv paydo bo'lgan miloddan avvalgi 3600) da paydo bo'lgan [Şeyma Benli 2019, 21]. Ya'ni Mesopotamiya Shumer-akkad tilidagi adabiyotdan tarqalgan. Ushbu davrdagi munozaralarda tabiat, qishloq xo'jaligi narsa-buyumlarining o'zaro bir-biri bilan bahs-munozaraga kirishgani aks etgan.

Mesopotamiyadagi ilk munozarali she'rlar tabiat yoki kundalik qishloq xo'jaligi kasblaridan (ketmon-shudgor, yoz-qish, daraxt-qamish, chakalak-toshbaqa, g'oz-qarg'a, qo'y-bug'doy, baliq-qush, cho'pon-dehqon, mis-kumushdan) iborat bo'lgan.

Bu munozaralar ko'pincha dunyoning yaratilishi, birinchi yaratilish haqida eslatish bilan boshlanadigan oyatdagi rivoyatlardir. Misol uchun qish bilan yoz munozarasida Enlil, osmon xudosi, o'z mamlakatiga mo'l-ko'llik va farovonlik olib kelish uchun Enten (Qish) va Emesh (Yoz) ni yaratadi va ularga turli vazifalarni yuklaydi. Enten hayvonlarning ko'payishini va ulardan olingan mahsulotlarning mo'l-ko'lligini ta'minlaydi, Emesh esa dehqonchilik ishlariga qaraydi va yerda hosildorlikni oshiradi. Ikki aka-uka o'z vazifalarini bajarib bo'lgach, ular otalari Enlilning oldiga borishga qaror qilishadi va ularga minnatdorchilik bildirish uchun sovg'alar topshirishadi. Enten, qimmatbaho toshlar va minerallar, daraxtlar va baliqlar sovg'a sifatida tanlasa, Emesh esa turli xil uy va yovvoyi hayvonlar, o'simliklar va qushlarni tanlaydi. Ular eshik oldida bir-birlarining sovg'alarini ko'rib, hasad qilishadi va janjal boshlashadi. Enten, xudolarning dehqoni ekanliklarini da'vo qiladi. Emesh ham bu da'voga qarshi chiqadi. Ularning ikkalasi Enlil oldiga borib, o'zlarining xizmatlari haqida gapirib berishadi. Enten mamlakatga qancha mo'l-ko'llik olib kelgani va o'z vazifasini to'g'ri bajargani haqida gapiradi. Emeshning javobi hali tushunilmagan (matn to'liq yetib kelmagan) bo'lsa ham, Enlilning ular orasidagi hukmi aniq. Enlil, Entenni dehqonchilik ilohi ekanini tasdiqlaydi. U hamma narsani ishlab chiqarayotganini aytadi, chunki suvlar uning nazorati ostida. Emesh bu hukm qarshisida Enten oldida tiz cho'kib, uni duo qiladi. Ular sharob ichishadi va birga dam olishadi. Shunday qilib, Entenning Emeshdan, ya'ni qishning yozdan ustunligi e'lon qilinadi. Munozara Enlil (havo xudosi)ni maqtash bilan tugaydi [Samuel 1999, 169 – 172].

Ushbu munozaraning mavzusini tashkil etuvchi yana bir bahs Odam Atoning farzandlari Hobil va Qobil haqidagi hikoyani eng yaqin shumer ekvivalenti sifatida namoyon bo'ladi. Ular orasidagi farq shundaki, Enten va Emesh munozaralari yakuni yarashish bilan tugasa, Hobil va Qobil haqidagi voqea fojia bilan yakunlanadi.

Akkad adabiyotidagi qadimiy yozuvlarda ham hayvonlar va o'simliklar o'rtasidagi munozaralar tasvirlangan qismlari mavjud. Ular "Yovvoyi daraxt va palma", "Nisaba ma'budasi va bug'doy", "Ot va ho'kiz" kabi munozaralardir. Ularning orasida eng yaxshi saqlanib qolgani bu – "Yovvoyi daraxt va palma" o'rtasidagi munozaradir.

Munozarani Yovvoyi daraxt boshlaydi, uning Palmaga qaraganda yaxshiroq ko'rinishini aytadi. Palma javobi to'liq tushunilmagan, chunki matn yaxshi saqlanmagan, ammo u bunga qo'shilmasligi aniq. Nutqning qolgan qismida ikkala tomon ham o'zlarining ustunligini isbotlashga harakat qilishadi, ular dehqonlar, askarlar va podshohlar kabi turli guruhlardan bo'lgan odamlar va ma'budlarga marosim paytida qanchalik foydali ekanliklarini tushuntirishadi. Tamarisk¹ daraxti Palma daraxtiga Kish shahriga borishni taklif qiladi, chunki Kishda Palmaning muhim belgilarini ko'rishlari mumkin bo'ladi. U yerda palma o'zini qassobning qo'lida ko'radi. (Qassobning ishi qon bilan bog'liqligi uchun Palma daraxti shoxlarining orasida ham qon borligini badiiy qiyoslab, qassob pichoqlarining sopi (tutqichi) ham palma daraxtidan bo'lganiga ishora qiladi².) Tamarisk daraxti unga bu holatni ko'rsatib, uni kir va iflos ishlar uchun ishlatilishini va marosimlar paytida ishlatilishini aytadi. Bu safar Palma Yovvoyi daraxtni boshqa shaharga borishga taklif qiladi. U yerda ko'rgan duradgor uni hurmat qilganini va har kuni unga ibodat qilganini aytadi. Bu yerda matn kamchiliklari bois ba'zi bir qismlarni o'qib bo'lmaydi, ammo, Yovvoyi daraxt cho'ponlar orasida o'zini juda kuchli ekani haqida bahslashgani anglashiladi. Palma o'zini ustun deb aytadi, chunki u don ma'budasining merosxo'ridir. Yetim qiz, beva ayol, bechora uning shirin xurmolarini cheklovsiz yeydi. Shundan keyin matn yo'qoladi [Marianna 1991, 47 – 49].

Ushbu asarning yana bir ekvivalenti fors-tojik adabiyotida mil. avv. III – IV asrlarda Xuroson tili (Sharqiy pahlaviy yoki Parfiya deb atalgan) [Parfiya (Xuroson) adabiyoti] da yozilgan "Draxti Asurik" ("Xurmo daraxti va echki") [Амбарцумяна 01.03.2000] asaridir.

¹ Tamarisk (Yulg'un) – yovvoyi daraxt nomi.

² Ushbu fikrlar hikoyaning badiiy tomonini o'quvchiga yetkazish maqsadida olib kiritildi.

Unda xurmo echkiga qarata shunday deydi:

– “Men ko‘p narsalarga ko‘ra sendan ustunroqman.
– Xvanirax o‘lkasida menga teng keladigan daraxtning o‘zi yo‘q,

– Yangi mevalarim pishganida hatto podshoning o‘zi ham ulardan yeb ko‘radi.

– Men qayiqalar uchun taxta, yelkanlar uchun yog‘och beraman.

– Mendan supurgi yasashadi, u bilan uylarni supurishadi.

– Mendan havonchalar yasashadi, ularda bug‘doy va sholilarni tuyushadi.

– Mendan olovlar(ni puflash) uchun yelpig‘ichlar yasashadi.

– Men dehqonlar uchun poyabzal, yalang oyoqlar uchun (poyabzalning) tagcharmiman”

Echki javob berdi:

– “Garchi sizning foydasiz so‘zlaringizga javob berish men uchun sharmandalik bo‘lsa ham, gapirishim kerak”.

– ...Men katta mamlakatlarda tog‘dan tog‘ga sayohat qilishim va boshqa millat vakillarini ko‘rishim mumkin.

– Mening sutim pishloq va afro (Halva), odamlar sutimdan yogurt va sariyog‘ tayyorlaydilar.

– Hatto, mening bozordagi narxim sizning xurmolaringiz narxidan ko‘proq.

– Garchi mening so‘zlarim cho‘chqalar oldiga tashlangan marvaridga o‘xshasa-da, bilingki, men xushbo‘y tog‘larda o‘tlab, yangi o‘tlar yeyman va toza buloqlardan ichaman,

– Siz esa yerga kuch bilan urilgan mixga o‘xshaysiz.

Shunday qilib g‘olib va mag‘rur echki u yerdan ketdi va xurmo uyalib qoldi [Амбарцумян 01.03.2000].

Asar yakunida Echki g‘olib, Xurmo daraxti esa mag‘lub bo‘ladi. O‘rni-o‘rni bilan ularning yakunida ma‘rifiy-didaktik xulosalar beriladi.

Ko‘rinib turganidek, har ikkala asar ham o‘zaro o‘xshash usulda yozilgan. Ehtimol, qadimgi davrlarda eronliklar Mesopotamiyadan og‘zaki adabiyotning xususiyatlariga ega bo‘lgan ushbu adabiy janrni qabul qilishgan.

Arxeologik qazishmalar shuni ko‘rsatadiki, Bobil davrida akkad tilidan foydalanib yaratilgan munozarali she‘rlar hatto ellin madaniyati davrda (miloddan avvalgi 323–31) ko‘chirilgan. Akkadiyalik munozara she‘rlariga o‘xshash munozaralar o‘shapaytda oromiy va yunon adabiyotlarida ham paydo bo‘la boshladi. Masalan, Demokritning tan va ruh haqidagi munozarasi va Krantorning

hayot ne'matlari haqidagi allegorik munozaralari ham diqqatga sazovordir [Waites 1912, 20-21]. IV asrda u yana Suriya she'riyatida boyitilgan va mustahkamlangan holda paydo bo'ldi. Sebastyan P. Brok Qadimgi Suriya munozaralarining dastlabki namunalaridan 50 tasini batafsil tipologiyasini ishlab chiqdi [Anton Pritula 2014, 353]. Ular asosan, "Oylarning munozarasi", "Gunohkor ayol va shayton", "Yer va osmondagi ishlar", "O'lim va iblis", "Bug'doy va oltin" nomli munozaralardir. Taxminan, IX asrda u Sharqda arab tilida, G'arbda lotin tilida paydo bo'la boshladi [Şeyma Benli 2019, 25].

Yevropa she'riyatida munozara birinchi marta adabiy shakl sifatida VIII –IX asrlarda, Karoling Uyg'onish davrida paydo bo'lgan. IX asr oxirlaridan boshlab Yevropa ruhoniylari lotin tilida munozara she'rlarini yozishni boshladilar. Munozaraning birinchi namunasi *Conflictus Veris et Hiemis* (Bahor va qishning tortishuvi), u sakkizinchi asrning oxirida ingliz olimi Alcuin tomonidan yozilgan [Godman 1985, 18-49]. Ushbu she'r rasmiy ravishda O'rta asr she'riyatida munozaraning tug'ilishini anglatga, keyinchalik ushbu janrdagi she'rlarning yaratilishiga asos bo'lgan.

Sharq adabiyotida munozaraning ilk namunasi "Draxti asurik" [Reinink 1991, 1-10] bo'lsa, Arab adabiyotidagi jonsiz mavjudotlar o'rtasidagi bahsning birinchi namunasi IX asrda al-Jahiz (869-yil vafot etgan)ning "Mufaharatul-cevari val-gilmon" (Yosh o'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi munozara) [Marcus Ziemann 2017, 154], Abbos bin. A'nafning "Yurak va Ko'z", X asrdagi Al-Anavbariyning "Atirgul va Nargis" munozaralari diqqatga sazovordir [Melisa 2015, 370].

Islomdan keyingi fors she'riyatida Asadi Tusiy (XI asr) munozara she'riyatining asoschisi deb hisoblangan. Shoirning bizgacha 5 ta munozarasi yetib kelgan. Ular: "Munozarayi Shab-u Ro'z" ("Kun bilan tun munozarasi"), "Munozarayi Ram'-u qavs" ("O'q va yoy munozarasi"), "Munozarayi Osmon-u Zamin" ("Osmon bilan Yer munozarasi"), "Munozarayi Gabo-u Muslim" ("Kofir bilan Musulmon munozarasi"), "Munozarayi Arab-u Ajam" ("Arab va Ajam munozarasi") kabi asarlardir [Бертельс 1988, 207].

Bundan keyingi yillarda fors-tojik she'riyatida munozara janri bo'yicha ko'plab asarlar yaratilgan. Abul-Majid Muhammad b. Malik Masud Tabriziy (vaf. 744/1344)ning "Munazarayi Chashm-u Go'sh va Zabon dar-Mahzari Dil" (717/1318), "Munazaratus-Sem 'val-Basar" (717/1318), "Munazarayi Nazm-u Nasr", Eminuddin Abul-Qasim al-Haj Belening "Munazaratun-Nar vat-Turob", Kadi Nizomuddin Mahmud Mahmudiy Isfahoniyning "Munazarayi Sarv-u Ab", Sa'duddin b. Bahouddinning "Munazarayi Sharob-u Hosish",

“Bang-u Boda” (VII-VIII. Asr), Abu Sa’id Termiziyning “Munazarayi Gul-u Mul” (580/1185), Jaloluddin Abdulhamid Atiki (vaf. 741/1341) ning “Qissayi munazarayi Ohu” (721/1322) va mualliflari noma’lum bo’lgan “Munazarayi Shamshir-u Qalam”, “Munozarayi Zamin-u Osmon” [Abdülhüseyin Hâirî 2007, 356, 372, 373, 386], Yahyo Sebak Fattohiy (vafoti 855/1449) ning “Kitobi asrori va Humari”, (unda sharobxo’r va do’stining munozarasi haqida hikoya), Hayroniyi Hamadoniy (vafoti 903/1498) ning “Munazarayi Sham va Parvona”, “Munazarayi Murg’-u Subh”, “Munazarayi Osmon-u Zamin”, Tolib-i Jurjoniy (IX / XV. asr) ning “Munazarayi Kuy-u Chavgon”, Badriddin Hiloliy (936/1529) “Shoh va Gado” (masnaviysidagi “O’q va Kamon” munozarasi) nomli bir qancha asarlar munozara janri taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan.

Turkiy xalqlar ozasidagi munozaralar qadimgi xalq og’zaki ijodi namunalari bilan bog’liq bo’lib, bizgacha uning ilk yozma ko’rinishi XI asr (1030 – 1127)da Mahmud Qoshg’ariyning “Devon-u lug’otit-turk” asari orqali yetib kelgan. Unda yigirmadan ortiq “Yoz va Qish” o’rtasidagi bahs-munozarali to’rtliklar aks etgan. Abdurauf Fitrat “Devon”dan munozara janriga oid 23 ta to’rtlikni tiklagan. Ammo, ular asarning bir joyida emas, balki uning turli qismlarida har xil so’zlarning izohiga dalil sifatida keltirilgan. Ular *a a a b; d d d b* shaklida qofiyalanadi [To’xliyev 2019, 57].

Asardagi “Yoz va Qish” bahslarini boshqa to’rtliklardan ajratib, yaxlit holda tartiblansa, munozaraning ajoyib namunasi hosil bo’lishini ko’rish mumkin. Munozaraning kirish qismida Qish tugab Bahor boshlanishidan darak beruvchi alomatlar sezila boshlagani ta’rifi keltiriladi:

Qaqlar qamuğ külärdi,

Tağlar başı ilärdi,

Ažun tanıyılirdi,

Tutu čečäk yerkaşur [Махмуд Кошғарий 2017, 51].

Suvlar ko’payib, chuqurlar ko’lga aylandi. Tog’ boshlari xayoliy narsa kabi (arang ko’zga) ilashdi. Dunyoning nafasi ilidi, daraxtlar gulladi, yilqilar saf tortdi. (Qoq yerlar hammasi ko’lga aylandi, tog’ boshlari ilidi, dunyo issiq nafas oldi, turli-turli chechaklar bosh ko’tarilib tizilishdi).

Shundan so’ng, Qishning o’rnini Yoz egallayotganida Yoz bilan Qish to’qnash kelib, bir-birlariga yomon ko’z bilan qarashdi va bir-birlariga maqtanib, kamonining ipini tarang tortib o’qlar otisha boshladi:

Yay qış bilä qarıştı,

Erdām yasīn qurīštī,
Čerig tutup körüšti,
Oqtağali oturuşur [Песни трубадуров 1979, 82].

Yoz bilan Qish qarshilashdi va talashdi, har biri maqtanib, kamoning ipini tarang qilib tortishdi. Har biri bir-birining urushda o'ldirar darajada qizishdi, har biri hunar, san'at yoyini qurishdi (o'z hunarini ko'rsatishga kirishdi). Saf tortishib o'q otishda (bir-biridan) o'tkazishdi.

Shoir yuqoridagi to'rtlikni juda chiroyli tarzda aks ettirgan. She'rni o'qiganda turli xil ma'noni tushunish mumkin. Masalan, qish tugab issiq kunlar boshlanayotganda momaqaldiroq, chaqmoq chaqish, turli yog'ingarchiliklar bo'lishi hamda rang-barang kamalaklar osmonni bezashi ko'p kuzatiladi. Bu tabiat hodisasini shoir Yoz bilan Qishning o'rtasidagi shiddatli to'qnashuvda kamonlarini tarang qilib bir-birlariga o'q yog'dirishiga qiyoslaydi.

Munozaraning keyingi qismlarida Qish Yozga qarata qor va yomg'irlar qishda yog'ishini, ekin, donlar undan oziqlanib unishini, turli kasalliklar qish payti yo'qolishini, odamlar kuchga to'lib chiqishini aytadi va yozda chayonlar, pashsha, chivinlar, xalqqa ozor beruvchi har xil hasharotlar ko'payishini, ilonlar dumlarini o'rab (gajak qilib) xalqqa hamla qilishini aytib Yozdagi kamchiliklarni oshkor qiladi. Yoz esa Qishga javoban, odamlar uning faslida yayrashini, qaldirg'och va boshqa qushlar yoz faslida bo'lishini, bulbul yoqimli sayrash bilan kishilarni sevintirishini aytib qishga e'tiroz bildiradi. Munozarada Yoz g'olib bo'ladi.

Ushbu munozaraning yozuv paydo bo'lgan davr Shummer adabiyotida Enten (Qish) va Emesh (Yoz) haqidagi munozarasi bilan bo'g'liqligi ahamiyatlidir. "Devon-u lug'atit turk"dagi munozaralar Enten (Qish) va Emesh (Yoz) munozarasidan oziqlanib yaratilgani ehtimoliy haqiqatga yaqin. Lekin, Shummer adabiyotidagi munozarada Qish g'olib bo'lsa, "Devon-u lug'atit turk"dagi munozaralarda Yoz qishdan ustunligini ko'rsatadi.

Mumtoz adabiyotshunoslikning yetuk namoyondalaridan biri XI (taxminan 1020/21, Bolosog'un — ?) yashab ijod qilgan turkigo'y shoir, mutafakkir, davlat arbobi Yusuf Xos Hojibdir. Uning bizgacha "Qutadg'u bilig" asari yetib kelgan. Ushbu asar falsafiy-didaktik ruhdagi asarlar turkumiga kirib, nazmiy usulda bitilgan.

Yusuf Xos Hojib asarning nasriy muqaddimasida "Adlqa Kuntug'di elig at berib padshah orniga tutmish, davlatqa Aytoldi at berib, vazir orniga tutmish, 'aqlqa Ogdulmish at berib, vazirning og'li yerinda tutmish turur, qana'atqa Odg'urmish at berib qarindashi

teb aymish turur. Taqī anlar ara munazara savali-javabī kechār-teg sözlāmish turur [Hacib 2015, 2–3]”, deydi. Demak, asar tarkibidagi munozaralar asosiy ahamiyat kasb etadi. Munozara janri asosan, Kuntug’di-adolat, Oyto’ldi-davlat, O’gdulmish-aql, O’zg’urmish-qanoat kabi ramziy obrazlar atrofida aylanibgina qolmay, insonga yaxshilik va yomonlikni farqlashni o’rgatadi. Ular epik obrazlar xarakteri va dunyoqarashini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: Elig (davlatboshi) Kuntug’di bir kuni Oyto’ldini o’z yoniga chorlaydi. Uni o’tirishga undaydi. Oyto’ldi yonidan bir to’p (koptok) chiqaradida, o’shanga o’tiradi. Elig unga ko’plab savollar beradi, yigit javob qaytaradi. Ammo nima uchundir yuzini burishtirib oladi. Kuntug’di unga chehrasini ochib, kulib qarasa, buni ko’rgan, Oyto’ldi ko’zlarini yumib oladi. Elig hayratga tushadi. Hatto achchig’i keladi [Hojib 2014, 25]:

*Elig buštī artuq qarartti meniz,
Aytur ey evāklik kišikā esiz.
Yañildī bütüşdā meniñ bu özüm,
Nekü-teg ačayīn kišikā sözüm.
Nekü-ter ešitgil biliglig tilin,
Evā qilmish işlār ekünchi yīlīn,
Evā qilmish işlār nechā yig bolur,
Evā bīšmīš ashni yesā ig bolur.
Evāklik turur barča yañluq işi,
Amulluq turur barcha eđgü işi.
Evāklik bu erdi ceni bilmādin,
Yaqīn tuttum özkā tapunturmadīn [Ҳожиб 1971, 149–151].*

Mazmuni:

*Elig juda qahrga keldi, yuzidan g’azab yog’di,
Dedi: Ey, shoshqaloqlik kishi uchun yaramasdir.
Ishonch hosil qilishda men o’zim yanglishdim,
O’zimning bu so’zimni (xatomni) kishilarga qanday qilib
aytayin.*

*Bilimli so’zini eshitgin, u nima deydi,
Shoshilib qilingan ishlarning o’kinchi yillarga cho’ziladi,
Shoshilib qilingan ishlar nechoglik yaramas bo’ladi.
Shoshqaloqlik–barcha adashgan kishilar ish,
Ehtiyotkorlik–barcha ezgu kishilar ishi.
Mening shoshqaloqligimshu bo’ldiki, seni yaxshi bilmasdan,
Avval xizmat qildirib ko’rmasdan, o’zimga yaqin tutdim...*

Kuntug'dining bu mulohazalariga Oyto'ldi munosib javob qaytarib munozarani davom ettiradi.

Asarda shunga o'xshash pand-nasihat usulida yozilgan munozaraviy savol-javob o'rinlari juda ko'p. "Oyto'ldi vafoti oldidan o'gli bilan qilgan munozarasi", "O'zg'urmish va O'gdulmish" kabi munozaralar.

XI asrning 2-yarmi XIV asr boshlariga kelib, munozara janri birmuncha o'zgardi. Ular g'azal, tuyuq, ruboiy ko'rinishlarida namoyon bo'la boshladi. Ahmad Yassaviyning (vaf. 1166) "Devoni hikmat" asaridagi "Bihisht-do'zah tortishuvi" [Yassaviy 2011, 49], Sulaymon Boqirg'oniyning (vaf. 1186) "Nafs va Ruh [Ahmad Yassaviy 2011, 251]" asarlari shular jumlasidandir.

XV asrga kelib o'zbek mumtoz adabiyotida munozara ham mustaqil, ham tarkibiy qism holida o'z faoliyatini davom ettirib, janr sifatida shakllanib bordi. Bu davrda Yusuf Amiriyning "Chog'ir va bang", Yaqiniyning "O'q va Yoy", Ahmadiyning "Sozlar munozarasi", Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi "Qushlarning bahs-munozaralari" kabi munozaralar yaratildi.

XVIII asrga kelib salafllari ijodini davom ettirgan shoirlardan biri Xorazmlik Muhammad Niyoz Nishotiydir. Uning "Husn-u Dil" dostonidagi "Boz va Bulbul", "Daf va Gul", "Nay va Shamshod", "Kosayi Chin va Nargis", "Binafsha va Chang" hamda mustaqil janr hisoblangan "Munozarayi murg'on" (Qushlar munozarasi) asarlari munozara janri taraqqiyotida alohida o'ringa ega.

O'zbek adabiyotida Gulxaniyning (XIX asr) "Zarbulmasal"dagi "Tuya bilan bo'taloq", "Qushlarning quda-andachilikdagi bahs-munozaraviy tortishuvlari", Abdurauf Fitratning (1886-1938yy.) nasrda yozilgan "Munozara" ("Bir Buxorolikning bir Yevropalik bilan Hindistondagi yangi maktablar to'g'risida qilgan munozaralari" haqida) va "Sayyohi hindi" ("Hind sayyohining qissasi" munozarasi. Asardagi sayohatchi ("Men") - bu Fitratning o'zi), Abdulla Avloniyning (1878 - 1934-yy.) "Oila munozarasi", Hamza Hakimzoda Niyoziyning (1889 - 1929-yy.) "Mevalar mojarosi", Sulton Jo'raning (1910-1943) "Tinish belgilar majlisi" kabi munozara janriga oid asarlar yetishib chiqdi.

Yuqorida Mo'tabar Abduvohidova so'zlarini inobatga olgan holda o'zbek mumtoz adabiyotida munozara janrini ikki xil uslubda o'rganish maqsadga muvofiq.

1. Mustaqil janr sifatida munozaralar:

- Yusuf Amiriyning "Chog'ir va bang";
- Yaqiniyning "O'q va Yoy";

- Ahmadiyning "Sozlar munozarasi";
- Muhammad Niyoz Nishotiyning "Munozarayi murg'on" (Qushlar munozarasi);
- Abdurauf Fitratning "Munozara" va "Sayyohi hindi" nasriy usulda yozilgan munozaralari;
- Abdulla Avloniyning "Oila munozarasi"
- Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Mevalar mojarosi";
- Sulton Jo'raning "Tinish belgilar majlisi"

2. Boshqa adabiy janrlar tarkibiy qismi sifatidagi munozaralar:

- Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'otit-turk" asaridagi "Yoz va Qish" munozarasi;
- Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi "Kuntug'di va Oyto'ldi", "O'zg'urmish va O'gdulmish" v.b.;
- Yassaviyning "Devoni hikmat" asaridagi "Bihisht-do'zah tortishuvi";
- Sulaymon Boqirg'oniyning "Hikmatlar"dagi "Nafs va Ruh" munozarasi;
- A.Navoiyning "Lison-ut tayr" dostonidagi "Qushlarning bahs-munozaralari";
- Muhammad Niyoz Nishotiyning "Husn-u Dil" dostonidagi "Boz va Bulbul", "Daf va Gul", "Nay va Shamshod", "Kosayi Chin va Nargis", "Binafsha va Chang".

Adabiy aloqalar xalqlarning madaniy aloqalari kabi qadimiydir. Ularning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy shart-sharoitlari, urf-odatlar, adabiy aloqalari etnik tarkib jihatdan umumiy bo'lgan. Ushbu xalqlar adabiyotini o'rganar ekanmiz ular orasida munozara janrida barakali ish olib borganliklarini guvohi bo'lamiz. Chunki "Devon-u lug'atit turk", "Qutadg'u bilig", "Devoni hikmat" dagi munozaralar turkiy xalqlarning barchasi uchun mushtarak badiiy asarlardir.

Ozarbayjon adabiyotida munozara janri bo'yicha ko'p shoirlarning ijodini ko'rish mumkin. Ulardan Fuzuliyning (XVI asr) "Rind va Zohid", "Bang va Boda", "Sahhat va Maraz" (Sog'lik va kasallik), Qumrining (XIX asr) "Kanz-ul Masaib" asaridagi "Aql va Ishq" munozarasi, Shukhiyning (XIX asr) "Munozarayi Aql-u Ishq" kabi shoirlarning munozaralari alohida ajralib turadi.

Turkiya adabiyotida munozara janri muhim ahamiyatga ega. Sababi munozara janrining har bir elementlariga e'tibor qaratishgan va har bir davrda o'ziga xos bir-biridan chiroyli, mazmundor asar dunyoga kelgan. Turk shoirlari har tomonlama ushbu janr

taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar: Ahmediyning (XIV asr) "Qasida fi Bahsi's-Sayf va'l-Qalam", Yanipazarli Valining (XVI asr) "Daf-Gul", "Ney-Nahl", "Kosayi Chin-Nargis", "Binafcha va Chang", Firdavsiy Rumiyning (XV asr) "Mubahasayi Shakkar-u Milh", Gazi Girayning (XVII) "Qahva ile Boda" Mehmed Shabonzoda Afandining (XVIII) "Munozarayi Tig'-u Qalam", Vahyining (XIX asr) "Munozarayi Nafs va Ruh", Mehmed Baxeddin (XX asr) "Munazarayi Seyf ba-Qalam" va boshqa asarlar munozara janrining mukammal asarlaridan biridir.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, munozara janrini yaratilishidan tortib hozirgi kungacha mashaqqatli yo'lni bosib o'tishi, hamda adabiyotshunoslikdagi o'rnini belgilashda dunyo xalqlari olimlarining ham hissasi katta hisoblanadi. Ular o'z ilmiy tadqiqotlarida munozara janri bo'yicha bir necha imiy izlanishlar olib bordilar. Masalan, Moritz Steinschneider [Moritz 1908, 87], Y.E.Bertels [Бертельс 1960, 240], K.I.Chaykin [Чайкин 1934, 133], Meserret Shaylan [Meserret 1964, 117], A.Г.Наймана, М.Л.Гаспаров [Песни трубадуров 1979, 265], G.J.Reinink, H.L.J.Vanstiphout [Reinink 1991, 244], L.Lewisohn, Ch.Shackle ['Attar And The Persian Sufi Tradition. 2006, 378], Allen, P.James [James 2011, 44], F.Abdullayeva [Abdullayeva 2012, 291], A.Pritula [Anton Pritula 2014, 351-361], M.L.Marti [Mengozi 2019, 127-145], Enrique Jiménez [Enrique Jiménez 2017, 525], Marcus Ziemann [Marcus 2017, 545], A.Mengozi [Mengozi 2019, 319-344], Mursel O'zturk [Öztürk 1982, 29], Abik, Ayshehan [Abik Ayşehan Deniz 2005, 204], Abdulhusayn Hayiri [Abdülhüseyin Hâirî 2007, 356-386], Sheyma Benli [Şeyma Benli 2019, 411], Achil Berat [Açıl Berat 2014, 145-167], Idris Kadiog'li [İdris Kadioğlu 2011, 169], Ahmet Ichli [Ahmet içli 2014, 60] kabi olimlardir.

Xulosa

Munozara dunyo xalqlari adabiyotida qadimiy ildizlarga ega bo'lgan adabiy janrlar sirasiga kiradi, uning avji taraqqiyoti mumtoz adabiyot rivoji bilan bevosita bog'liq. Xalqning diniy e'tiqodlari, tabiat va inson haqidagi qarashlari, manzarning turfa yaxshi-yomon xislatlarini namoyon etish zaruriyati munozara janrining paydo bo'lishiga olib kelgan. Qolaversa, munozara janri adabiy aloqalar, adabiy ta'sirlar natijasida qaror topib, mukammallashib borgani ham bor haqiqat. Munozaraning yana bir o'ziga xos tomoni shaxsning xarakterini turli jonli va jonsiz narsalar orqali ochib berishidadir.

Munozaralar turli masalalarga daxldor bo'lishidan qat'i nazar, uning markazida o'zaro qarama-qarshi yaxshi va yomon

degan tushuncha bosh motiv vazifasini bajaradi. Mesopatamiya sivilizatsiyasi Shumer-akkad yozma yodgorliklaridagi osmon xudosining o'g'illari "Enlil va Enten", "Yovvoyi daraxt va palma", Misr diniy yozuvlaridagi "Tan va ruh" yoki sharq xalqlari ijodi namunalariidagi "Draxri Asurik", "Yoz bilan Qish" kabi baxs asosida yaratilgan og'zaki va yozma adabiy yodgorliklar shular jumasiidandir.

Munozara janri, dastlab, arab adabiyotida paydo bo'lgan esada, Sharqning boshqa xalqlari adabiyotiga tez singib ketdi. Zero, buning alohida sabablari bo'lgan. Insoniyatning tarixiy shakllanish va yashash tarzlarida bir-biriga yaqinlik, e'tiqodlaridagi uyg'unlik munozaralarning mazmuniy yo'nalishlarda bir-biriga o'xshab qolishiga olib kelgan. Hatto, g'arb xalqlari adabiyotidagi tensona, debat, disputatione, ransgstreit, kontrasti kabi munozaraning turli nomlaridan ham shunday yaqinlik ko'rinib turadi.

O'zbek adabiyotida munozara janrining paydo bo'lishi va takomil topishida xalq og'zaki ijodidan tashqari, diniy e'tiqodlar va arab, fors-tojik yozma adabiyotining ta'siri ko'p ekanligini inkor etib bo'lmaydi. O'zbek mumtoz tarixi taraqqiyotida XIV – XVIII asrlar alohida ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu davrda Yusuf Amiriy, Yaqiniy, Ahmadiy, Nishotiy kabi ijodkorlarning munozara janriga qo'shgan hissalari alohida ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar

- Abdülhüseyin, Hâirî. 2007. "Sefine-i Tebriz: İki Kapak Arasındaki Kütüphane." *Çev. Ali Ertuğrul, Tasavvuf İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi*. Istanbul: 19:351-400. <http://docplayer.biz.tr/46425827-Sefine-i-tebriz-iki-kapak-arasindaki-kutuphane.html>
- Abdullayeva, Feruza. 2012. «The Origins of the Munazara Genre». *Metaphor and Imagery in Persian Poetry*, Seyed-Gohrab, Asghar Ali 249-275. Leiden-Boston: Brill.
- Абдувохидова, Мўтабар. 1984. *Ўзбек адабиётида мунозара*. Тошкент.
- Ahmet, İçli. 2014. "Fasîh'in Rûz u Şeb Münâzarası." *EKEV Akademi Dergisi* 60: 513-537.
- Амбарцумяна, Артур. "Асурийское, Ассирийское, Вавилонское дерево" или "Финиковая пальма" [Драхт-и-Асурик]. 2000. Перевод с пехлеви Амбарцумяна, А.А. Текст переведен с пехлеви в 1994. Впервые опубликован в Интернете: 01.03.2000. <https://www.zoroastrian.ru/en/node/806>
- Anton, Pritula. 2014. " 'O ringdove! Where are you heading for?' a syriac dialogue poem of the late 13th century". *Syrische studien*. Dietmar W., Winkler (Hg.), 351-360. Peterburg: Beiträge zum 8. Deutschen Syrologie-Symposium in Salzburg.
- Attar And The Persian Sufi Tradition. 2006. *The Art of Spiritual Flight*,

- Edited by Lewisohn, Leonard And Shackle, Christopher. New York In Association With The Institute Of Ismaili Studies London: I.B.Tauris Publishers London.
- Azkai, Parviz. 2007. . صفحه اصلی منشأ مناظره‌های ادبی (ایران باستان و میانرودان) "پژوهش های ادب عرفانی (گوهر گویا) (*The Origin of Literary Disputes (Ancient Iran and Mesopotamia)*), Researches In Mystical Literature Gawhar-I Guya.) شماره 1 - شماره پیاپی 1 بهار و تابستان 6831 صفحه 01-1.https://jpll.ui.ac.ir/article_16245.html. https://fa.wikipedia.org/wiki/%D8%AF%D8%B1%D8%AE%D8%AA_%D8%A2%D8%B3%D9%88%D8%B1%DB%8C
- Аширова, Э. 1988. *Исторические корни жанра басен в Туркменской литературе*. Вопросы советской тюркологии. Материалы IV всесоюзной тюркологической конференции. Ашхабад. Ылым.
- Aça, Mehmet Gökalep Halukva Kocakaplan, İsa. 2009. *Başlangıçtan Günümüze Türk Edebiyatında Tür ve Şekil Bilgisi*. Istanbul: 30.10.2009. <https://www.kitapyurdu.com/kitap/tur-ve-sekil-bilgisi-amp-baslangictan-gunumuze-turk-edebiyatinda/139141.html>
- Açıl, Berat. 2014. "Bir Tür mü Tarz mı? Klasik Türk Edebiyatında Alegori". *Dîvân Disiplinlerarası Çalışmalar Dergisi*. Istanbul: 19:145-167
- Benli, Şeyma. 2019. *Klasik türk edebiyatında münazara*. Doktora tezi. Istanbul.
- Бертельс, Е.Э. 1960. *История персидско-таджикской литературы*. Москва.
- Бертельс, Е.Э. 1988. *История литературы и культуры Ирана*. Москва.
- Брокгауза, Ф.А., Ефрона, И.А. 1890-1907. *Дебаты* // Энциклопедический словарь. СПб. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B5%D0%B1%D0%B0%D1%82%D1%8B>
- Брокгауза Ф.А., Ефрона И.А. 1890-1907. *Тенсона* // Энциклопедический словарь. в 86 т. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B5%D0%BD%D1%81%D0%BE%D0%BD%D0%B0>
- Deniz, Ayşehan Abik. 2005. "Meyveler Münazarası". *Doğu Türkçesi*. Ankara, Seçkin Yayıncılık: 3/3:143-146.
- Диспут - Вигипедия. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B8%D1%81%D0%BF%D1%83%D1%82>
- Godman, Peter. 1985. tr., *Poetry of the Carolingian Renaissance*. Norman: University of Oklahoma Press. https://en.wikipedia.org/wiki/Medieval_debate_poetry.
- Hacib, Yusuf Has. 2015. *Kutadg' u bilig*. B.Fargana nusxasi. Taşkent Davlat Şarqşhunaslik İnstitutı Huzuridegi Abu Rayhan Beruniy namli Şarq kolyazmaleri merkezi 1809. nr. Ankara.
- Hacib, Yusuf Has. 2014. "Qutadg' u bilig." *Saodatga boshlovchi bilim*. Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi: To'xliyev Boqijon. Toshkent
- Ҳожиб, Ҳос Юсуф. 1971. "Қутадғу билиг." *Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф* Каримов Қаюм. муҳаррирлигида. Тошкент: Фан.
- Jalolova, M. 1992. *O'zbek adabiyotida noma janri*. Toshkent.
- James, P. 2011. *The Debate between a Man and His Soul: A Masterpiece of Ancient Egyptian Literature*. Leiden Boston.
- Jiménez, Enrique. 2017. *The Babylonian Disputation Poems. With Editions*

- of the Series of the Poplar, Palm and Vine, the Series of the Spider, and the Story of the Poor, Forlorn Wren.* (Culture and History of the Ancient Near East 87.) XVIII. Leiden: Brill, ISBN 978 90 04 33625 4. doi:10.1017/S0041977X18000344
- Kadioğlu, İdris. 2011. "Kılıç Kalem Münazarası". *CBÜ Sosyal Bilimler Dergisi* 9 (2): 161-180.
- Кошғарий, Махмуд 2017. *Девону лугат-ит-турк. (Туркий сўзлар девони) / Нашрга тайёрловчи: Содиқов Қ. – Тошкент.*
- Kramer, Noah, Samuel. 1999. *Sümer Mitolojisi: İÖ Üçüncü Bin Yıldaki Tinsel ve Edebi Gelişim Üstüne Bir Çalışma.* İstanbul: Kabalcı Yayınevi
- Marti, Melisa Laura. 2015. *Formas De Debate En La Poesía Castellana En Pareados Del Siglo XIII: Elena Y María Y Razón De Amor Con Los Denuestos Del Agua Y El Vino.* Incipit. XXXV Entregado.
- Mattock, John N. 2012. *The Arabic Tradition: Origin and Developments. Dispute Poems and Dialogues in the Ancient and Mediaeval Near East.* Brill.
- Mengozzi, Alessandro. 2019. "The Dispute Of The Months In Sureth And Its East-Syriac Vorlage." *Journal of Syriac Studies*, Mardutho, Beth: The Syriac Institute and Gorgias Press. 22.2:319-344.
- O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.* 2000. 14-jildlik. 1-jild. Toshkent. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Munozara>
- Öztürk, Mursel. *İran Edebiyatında Münazara.* 1982. Doçentlik Tezi, AÜ DTCF, Ankara. *Münâzara (Fars Edebiyatı).* 2006. TDVİA, C. XXXI, İstanbul.
- Parfiya (Xuroson) adabiyoti.* <https://www.tajik-gateway.org/wp/culture/literature/pamyatniki-drevneiranskoj-pismennos/parfyanskaya-horasanskaya-literatura/>.
- Песни трубадуров. Пер. со старопрованс., П28 сост., предисл. и примеч.* 1979. Наймана А.Г. и Гаспаров Москва-Ленинград: Главная редакция восточной литературы изд-ва «Наука».
- Поспелов Г. Н. 1978. *Типология литературных родов и жанров // Вестник МГУ. Сер. филология.*
- Раҳмонов Насимхон. 2007. *Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари.* II жилд (XIV — XV асрнинг бошлари). Тошкент.
- Reinink, G.J And Vanstiphout, H.L.J. 1991. *Dispute Poems and Dialogues in the Ancient and Mediaeval Near East.* Orientalia Lovaiensia Analecta: Peeters Press I Louvaion.
- Рустамов Э. 1963. *Узбекская поэзия первой половины XV века.* Раздел 3. Москва.
- Salayev, F., Qurboniyozov, G. 2010. *Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi.* Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Şaylan, Meserret. 1965. *Türk Edebiyatında Münazara.* İstanbul. <http://nek.istanbul.edu.tr:4444/ekos/TEZ/00304.pdf>
- Steinschneider, Moritz. 1908. *Rangstreit-Literatur: Ein Beitrag zur vergleichenden Literatur und Kulturgeschichte.* Norvegiya.
- To'xliyev, Boqijon. 2019. "Draxti asurik"dan "Mevalar mojosigacha". *Hamza va XX asr o'zbek adabiyoti.* Farg'ona, 53-60.
- Vogelzang, Marianna E. 1991. "Some Questions about the Akkadian Disputes." *Dispute Poems and Dialogues in the Ancient and Mediaeval*

- Near East*. Reinink G.J., Vanstiphout H.L.J. 49-54. Orientalia Lovaiensia Analecta: Peeters Press I Louvaion.
- Wagner, E. 1993. "Munazara", *The Encyclopaedia of Islam*. V. 7, Leiden, E. J. Brill. https://referenceworks.brillonline.com/entries/encyclopaedia-of-islam-2/munazara-SIM_5507?lang=fr.
- Waites, M. C. 1912. "Some Features of the Allegorical Debate in Greek Literature." *Harvard Studies in Classical Philology* 23:1-46. <https://doi.org/10.2307/310446>
- Yassaviy, Ahmad va Boqir'oni, Sulaymon. 2011. *Hikmatlar kulliyoti*. Toshkent.
- Ziemann, Marcus. 2017. "'Ilu. Revista de Ciencias de las Religiones." *The Babylonian Disputation Poems. With Editions of the Series of the Poplar, Palm and Vine, the Series of the Spider, and the Story of the Poor, Forlorn Wren*, Jiménez, Enrique. Leiden-Boston: Brill, 22: 519-571. <http://dx.doi.org/10.5209/ILUR.57434>
- Чайкин, К. И. 1934. *Асади старший и Асади младший*. — сб.: "Фердовси", Ленинград.
721. دانشنامه بزرگ اسلامی. آداب مناظره. 2010. جلد: 1 شماره مقاله: 721. <http://lib.eshia.ir/23022/1/127/>

Olmoskhon Abdurahmonova

(Kokand, Uzbekistan)
os0893@mail.ru

History and Development of the Discussion Genre

Abstract

The article is devoted to the level of development and perfection of the genre of debate in fiction. It also answers questions about the meaning of the word debate and what its function is, and its place in literature. Depending on the meanings of the term debate in annotated and encyclopedic dictionaries, they are divided into types. The opinions expressed by scholars in the genre of debate are summarized and come to a unified conclusion.

The article covers the history of debate, the creation of the debate. The literature of the peoples of the West and the East has been studied comparatively, and the considerations have been made on a scientific basis. That is, the debate is based on scientific evidence that the Mesopotamian civilization, from which the first record appeared, has come a long way

from the Sumerian-Akkadian period to the present day.

It is also said that although the debate originated in Arabic literature, it reached great heights in Persian-Tajik literature. The first example of this is the dispute between the ancient written monument "Drakhti Asurik" (Goat and Palm tree) and the disputes of later periods.

The genre of debate in Uzbek classical literature is mainly divided into two types: Other literary genres are studied as an integral part and as an independent genre. This has had a significant impact on the development of the debate genre.

Literary ties are as ancient as the cultural ties of nations. Their socio-political, historical and cultural conditions, customs, and literary connections were common in terms of ethnic composition. When we study the literature of these peoples, we see that they have done a great job in the genre of debate. In particular, the work on the genre of debate in the literature of Azerbaijan and the Turkic peoples is of particular importance.

Key words: *Debate, literary source, manuscript, literary genre, poetry, genre, comparative analysis, artistic skills.*

About the author: *Olmoskhon Abdurahmonova* – doctoral student (PhD), Kokand State Pedagogical Institute.

Recommended citation: Abdurahmonova, Olmoskhon. 2020. "History and development of the Discussion genre". *Golden Scripts* 4: 39—61.

References

- Abdülhüseyin, Hâirî. 2007. "Sefine-i Tebriz: İki Kapak Arasındaki Kütüphane." *Çev. Ali Ertuğrul, Tasavvuf İlmî ve Akademik Araştırma Dergisi*. Istanbul: 19:351-400. <http://docplayer.biz.tr/46425827-Sefine-i-tebriz-iki-kapak-arasindaki-kutuphane.html>
- Abdullayeva, Feruza. 2012. «The Origins of the Munazara Genre". *Metaphor and Imagery in Persian Poetry*, Seyed-Gohrab, Asghar Ali 249-275. Leiden-Boston: Brill.
- Abduvohidova, Mo'tabar. 1984. *O'zbek adabiyotida munozara*. Toshkent.
- Ahmet, İçli. 2014. "Fasîh'in Rûz u Şeb Münâzarası." *EKEV Akademi Dergisi* 60: 513-537.
- Ambarsumyana, Artur. "Asuriyskoe, Assiriyskoe, Vavilonskoe derevo" ili "Finikovaya palma" [Draxt-i-Asurik]. 2000. Perevod s pexlevi Ambarsumyana, A.A. Tekst pereveden s pexlevi v 1994. Vpervye opublikovan v Internet: 01.03.2000. <https://www.zoroastrian.ru/en/node/806>
- Anton, Pritula. 2014. " 'O ringdove! Where are you heading for?' a syriac dialogue poem of the late 13th century". *Syrische studien*. Dietmar W., Winkler (Hg.), 351-360. Peterburg: Beiträge zum 8. Deutschen Syrologie-Symposium in Salzburg.
- Attar And The Persian Sufi Tradition. 2006. *The Art of Spiritual Flight*, Edited by Lewisohn, Leonard And Shackle, Christopher. New York In

- Association With The Institute Of Ismaili Studies London: I.B.Tauris Publishers London.
- Azkai, Parviz. 2007. . صفحه اصلی منشأ مناظره‌های ادبی (ایران باستان و میانرودان) (*The Origin of Literary Disputes (Ancient Iran and Mesopotamia)*, Researches In Mystical Literature Gawhar-I Guya.) صفحه 6831 تابستان 1 بهار و تابستان 1 شماره پیاپی 1 - شماره 1 دوره 1، شماره 1. https://jpll.ui.ac.ir/article_16245.html. https://fa.wikipedia.org/wiki/%D8%AF%D8%B1%D8%AE%D8%AA_%D8%A2%D8%B3%D9%88%D8%B1%DB%8C
- Ashirova, E. 1988. *Istoricheskie korni janra basen v Turkmenskoy literature*. Vonrosi sovetsoy tyurkologii. Materiali IV vsesoyuznoy tyurkologicheskoy konferensii. Ashxabad. Ilim.
- Aça, Mehmet Gökalp Haluk va Kocakaplan, İsa. 2009. *Başlangıçtan Günümüze Türk Edebiyatında Tür ve Şekil Bilgisi*. Istanbul: 30.10.2009. <https://www.kitapyurdu.com/kitap/tur-ve-sekil-bilgisi-amp-baslangictan-gunumuze-turk-edebiyatinda/139141.html>
- Açıl, Berat. 2014. "Bir Tür mü Tarz mı? Klasik Türk Edebiyatında Alegori". *Dîvân Disiplinlerarası Çalışmalar Dergisi*. Istanbul: 19:145-167
- Benli, Şeyma. 2019. *Klasik türk edebiyatında münazara*. Doktora tezi. Istanbul.
- Bertels, Y.E. 1960. *Istoriya persidsko-tadjikskoy literaturi*. Moskva.
- Bertels, Y.E. 1988. *Istoriya literaturi i kultuıı İrana*. Moskva.
- Brokgauza, F.A., Yefrona, I.A. 1890-1907. *Debatı* // Ensiklopedicheskiy slovar. SPb. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B5%D0%B1%D0%B0%D1%82%D1%8B>
- Brokgauza F.A., Yefrona I.A. 1890-1907. *Tensona* // Ensiklopedicheskiy slovar. v 86 t. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B5%D0%BD%D1%81%D0%BE%D0%BD%D0%B0>
- Deniz, Ayşehan Abik. 2005. "Meyveler Münazarası". *Doğu Türkçesi*. Ankara, Seçkin Yayıncılık: 3/3:143-146.
- Disput*-Vigipediya. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B8%D1%81%D0%BF%D1%83%D1%82>
- Godman, Peter. 1985. tr., *Poetry of the Carolingian Renaissance*. Norman: University of Oklahoma Press. https://en.wikipedia.org/wiki/Medieval_debate_poetry.
- Hacib, Yusuf Has. 2015. *Kutadg'ı bilig*. B.Fargana nusxasi. Taşkent Davlat Şarqshünaslik İnstitutı Huzuridegi Abu Rayhan Beruniy namli Şarq kolyazmaları merkezi 1809. nr. Ankara.
- Hacib, Yusuf Has. 2014. "Qutadg'ı bilig." *Saodatga boshlovchi bilim*. Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi: To'xliyev Boqijon. Toshkent
- Hojib, Yusuf Xos. 1971. "Qutadg'ı bilig". *Transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif*. Karimov Qayum. muharrirligida. Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. 965.
- Jalolova, M. 1992. *O'zbek adabiyotida noma janri*. Toshkent.
- James, P. 2011. *The Debate between a Man and His Soul: A Masterpiece of Ancient Egyptian Literature*. Leiden Boston.
- Jiménez, Enrique. 2017. *The Babylonian Disputation Poems. With Editions of the Series of the Poplar, Palm and Vine, the Series of the Spider,*

- and the Story of the Poor, Forlorn Wren.* (Culture and History of the Ancient Near East 87.) XVIII. Leiden: Brill, ISBN 978 90 04 33625 4. doi:10.1017/S0041977X18000344
- Kadioğlu, İdris. 2011. "Kılıç Kalem Münazarası". *CBÜ Sosyal Bilimler Dergisi* 9 (2): 161-180.
- Koshg'ariy, Mahmud 2017. *Devonu lug'at-it-turk. (Turkiy so'zlar devoni) / Nashrga tayyorlovchi: Sodiqov Q. – Toshkent.*
- Kramer, Noah, Samuel. 1999. *Sümer Mitolojisi: İÖ Üçüncü Bin Yıldaki Tinsel ve Edebi Gelişim Üstüne Bir Çalışma.* İstanbul: Kabalcı Yayınevi
- Marti, Melisa Laura. 2015. *Formas De Debate En La Poesía Castellana En Pareados Del Siglo XIII: Elena Y María Y Razón De Amor Con Los Denuestos Del Agua Y El Vino.* Incipit. XXXV Entregado.
- Mattock, John N. 2012. *The Arabic Tradition: Origin and Developments.* Dispute Poems and Dialogues in the Ancient and Mediaeval Near East. Brill.
- Mengozzi, Alessandro. 2019. "The Dispute Of The Months In Sureth And Its East-Syriac Vorlage." *Journal of Syriac Studies*, Mardutho, Beth: The Syriac Institute and Gorgias Press. 22.2:319-344.
- O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.* 2000. 14-jildlik. 1-jild. Toshkent. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Munozara>
- Öztürk, Mursel. *İran Edebiyatında Münazara.* 1982. Doçentlik Tezi, AÜ DTCF, Ankara. *Münâzara (Fars Edebiyatı).* 2006. TDVİA, C. XXXI, İstanbul.
- Parfiya (Xuroson) adabiyoti.* <https://www.tajik-gateway.org/wp/culture/literature/pamyatniki-drevneiranskoj-pismennos/parfyanskaya-horasanskaya-literatura/>.
- Pesni trubadurov. Per. so staroprofans., P28 sost., predisl. i primech.* 1979. Naymana A.G. i Gasparov M.L., Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury izd-va <<Nauka>>.
- Pospelov G. N. 1978. *Tipologiya literaturnix rodov i janrov // Vestnik MGU.* Ser. filologiya.
- Rahmonov Nasimxon. 2007. *O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari.* II jild (XIV — XV asrning boshlari). Toshkent.
- Reinink, G.J And Vanstiphout, H.L.J. 1991. *Dispute Poems and Dialogues in the Ancient and Mediaeval Near East.* Orientalia Lovaiensia Analecta: Peeters Press I Louvaion.
- Rustamov, E. 1963. *Uzbekskaya poeziya pervoy polovini XV veka.* Razdel 3. Moskva.
- Salayev, F., Qurboniyozov, G. 2010. *Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi.* Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Şaylan, Meserret. 1965. *Türk Edebiyatında Münazara.* İstanbul. <http://nek.istanbul.edu.tr:4444/ekos/TEZ/00304.pdf>
- Steinschneider, Moritz. 1908. *Rangstreit-Literatur: Ein Beitrag zur vergleichenden Literatur und Kulturgeschichte.* Norvegiya.
- To'xliyev, Boqijon. 2019. "Draxti asurik"dan "Mevalar mo'jorosi"ga. *Hamza va XX asr o'zbek adabiyoti.* Farg'ona, 53-60.
- Vogelzang, Marianna E. 1991. "Some Questions about the Akkadian Disputes." *Dispute Poems and Dialogues in the Ancient and Mediaeval Near East.* Reinink G.J., Vanstiphout H.L.J. 49-54. Orientalia Lovaiensia

- Analecta: Peeters Press I Louvaion.
- Wagner, E. 1993. "Munazara", *The Encyclopaedia of Islam*. V. 7, Leiden, E. J. Brill. https://referenceworks.brillonline.com/entries/encyclopaedia-of-islam-2/munazara-SIM_5507?lang=fr.
- Waites, M. C. 1912. "Some Features of the Allegorical Debate in Greek Literature." *Harvard Studies in Classical Philology* 23:1-46. <https://doi.org/10.2307/310446>
- Yassaviy, Ahmad va Boqirg'oni, Sulaymon. 2011. *Hikmatlar kulliyoti*. Toshkent.
- Ziemann, Marcus. 2017. "'Ilu. Revista de Ciencias de las Religiones." *The Babylonian Disputation Poems. With Editions of the Series of the Poplar, Palm and Vine, the Series of the Spider, and the Story of the Poor, Forlorn Wren*, Jiménez, Enrique. Leiden-Boston: Brill, 22: 519-571. <http://dx.doi.org/10.5209/ILUR.57434>
- Chaykin, K. I. 1934. *Asadi starshiy i Asadi mladshiy*. Leningrad: Ferdovski.
721. دانشنامه بزرگ اسلامی. آداب مناظره. 2010. جلد: 1 شماره مقاله: 721. <http://lib.eshia.ir/23022/1/127/>

Qosimjon Sodiqov

(Toshkent, O'zbekiston)

kasimjonsadikov@gmail.com

Turkiy yozma yodgorliklar tilida ot-kesim va uning ifodalanishi

Abstrakt

Kesimning an'anaviy grammatikada ot-kesim deb yuritilayotgan turi nisbiydir. Chunki ot-kesimli gaplarning kesimi ot, sifat, son, olmosh singari so'zlar bilangina shakllanmaydi. Ularda biz kesim deb sanayotgan ism guruhidagi so'zlardan keyin mantiqan ta'kidni bildiruvchi turur~durur (hozirgi o'zbek tilida -dir) bog'lama si turadi. Ot-kesimli gaplarning hammasida ham kesim o'rnida mantiqan bog'lama talab etiladi va bundayin "ot-kesim"li gaplarning kesimi fe'lga qaytaveradi. Ular ot-kesim bo'lgani bilan, gap qurilishida har qachon ham mantiqan fe'lga zarurat tug'iladi.

Gapda fe'ldan boshqa so'zlarning kesim bo'lib kela olishini nutq va matn tuzish amaliyotidagi yuz yillar davomida kechgan tarixiy-lingvistik takomil natijasi, desa bo'ladi. Maqolada yozma yodgorliklar misolida ot-kesimli gaplar va ularning yuzaga kelish omillari to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *turkiy yozma yodgorliklar, eski turkiy til, kisim, fe'l-kesim, ot-kesim, bog'lama.*

Muallif haqida: *Qosimjon Sodiqov* – filologiya fanlari doktori, professor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Sodiqov, Qosimjon. 2020. "Turkiy yozma yodgorliklar tilida ot-kesim va uning ifodalanishi". *Oltin bitiglar* 3: 62—77.

Kirish

O'zbek tilida, shu qatori turkiy yozma yodgorliklar tilida ham kesim ko'pincha fe'llardan tuziladi. Fe'l turkumidagi so'zlar o'zining leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra kesimlikka moyil bolib,

ularning gapdagi bosh vazifalaridan biri ham kesim bo'lib kelishidir.

Fe'l-kesim gapda egadan anglashilgan kimsa, jonzot, narsa-buyum, voqea-hodisalarning harakati yoki holatini bildiradi. Yozma yodgorliklardan fe'l-kesimli gaplarga bir-ikki misol keltiramiz.

Tabyač bodunqa bāglik urī oylīn qul boltī, silik qīz oylīn kūñ boltī. – “Tabg’ach xalqiga bek bo’ladigan o’g’il bolasi bilan qul bo’ldi, suluv qiz bolasi bilan cho’ri bo’ldi” [K. 7].

Nečā mā opraq keđūk ersä, yaımurqa yarar. – “Kiyim qancha eski bo’lsa ham, yomg’irga yaraydi” [Кошғарий 2017, 337].

Boš nāñkā idi bolmas. – “Bo’sh narsaning egasi bo’lmaydi” [Кошғарий 2017, 135].

Tay tayqa qawuřmas, kiři kiřikā qawuřur. – “Тоғ тоққа қовушмайди, киши кишига қовушади [бир кун келиб бир-бири билан учрашади]” [Кошғарий 2017, 238].

Telim sözüg uqsa bolmas, yalim qaya yiqsa bolmas. – “Кўп сўзни тушуниб бўлмайди, қаттиқ тошни йиқитиб [синдириб] бўлмайди” [Кошғарий 2017, 329].

Tewäy münüp qoy ara yařmas. – “Tuya mingan kishi qo’ylar orasida yashirinolmaydi” [Кошғарий 2017, 345].

Qaynar ögüz kečigsiz bolmas. – “Tez oqar suv ko’priksiz bo’lmaydi” [Кошғарий 2017, 389].

Köklär kesäk-kesäk bolu yazdı. – “Ko’klar kesak-kesak [ya’ni parcha-parcha] bo’layozdi” [Таф. 175].

Gapda, o’rni bilan, boshqa so’z turkumlari (ot, sifat, son va b.) ham kesim bo’lib keluvi mumkin.

Fe’ldan boshqa turkumdagi so’zlar kesim bo’lib kelishining ikki xil omili bor: birinchisi, biror bo’lakni ajratib ko’rsatish, uning ma’nosini urg’ulash; ikkinchisi, gap qurilishining grammatik-uslubiy jihatdan takomillashuvi, ortiqcha grammatik qaytariqlardan qochish, uslubiy o’ziga xoslikka, ixchamlikka bo’lgan intilishdir.

Shularga ko’ra, gapda fe’ldan boshqa so’zlarning kesim bo’lib kela olishini nutq va matnchilik amaliyotidagi uzoq asrli tarixiy rivojlanish natijasi, gap qurilishi, fikr ifodalashning uslubiy jihatdan takomillashuvi desa bo’ladi.

Ot-kesim va uning ifodalanishi

Ot-kesimli gaplarda quyidagi holatni kuzatamiz. Masalan, hozirgi o’zbek tilidan olingan *Bu uy chiroyli* hamda *Mening niyatim shu* gaplarining kesimlari fe’l emas: birinchisi – sifat, keyingisi – olmosh. An’anaviy grammatikada ularni *ot-kesim* deb yuritiladi. Ammo ushbu gaplarning kesimi shularning o’zi bilan shakllanayotgani yo’q.

Ularda biz kesim deb sanayotgan sifat va olmoshdan keyin mantiqan ta'kidni bildiruvchi *-dir* bog'lamasi turibdi: *Bu uy chiroyli(dir); Mening niyatim shu(dir)*. Buning singari misollarni yana keltirishimiz mumkin: ularning hammasida ham kesim o'rnida *-dir* qo'shimchasi talab etiladi va bundayin "ot-kesim"li gaplarning kesimi mantiqan fe'lga qaytaveradi.

Bunday gaplarni ot-kesimli gaplar deyishimizning o'zi nisbiydir. Biz ularni ko'rinishiga qarab atayapmiz. Aslida esa gapda ishlatilmayotgan o'sha mantiqiy bog'lama ularni kesimga aylantirayotir.

Ot-kesimlarga xos bunday hol hozirgi o'zbek tilidagina emas, ilk va o'rta asrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar tilida ham kuzatiladi.

I. Biz hozirgi o'zbek tilida ishlatayotganimiz *-dir* bog'lamasi qadimgi turkiy tildagi *turur* ko'makchi fe'lining qisqargan shaklidir. Uning o'zgarib kelishi shunday bo'lgan: *turur / durur > -tur / -dur > -dir*.

Turur fe'lining o'zagi *tur-* bo'lib, yozma yodgorliklar tilida uning ikki xil vazifasi bor: birinchisi mustaqil fe'l, ikkinchisi esa ko'makchi fe'l bo'lib keladi.

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'ati-t-turk" asarida *tur-* fe'lining ma'nolarini yaxshi ochib bergan. Birinchisi "o'rnidan qo'pmoq", ya'ni "turmoq" anglamida. Bunda u mustaqil fe'l bo'lib keladi: *eryuqaru turdi* – "kishi va boshqalar o'rnidan turdi". Koshg'ariy bu fe'lining kelasi zamon shakli va masdarini ham keltirgan: bular *turur*, *turmaq* shakllaridir.

Turur ko'makchi fe'lga esa olim shunday ta'rif beradi: "*turur* – o'tgan zamon va masdar shakllari bo'lmagan kelasi zamon fe'lidir. ... Bu so'z biron bir narsaning so'zlanayotgan vaqtda o'z ornida barqaror ekanini anglatadi. Chunonchi, *ol ewdä turur*, ya'ni "u uydadir", demakdir. Bu gapda bu so'z "tik turmoq" ma'nosida emasdir yoki *er sögäl turur* – "kishi kasaldir", demakdir. Bu yerda "tik turmoq" ma'nosida emas" [Кошғарий 2017, 386].

Yoki boshqa bir o'rinda *tur-* fe'lining quyidagi ma'nolarini ko'rsatgan: birinchisi, "qo'pmoq, o'rnidan turmoq". Bunga keltirgan misoli shunday: *er yuqari turdi* – "kishi va boshqalar tik turdi".

So'zning ikkinchi ma'nosi "yog'di, paydo bo'ldi" deb yozadi olim. Bunga keltirgan misoli shunday: *tuman turdi* – "tuman paydo bo'ldi".

Lug'at tuzuvchining qayd etishicha, ushbu mustaqil fe'ling kelasi zamon shakli *turur*, masdari esa *turmaq* shaklidir [Кошғарий

2017, 210].

Koshg'ariy *turur* ko'makchi fe'li to'g'risida esa shunday yozadi: *turur* – o'tgan zamon shakli va masdar shakli yo'q, kelasi zamon fe'lidir. U bog'lama ma'nosida (keladi): *ol taš turur* – “u toshdir”; *ol quš turur* – “u qushdir”. Bu bog'lama – tamomlovchidir [Кошғарий 2017, 210].

Turur bog'lamasi bilan ishlatilgan misollar.

“Qutadg'u bilig” asarining arab yozuvli Namangan va Qohira nusxalarida shunday bayt bor:

“Beg” atī “bilig” birlä bayliḡ turur,

“Bilig” “lām»” ketsä, “beg” atī qalur [Hacib 2015 (N), 76a, 6; Hacib 2015 (Q), 53a, 13].

Mazmuni: “Beg” oti “bilig” bilan bog'liqdir,

“Bilig” “lom”i ketsa, “beg” oti qoladi [ya'ni “*bilig*” so'zidan “*lām*” harfi ketsa, “*beg*” so'zi qoladi].

Ushbu baytda muammo san'ati ishlatilgan. Unda “*bilig*” va “*beg*” so'zlarining arab xatidagi yozilishiga ishora qilinib, bu ikki so'zning mohiyatan ham o'zaro bog'liqligi uqtirilmoqda.

Ko'makchi fe'l fazifasidagi *turur* eski o'zbek tili – “chig'atoy turkiysi” davri yodgorliklarida ham keng ishlatilgan. Masalan, XV yuzyillikda uyg'ur xatida bitilgan “Rohatu-l-qulub” asarida:

Qanā'attin yaxširaq zāhidlik yoq turur [PK. 147a]; *Ol yīyač bir yīl turur. Dayi ol on iki butayi on iki ay turur. Dayi ol otuz yapraq – bir yūzi aq, bir yūzi qara – otuz kün bilä tün turur. Dayi ol har bir yapraq qatindayi beš miva beš vaqt namāz turur* [PK. 144b–145a].

Yozma yodgorliklar tilida gapning ot-kesimlari ot-turkumidagi so'zlar bilan, shuningdek, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, modal so'zlar bilan ifodalanadi. Tabiiyki, bunday gaplarning kesimi mantiqan *turur* fe'lini talab qiladi. Buni bir nechta misolda ko'rib chiqamiz.

“Devonu lug'ati-t-turk” asarida shunday maqol bor: *Erdām baši til*. Ma'nosi: “Odobning boshi til” [Кошғарий 2017, 55]. Maqol sodda gap shaklida bo'lib, uning egasi – *baši* (ya'ni “boshlanishi”), kesimi esa – *til*; hozirgi an'anaviy grammatik qoidaga ko'ra ot-kesim bo'ladi. U mantiqan o'zidan keyin *turur* bog'lamasini talab qiladi: *til turur*, ya'ni “tildir”.

Yuqoridagi maqolning mantiqiy fe'l-kesim bilan tiklangan shakli (transformsiyasi) shunday bo'ladi: *Erdām baši til (turur)*.

Boshqa bir maqol: *Qul – yaʼyī, it – bōri*. Mahmud Koshgʻariyning izohicha, “Qul – yov, u qoʻlidan kelsa, egasining molidan olib, fursat topib, qochishning payida boʻladi. It ham xonadon uchun boʻridir. Chunki u yeydigan narsa topsa, undan oʻzini tiya olmaydi. Bu maqol qulning xoʻjayiniga oz vafo qilishini bildirish uchun aytilgan” [Кошғарий 2017, 138].

Ushbu maqol bogʻlovchisiz qoʻshma gap shaklida boʻlib, birinchi gapning kesimi – *yaʼyī*, ikkinchi gapniki esa – *bōri*. Har ikkala kesim ham mantiqan *turur* bogʻlamasini talab qiladi. Gapda uslub jihatdan tushirilgan ana shu bogʻlamani joyiga qoʻysak, maqolning mantiqiy feʼl-kesim bilan tiklangan shakli quyidagi koʻrinishga ega boʻladi: *Qul yaʼyī (turur), it bōri (turur)*.

Yoki qadimgi halq ogʻizlarida: *Oʻylan biligsiz*, deydi. Maʼnosi: “Bolada aql yoq”, degani [Кошғарий 2017, 155]. Soʻzma-soʻz “Bola – aqlsiz”.

Ushbu maqolning mantiqiy feʼl-kesim bilan tiklangan shakli quyidagi koʻrinishga ega boʻladi: *Oʻylan biligsiz (turur)*.

Maqolda shunday kelgan: *Yawlaq tillīy begdān kerū yalīñus tul yeg*. Maʼnisi: “Tili yomon, soʻkongʻich erli boʻlgandan koʻra beva oʻtgan yaxshi” degani [Кошғарий 2017, 368]. Ushbu gap kesimining tiklangan koʻrinishi *yeg (turur)* – “yaxshi(dir)” boʻladi.

Ot-kesim feʼlining harakat nomi shaklida ham kelishi mumkin. Masalan, “Rohatu-l-qulub” asarida:

Rasūl alayhi salām aytur: Yigirmi iṣ bar-kim, āgār kim ersā ol iṣlārni qīlsa, yoqsuzluq, miḥnat, qayyū paydā boʻlay:

Biri, tōṣāktin yalañyač qopup yazīya barmaq; İkinçi, arīysiz yürümäk; Üçünçi, ötmäk uṣaʼyin yergä tökmäk; Törtünçi, soʻyannīñ, sarmīsaqnīñ terisini küydürmāk ... [PQ. 147a].

Ot-kesimning modal soʻzlar bilan ifodalanishiga misol. Mahmud Koshgʻariy “yara” maʼnosidagi *baš* soʻzini izohlash uchun shunday maqolni keltirgan: *Kōni barīr keyiknīñ kōzindā adīn bašī yoq*. Maʼnosi: “Hech qayoqqa qaramay, toʻgʻri ketayotgan kiyikning koʻzidan boshqa yarasi yoʻq” deganidir [Кошғарий 2017, 374].

Yoki “Rohatu-l-qulub” asarida: *Hic nāmā ʼilimdīn asīyliʻyraq yoq* [PQ. 146a]; *ʼİlimdīn yaxšī qulawuz yoq* [PQ. 146b].

Bunday hollarda ham kesim *turur* bogʻlamasini talab qiladi: *yoq (turur)* singari.

Uygʻur yozuvli qadimgi turkiy vasiqalarda guvohlarning ismi-sharifi qayd etilgan komponent, odatda, bogʻlovchisiz qoʻshma gap shaklida berilib, sodda gaplarning ega va kesimlari oʻzaro teng munosabatli boʻladi. Masalan: *Tanuq – Qutadmīš Qaya, tanuq –*

Señičün ("Guvoh – Qutadmish Qaya, guvoh – Sengichun") [TX. 43, 2.25v – 26v]. Tabiiyki, bunday gaplarda mantiqan *turur* fe'li talab qilinadi.

Shu o'rinda muhim bir misol. Mungsuz Qayanig Turmish Temurga bergan tilxatida oldi-berdi to'g'risidagi ma'lumotdan so'ng, qoidaga ko'ra, guvohlarning ismi-sharifi qayd etilgan. O'sha joyda kishilar o'rtasidagi kelishuv jarayoni *söz*, unda guvoh bo'lib qatnashayotganlar *bu sözkä ... tanuq* deya tilga olingan: *Bu sözkä Qora Qidar tanuq, Küč-Temür, Ač-Buqa, Tügäl Q(a)ya, Buyan Q(a)ya tanuq* («Bu so'zga Qo'ra Qidir guvoh, Kuch-Temur, Ach-Buqa, Tugal Qaya, Buyan Qaya guvoh») [TX. 47, 11–12].

Shunga binoan, yuqorida keltirilgan *Tanuq – Qutadmish Qaya, tanuq – Señičün* gapining to'liq tiklangan ko'rinishi (*Bu sözkä tanuq – Qutadmish Qaya (turur), tanuq – Señičün (turur)* yoki (*Bu sözkä Qutadmish Qaya tanuq (turur), Señičün tanuq(turur)*) shaklida bo'ladi.

Gaplarda usluban tushuntiriladigan bog'lama bilan uslubiy ixchamlik talabiga ko'ra tushiriladigan fe'l-kesimni qorishtirmaslik kerak. Ikkovi boshqa-boshqa hodisadir. Fe'l-kesimi tushirilgan gaplarga misol.

"Devonu lug'ati-t-turk"da: *Alp čerigdä, bilgä tirigdä*, degan maqol bor. Ma'nosi: "Botir jang alangasida (sinaladi), dono majlisda (sinaladi)" degani [Кошғарий 2017, 156]. Ushbu maqol qo'shma gap shaklida bo'lib, uning har ikkala gapida kesimlari tushirilgan. Ular, gapning mazmuniga ko'ra, majhul nisbatdagi *sinalur* ("sinaladi") yoki *bilinür* ("bilinadi") fe'llaridir.

Maqolning fe'l-kesimini o'rni-o'rniga qo'yib tiklangan shakli shunday bo'ladi: *Alp čerigdä (bilinür), bilgä tirigdä (bilinür)*.

Yana bir misol.

Quldačıqa miñ yayaq, barča bilä ayruq tayaq. Aytmoqdaki: "Tilanchiga mingta yong'oq, bularning ustiga yana suyanadigan hassa ham berishim kerak" [Кошғарий 2017, 167].

Qo'shma gap shaklidagi ushbu maqolda *bergil* fe'li tushirilgan. Ularni tiklaganda birinchi gapda *bergil*, ikkinchi gapda esa ta'kid yuklamasi bilan qo'shib aytamiz. Shunda maqolning fe'l-kesimlarini o'rni-o'rniga qo'yib tiklangan shakli quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: *Quldačıqa miñ yayaq (bergil), barča bilä ayruq tayaq(-ma bergil)*.

O'tmishda xoqonlarning yorliqlari, rasmiy bitig'lari ularning unvoni bilan boshlangan. Masalan, Ikkinchi turk xoqonlig'i zamonida yurtga egalik qilgan Bilga xoqon o'z yorliqlarini *Täñri-täg Täñri yaratmış türk Bilgä qayan sabim* ("Ko'kday ulug' Tangri yaratgan qudratli Bilga xoqon so'zim") unvoni bilan boshlagan [X. 1].

Unvonning to'liq transformatsiyasi (*Bu ben,*) *Tāḡri-tāḡ tāḡri yaratmīš türk Bilgā qayan(niḡ) sabīm (turur).* – “(Bu men,) ko'kday (ulug') tangri yaratgan qudratli Bilga xoqon(ning) so'zim (turur/-dir)” shaklida anglanadi.

Muhimi shundaki, Bilga xoqon unvoni o'z davrininggina emas, o'rta asrlarning barcha rasmiy-diplomatik hujjatchiligi uchun andoza bo'lib xizmat qildi. Turkiy saltanatlarining egalari o'z yorliqlarini, o'zga mamlakatlarga yo'llagan diplomatik xatlarini ana shunday unvonlar bilan boshlaganlar.

Keyingi yuzyilliklarda unvonlarga yana bir komponent qo'shildi: yorliq beruvchi bilan birga adresat (yorliq yo'llanuvchi kimsa yoki tomon) ham kiritildi. Jumladan, Oltin O'rda xoni To'xtamishning 1393-yili polyak qiroli Yag'ayliga yollagan yorlig'i *Toxtamīš sōzūm Yagaylaya* (To'xtamish so'zum Yag'aylaga) deb boshlangan [T. 1–2].

Bu o'rinda *Toxtamīšsōzūm* – unvon; undagi *Toxtamīš* – adresant (intitulatio); Sharq manbashunosligida xat egasi, xat yollovchini *mursil* deyilgan [Хакимов 2013, 19; 207]; *sōzūm* – yorliqning xonga tegishlilikini, uning o'z og'zidan aytilayotganligini dalillovchi kalom. *Yagaylaya* – yorliq yo'llanayotgan kimsa (adresat – inscriptio)ni bildiradi, shuning uchun u jo'nalish kelishigida. Adresat sharqona tilda *mursal* bo'ladi [Хакимов 2013, 19; 207].

Endi unvonning to'liq tiklangan shakli (transformatsiyasi) ham o'zgaradi: (*Men,*) *Toxtamīš(niḡ) sōzūm Yagaylaya (bolsun)* yoki (*Bu men,*) *Toxtamīš(niḡ) sōzūm Yagaylaya (turur)*, ya'ni “(Men) To'xtamish(ning) so'zim Yag'aylaga (bolsin / -dir)” shaklida bo'ladi.

II. Til tarixida fe'lning shaxs-son qo'shimchasi ham gapning kesimini shakllantira oladi. Buni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Ikkinchi Turk xoqonlig'i davridan qolgan To'nyuquq bitigi shunday boshlangan [Ton. 1 – transliteratsiyada]:

B'İL'GÄ : TOŇuQuQ : B'än'ÖZÜM : TaBĞaČİL'iŇÄ : QİLNTİm

S.E. Malov buni *Bilgā ToŇuquq bän özüm Tabğaç ilinā qilintim* deb o'qib, mazmunini ruschaga: “Я сам, мудрый Тоньюкук, получил воспитание под влиянием культуры народа табгач” deb tarjima qilgan [Малов 1951, 61; 64].

H.N. Orkun buni turkchaga “Bilge Tonyukuk ben kendim Çin ülkesinde vücut buldum” deb o'giran [Orkun 1987, 100].

G'. Abdurahmonov va A. Rustamov bu jumlani o'zbekchaga: “Bilga To'nyuquq men o'zim Tabğ'ach davlatida tarbiyalandim” deb o'giran [Абдурахмонов, Рустамов 1982, 71].

U. Sertkayaning urg'ulashicha, bu yerda ikkita jumla bor: matndagi *bän* shaxs-son qo'shimchasi bo'lib, birinchi jumlaning kesimini shakllantiradi. Undan keyingi *özüm* ni esa keyingi jumlaning egasi sifatida o'qilgani ma'qul: *Bilgä Toñuquq-bän. Özüm Tabyač äliñä qilintim*. Shunda ma'no ham o'zgaradi: "(Men) bilga To'nyuquqman. O'zim Tabg'ach yurtida voyaga yetdim" [Sertkaya 1995,41– 44].

Haqiqatan, bitigning ilk jumlasini *Bilgä Toñuquq, bän özüm Tabyač äliñä qilintim* deb o'qib, mazmuni "Bilga To'nyuquq, men o'zim Tabg'ach mamlakatida voyaga yetdim" deya talqin etilganda bitigning rasmiy mavqei susayadi; go'yo u oddiy tarjimai holday bo'lib qoladi.

To'nyuquq xoqon emas, qolaversa, uning bitigi yurt egasining yorlig'i ham emas. U biografik xarakterdagi asar. Bitig To'nyuquqning kim o'tgani, xalq va yurt erki yo'lida xoqonlar bilan yelkama-yelka turib kurashgan milliy qahramonning ulug' xizmatlarini xoqonliq oldida, kelajak avlodga yana bir bor ta'kidlab qo'yish uchun yozilgan xotirasidir. Shuning uchun boshlovchi jumlani *Bilgä Toñuquq-bän* ("(Men) bilga Tonyuquqman") deb berilgani to'g'ri.

Ushbu boshlovchi jumlaning uch komponentga ajratish mumkin: birinchisi – muallifning unvoni (*bilgä*); ikkinchi komponent – oti (*Toñuquq*), unga qo'shilayotgan *-bän* – uchinchi komponent - shaxs-son qo'shimchasi bo'lib, kesimlikni ta'minlaydi. Ushbu jumla quyida berilgan matn To'nyuquqning so'zlari ekaniga ishoradir. Shundan so'ng *Özüm Tabyač äliñä qilintim* ("O'zim Tabg'ach elida voyaga yetdim") jumlasini bilan asosiy qismga ko'chiladi.

Jumlaning bunday shaklda oqilishi bitigning rasmiy maqomini ham ta'minlaydi, muallifning maqsadiga ham mos tushadi.

Matnni ana shu ko'rinishda boshlash epigrafik matn bitish tarixida keng tarqalgan edi. Yenisey tevaragidan topilgan bitiglarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Yenisey bitiglarida marhumning ko'zi tirikligida erishgan yutuqlari, yetisha olmagan armonlari uning o'z tilidan hikoya qilingan. Ularning ayrimlari To'nyuquq bitigidagi singari qabr egasini tanitishdan boshlanadi.

Masalan, Kulug apa bitigi: *Külüg apa-ben.* – "(Men) Kulug apamen" [Y. 20.2]; Yaruq tigin bitigi: *Er atim Yaruq tigin-ben.* – "Er otim Yaruq tigindirmen" [Y. 19.1]; El To'g'an bitigi: *Atim El Toyän Tutuq-ben.* – "Otim El To'g'an Tutuqmen" [Y. 1.2]; Ko'k tirig bitigi: *Er atim Kök Tirig-ben.* – "Er otim Ko'k Tirigmen" [Y. 51.1]; Beg Tarqan O'ga Tirig bitigi: *Beg Tarqan Ögä Tirig-ben.* – "(Men) Beg Tarqan O'ga Tirigmen" [Y. 53.3] deb boshlangan. Buning singari misollar talay.

Bari epigrafik matn tuzishda adib va tarixchi To'nyuquq boshlab bergan an'anaga ergashadi.

Muhimi, ushbu boshlamalarning barida bitig egalarining otlari va unvonlaridan so'ng *turur* ko'makchisi talab qilinadi, shaxs-son qoshimchalari esa mantiqan ana shu fe'lga bog'lanadi: *(Ben) Qutluy Čigši (turur)-ben*, ya'ni "(Men) Qutlug' Chigsi(dir)men" singari.

Xuddi shu hol Tonyuquq bitigida ham mavjud.

Anglashiladiki, Tonyuquq bitigida muallif o'z xotiralarini *Bilgä Toñuquq-bän. Özüm Tabyač äliñä qilintim* ("(Men) bilga Tonyuquq-man. O'zim Tabgach elida voyaga yetdim") jumalari bilan boshlagan.

Bitigning ilk *Bilgä Toñuquq-bän* jumlasida shaxs-son qo'shimchasi otgato'g'ridan-to'g'ri bog'lanayotgani yo'q. Ukesimlikni ta'minlayotgan *turur* fe'lga bog'lanayotir. Ana shuni ko'zda tutganda gapning to'liq tiklangan ko'rinishi va mazmuni shunday bo'ladi: *(Ben) Bilgä Tonuquq (turur)-ben. Özüm Tabyač äliñä qilintim*, ya'ni "(Men) Bilga To'nyuquq(dir)men. O'zim Tabg'ach elida voyaga yetdim".

III. Yozma yodgorliklar tilida ta'kid ma'nosini beruvchi *-ol* bog'lamasi ham kesimlikni ta'minlaydi.

Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, *-ol* – ot va fe'llarga qo'shiladigan ta'kid qo'shimchasidir. Bunga keltirgan misollari shunday: *ol meniñ oylum-ol* – "u haqiqatan mening o'g'limdir"; *ol ewkä barmiš-ol* – "u uyga haqiqatan borgandir" [Кошғарий 2017, 30].

Qadimgi turkiy tilda ushbu qo'shimcha fikr tugalligi, aniqligini bildirib, vazifasi hozirgi o'zbek tilidagi *-dir* ga to'g'ri keladi. Misollarga e'tibor bering:

Türk bodun yämä bulyanč-ol, tämiš. Oyuzi yämä tarqanč-ol, tämiš. – "Turk xalqi ham sarosimadadir, – debdi. – O'g'uzi ham tarqoqdir, – debdi" [Ton. 22].

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida:

*Uquš körki til-ol, bu til körki – söz,
Kişi körkü yüz-ol, bu yüz körkü – köz.*

"Uquvning ko'rki tildir, bu tilning ko'rki – so'z,

Kishining ko'rki yuzdir, bu yuzning ko'rki – ko'z" [Hacib 2015 (H), 10a, 23].

*Bu Küntuydi tegli törü-ol köni,
Bu Aytoldi tegli qut-ol, kör anı.*

“Bu Kuntug‘di degani(m) chin adolatdir,
Bu Oytoldi degani(m) baxtdir, unga bir boqqin” [Hacib 2015 (N),19b, 12].

Yoki uyg‘ur yozuvida bitilgan qadimgi turkiy vasiqalarning xotimasida hujjatlarga urilgan tamg‘alarning kimga tegishli ekanligini anglatuvchi komponentlar shunday beriladi:

Bu tamya biz, ikägüniñ-ol. – “Bu tamg‘a biz, ikkimiznikidir” [TX. 1,18v].

Bu tamya men, Titsuniñ-ol. – “Bu tamga men, Titsunikidir” [TX. 1,20v].

Arab yozuvli turkiy matnlarda *-ol* bog‘lamasi *alif-vāv-yā* [ya‘ni *اولا*] bilan yozilib, o‘zi bog‘lanayotgan so‘zdan ajratiladi. Hozirgi nashrlarda esa bu ko‘rinishini ba‘zan *ol* olmoshi bilan qorishtirib yuborish hollari ham uchrab turadi. Bir misol keltiramiz.

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida *-yan, -gān / -qan, -kān* qoshimchasi bilan hosil qilingan sifatdoshlar to‘g‘risida so‘z yuritir ekan, ular harakat va holatning izchil qaytalanib turuvchi ma‘nosini ham berishini ta‘kidlaydi. Bunday so‘zlarni u alohida guruhga ajratgan. Shu o‘rinda *-ol* bog‘lamasi bilan kelgan jummalarni misol qilib keltiradi.

Muhimi shundaki, asarning ayrim hozirgi nashrlarida bu jumalardagi bog‘lamani ko‘rsatish olmoshi bilan qorishtirib yuborganlar.

Masalan, asarning 1960-yilgi Toshkent nashrida: *ol bu ot ol kişini uđıtyan* gapini hozirgi o‘zbekchaga “bu dori u odamni har vaqt uxlatadi” deb; *ol kişi ol yoldan azıtyan* gapini “bu odam kishini doim yo‘ldan ozdiradi”; *bu er ol söz unıtyan* gapini “bu odam doim so‘zini unutadi”; *bu aşı ol kişini ačuryan* gapini esa “bu ovqat odamning qornini tez ochiradigan; tez hazm boladigan” deb ogirganlar [Кошғарий 1960 – 1963 (I), 169 – 171].

Yuqoridagi misollar hozirgi o‘zbek tiliga to‘g‘ri o‘girilgan emas. Yaxshi tomoni, unda harakat va holatning izchil qaytalanib turuvchi ma‘nosi berilgan. Biroq, katta kamchiligi, *-ol* bog‘lamasining ma‘nosini o‘girmada bera olmaganlar; u kishilik va ko‘rsatish olmoshlari bilan qorishtirib yuborilgan.

O‘zbekcha o‘girmani to‘g‘ri berish uchun, birinchi galda, transkripsiyada *-ol* bog‘lamasini o‘zi birikayotgan so‘zga chiziqcha bilan bog‘lab chiqqanimiz yaxshi. Ana shunda gapning ma‘nosini tushunish va hozirgi tilga o‘girish qulay kechadi.

Ilk jumladagi *-ol* bog‘lamasi *ot*, ya‘ni “dori” so‘zini ta‘kidlash

uchun; ikkinchi gapda *kişi* soʻzini, uchunchisida *er* ni, soʻnggisida esa *aş* soʻzini taʼkidlash uchun ishlatilayotir. *-yan* qoʻshimchasini olgan sifatdoshlarga esa, izchil qaytalanib turuvchi maʼno yuklab chiqamiz. Ana shunda oʻgirmamiz ancha tekis va grammatik jihatdan toʻgʻri chiqadi.

Endi oʻqib koʻring: *ol bu ot-ol kişini uđıtyan* – “bu oʻsha, kishini uxlatib qoʻyadigan doridir”; *ol kişi-ol yoldan azıtyan* – “u odamlarni doim yoʻldan ozdiradigan kishidir”; *bu er-ol söz unıtyan* – “bu, soʻzini unitadigan kishidir”; *bu aş-ol kişini açuryan* – “bu, kishining qornini tez ochiradigan, tez hazm boʻladigan ovqatdir” [Кошғарий 2017, 76].

“Devonu lugʻati-t-turk”ning quyidagi ikki nashrida ham bu gaplar toʻgʻri tarjima qilingan: A. Erjilasun va Z. Akkoyunluning birgalikda chop ettirgan turkcha tarjimasida ushbu jumlar quyidagicha: “bu, insani davamlı uyutan ilaçtır”, yaʼni “bu, insonni davomli uxlatadigan doridir”; “bu, insanları davamlı yoldan çıkaran insandır”, yaʼni “bu insonlarni davomli yoʻldan chiqaradigan insondir”; “bu, sözü çok unutan adamdır”, yaʼni “bu soʻzni koʻp unitadigan odamdır”; “bu, çabuk hazmedilen ve çabuk açiktıran yemektir”, yaʼni “bu, tez hazm etiladigan va tez ochiqtiradigan yemakdir” [Кошғарий 2017, 79-80].

A. Rustamov asarning ruscha nashrida yuqoridagi jumalarni shunday tarjima qilgan: “это – лекарство, которое всегда усыпляет человека”; “это человек, который вечно сбивает людей с [правильного] пути”; “это – человек, который часто забывает слова”; “это – пища, быстро переваривающаяся, быстро вызывающая голод” [Кашғари 2017 (I), 156–158].

Xulosa qilib aytganda, turkiy tillarda gapning kesimi feʼllar bilan ham, feʼldan boshqa soʻz turkumlari bilan ham ifodalanadi. Feʼlning kesim boʻlib kelishi uning eng muhim grammatik belgisidir.

Xulosa

Nutqda ham, matnda ham ot-kesim, birinchi galda, biror boʻlakni ajratib koʻrsatish, maʼnoni urgʻulash, yaʼni gap urgʻusi (logik urgʻu)ni taʼminlashga xizmat qiladi. Nutqda ushbu boʻlak boshqalariga qaraganda kuchliroq aytiladi. Shuning bilan birga, gap qurilishining grammatik-uslubiy jihatdan takomillashuvi, gap qurilishida bir xil qaytariqlardan qochish, uslubiy goʻzallikka, ixchamlikka intilish prinsipidan kelib chiqqan holda feʼldan boshqa turkumdagi soʻzlar ham kesim boʻlib kela oladi.

Gapda feʼldan boshqa soʻzlarning kesim boʻlib kela olishini nutq va matn tuzish amaliyotidagi yuz yillar davomida kechgan uzoq

tarihiy-lingvistik takomil natijasi, desa bo'ladi. Biroq kesimning fe'ldan boshqa so'zlar bilan ifodalanishi nisbiy holatdir. Chunki u ot-kesim bo'lgani bilan, har qanday holatda, mantiqan *turur*, hozirgi o'zbek tilida esa *-dir* bog'lamasini talab qiladi. Demak, gap qurilishida har qachon ham mantiqan fe'lga zarurat tug'iladi.

Adabiyotlar

I

Y – Yenisey bitiglari: Малов 1952.

K – Kul tigin bitigi: *Ka* – kichik bitig, *K, Kb* – ulug' bitig, *K.I–III, Kc* – toshning taroshlangan qirralari va ters tomonidagi yozuv. Nashrlari: Малов 1951, 19–55; Содиқов 2004, 96–112.

PK – Содиқов 2019.

Топ. – Tonyuquq bitigi: Аманжолов 2003, 175–188; Содиқов 2018, 233–248.

T – To'xtamish xonning Yag'ayliga yo'llagan yorlig'i: Содиқов 2016, 120–123.

TX – uyg'ur yozuvli turkiy hujjatlar: Содиқов 2016, 15–118.

Таф. – «Turkiy tafsir»: Боровков 1963.

X – Bilga xoqon bitigi; toshning yuz tomonidagi yozuv. Nashri: Содиқов 2004, 112–120.

QB – Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari: *H* – Vena (Hiro) nuxsasi: Hacıb, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (A)*. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara; *N* – Namangan (Farg'ona) nuxsasi: Hacıb, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (B)*. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara; *Q* – Qohira nuxsasi: Hacıb, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (C)*. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara.

II

Абдурахмонов, Ф., Рустамов, А. 1982. *Қадимги туркий тил*. Тошкент. Аманжолов, А.С. 2003. *История и теория древнетюркского письма*. Алматы.

Боровков, А.К. 1963. *Лексика среднеазиатского тегфсира XII–XIII вв*. Москва.

Hacıb, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (H)*. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara.

Hacıb, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (N)*. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara.

Hacıb, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (Q)*. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara.

Малов, С.Е. 1951. *Памятники древнетюркской письменности*. Москва–Ленинград.

Малов, С.Е. 1952. *Енисейская письменность тюрков*. Тексты и переводы. Москва–Ленинград.

- Kâşgarlı, Mahmud. 2014. *Dîvânu Lugâti't-Türk. Giriş – Metin – Çeviri – Notlar – Dizin*. Hazırlayanlar: A.B. Ercilasun – Z. Akkoçunlu. Ankara.
- Кошғарий, Махмуд. 1960–1963. *Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк)*. I–III. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. Тошкент: Фан.
- Кошғарий, Махмуд. 2017. *Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]*. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Кāшгари, Махмуд. 2017. *Дивāну лугāти-т-турк (Свод тюркских слов)*. Перевод на русский язык с комментариями академика Алийбека Рустами. В трех томах. Том 1. Ташкент.
- Sertkaya, O.F. 1995. *Göktürk Tarihinin Meseleleri*. Ankara.
- Содиқов, Қ. 2004. *Қўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини*. Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2016. *Илк ва ўрта асрларда яратилган туркий ҳужжатлар*. Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2018. *Илк ўрта асрларда Марказий Осиёда кечган этно-лингвистик жараёнлар*. Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2019. “Роҳату-л-қулуб” китоби”. *Islom tafakkuri (maxsus son)*: 97–108.
- Orkun, Hüseyin Namık. 1987. *Eski Türk Yazıtları*. Ankara.
- Ҳакимов, М. 2013. *Шарқ манбашунослиги луғати*. Тошкент.

Kasimjan Sadikov

(Tashkent, Uzbekistan)

kasimjonsadikov@gmail.com

The Predicative Parts of Speech Except the Verb (ot-kesim) and its Expression in the Language of old Turkic Inscriptions

Abstract

The type of predicate that is called ot-kesim (predicative parts of speech except the verb) in traditional grammar is relative. Because the predicate of the sentences with ot-kesim (predicative parts of speech except the verb) are not only formed with such as noun, adjective, numeral or pronoun. Those that we consider them as predicate (in the group of Name including noun, adjective, pronoun, etc.) are followed by the copulas that are -turur, -durur (in present-day Uzbek language: -dir “in English -dir is to be”) which logically refer to emphasis.

In all sentences with ot-kesim (predicative parts of speech except the verb), the copula is logically required instead of a predicate, and the predicate of such as sentences with ot-kesim (predicative parts of speech except the verb) returns again to the verb. Although they are the sentences with ot-kesim (predicative parts of speech except the verb), the predicate is logically required in the structure of a sentence. The state of being a predicate of the words except for a verb can be considered the result of historical-linguistic progress that lasted for more than a hundred years. In this article the sentences with ot-kesim (predicative parts of speech except the verb), and the factors of their origin are discussed, using the example of inscriptions.

Key words: *union, morphological form, syntax, sentence, complex sentence, dependent sentence, intro-ductory words, insertion sentences, actual division, tema, rema.*

About the author: *Qosimjon Sodiqov* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent state University of Oriental Studies.

Recommended citation: Sadikov, Kasimjan. 2020. “The Predicative Parts of Speech Except the Verb (Ot-Kesim) and its Expression in the Language of old Turkic Inscriptions”. *Golden Scripts* 6: 62—77.

References

I

- Y* – Yenisey bitiglari: Malov 1952.
- K* – Kul tigin bitigi: *Ka* – kichik bitig, *K, Kb* – ulug' bitig, *K.I-III, Kc* – toshning taroshlangan qirralari va ters tomonidagi yozuv. Nashrlari: Malov 1951, 19–55; Sodiqov 2004, 96–112.
- RQ* – Sodiqov 2019.
- Ton.* – Tonyuquq bitigi: Amanjlov 2003, 175–188; Sodiqov 2018, 233–248.
- T* – To'xtamish xonning Yag'ayliga yo'llagan yorlig'i: Sodiqov 2016, 120–123.
- TH* – uyg'ur yozuvli turkiy hujjatlar: Sodiqov 2016, 15–118.
- Taf.* – «Turkiy tafsir»: Borovkov 1963.
- X* – Bilga xoqon bitigi; toshning yuz tomonidagi yozuv. Nashri: Sodiqov 2004, 112–120.
- QB* – Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari: *H* – Vena (Hirot) nusxasi: Hacib, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (A)*. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara; *N* – Namangan (Farg'ona) nusxasi: Hacib, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (B)*. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara; *Q* – Qohira nusxasi: Hacib, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (C)*. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara.

II

- Abdurahmonov, G., Rustamov, A. 1982. *Qadimgi turkiy til*. Toshkent.
- Amanjlov, A.S. 2003. *Istoriya i teoriya drevnetyurkskogo pisma*. Almati.
- Borovkov, A.K. 1963. *Leksika sredneaziatskogo tefsira XII–XIII vv*. Moskva.
- Hacib, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (H)*. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara.
- Hacib, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (N)*. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara.
- Hacib, Yusuf Has. 2015. *Kutadgu Bilig. (Q)*. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). Ankara.
- Malov, S.Y. 1951. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti*. Moskva–Leningrad.
- Malov, S.Y. 1952. *Yeniseyskaya pismennost tyurkov*. Teksti i perevodi. Moskva–Leningrad.
- Kâşgarlı, Mahmud. 2014. *Dîvânu Lugâti't-Türk. Giriş – Metin – Çeviri – Notlar – Dizin*. Hazırlayanlar: A.B. Ercilasun – Z. Akkoyunlu. Ankara.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1960 – 1963. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk)*. I – III. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. Toshkent: Fan.
- Koshg'ariy, Mahmud. 2017. *Devonu lug'ati-t-turk [Turkiy so'zlar devoni]*. Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Kâshgari, Maxmud. 2017. *Divânu lugâti-t-turk (Svod tyurkskix slov)*. Perevod na russkiy yazik s kommentariyami akademika Aliybeka Rustami. V trex tomax. Tom 1. Tashkent.
- Sertkaya, O.F. 1995. *Göktürk Tarihinin Meseleleri*. Ankara.

- Sodiqov, Q. 2004. *Ko'k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2016. *Ilk va o'rta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2018. *Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan etno-lingvistik jarayonlar*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2019. "Rohatu-l-qulub" kitobi". *Islom tafakkuri* (maxsus son): 97–108.
- Orkun, Hüseyin Namık. 1987. *Eski Türk Yazıtları*. Ankara.
- Hakimov, M. 2013. *Sharq manbashunosligi lug'ati*. Toshkent.

Nigora Sulaymonova

(Toshkent, O'zbekiston)

nigora_sulaymonova@mail.ru

Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” asari qo'lyozma nusxalari haqida

*Chindan ham dunyoda tafsirlar behad ko'pdir,
Biroq ular orasida “al-Kashshof” kabisi yo'qdir.
Agar hidoyat izlasang, “al-Kashshof”ni takror o'qi,
Nodonlik bir kasal bo'lsa, “al-Kashshof” unga shifodir*
[Uvatov 1992, 43].

Abstrakt

Mazkur maqolada buyuk olim, xorazmlik alloma Abul Qosim Mahmud Zamaxshariyning mashhur diniy asarlaridan biri, Qur'oni karim tafsiriga bag'ishlangan “Kashshof” (to'liq nomi – “al-Kashshof fi haqiqi g'avomidi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujudhi-t-ta'vil” (“Qur'ondagi berk haqiqatlarni va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko'zlarini ochuvchi”) asari, xususan, uning qo'lyozma nusxalari haqida so'z boradi. Bugungi kunda mazkur tafsirning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida o'n to'rtta qo'lyozma nusxasi saqlanadi. Maqolada ushbu o'n to'rtta qo'lyozma nusxa manbashunoslik nuqtayi nazaridan batafsil tahlil qilingan. Har bir qo'lyozma nusxaning to'liq bibliografik ko'rsatkichlari qayd etilgan. Shuningdek, qo'lyozmalarda suralar haqidagi ma'lumotlar – necha oyatdan iborat, qayerda nozil bo'lgan, sura tafsirlarining berilish usullari, qo'lyozma nusxalarning xattotlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Maqola so'nggida “Kashshof” asarining qo'lyozma nusxalari haqida tasavvur hosil qilish uchun ulardan olingan fotolavhalar ilova qilingan.

Kalit so'zlar: *xorazmlik alloma, Mahmud Zamaxshariy, mufasssir, Kashshof, tafsir, Qur'oni karim, qo'lyozma nusxa, manbashunoslik tahlili, bibliografik ko'rsatkich.*

Muallif haqida: Nigora Sulaymonova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Sulaymonova, Nigora. 2020. “Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” asari qo'lyozma nusxalari haqida”. *Oltin bitiglar* 4 : 78—116.

Kirish

O'zining aql-u zakovati va boy ilmiy merosi bilan nafaqat Sharqda, balki butun jahonga mashhur bo'lgan alloma Mahmud Zamaxshariyning diniy asarlari orasida eng mashhuri, dunyo bo'ylab ko'p tarqalgani uning Qur'oni karim sharhiga bag'ishlangan “al-Kashshof fi haqiqi g'avomidi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta'vil” (“Qur'ondagi berk haqiqatlarni va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko'zlarini ochuvchi”) nomli asaridir. Mazkur asar qisqartirilgan holda “*Kashshof*” deb nomlanadi. Asarda Qur'oni karim filologik jihatdan ham tahlilga tortilganligi bois u tafsirlar orasida noyobi sanaladi.

Zamaxshariy merosini tadqiq etgan olimlarning xulosalariga asoslanib ta'kidlash joizki, xorazmlik alloma dunyoda uchta eng kuchli mufasssirlarning biri hisoblanadi (*Tabariy* (839 – 923), *Zamaxshariy* (1075 – 1144), *Baydaviy* (vafoti 1286)). Zamaxshariyning mufasssir sifatida buyukligi shundaki, u Qur'oni karimni sharhlash uchun zarur bo'lgan o'n besh fanni mukammal bilgan. Bular lug'at, nahv, sarf, ishtiyoq, ilmu-l-ma'oni, ilmu-l-bayon, ilmu-l-badi', ilmu-l-qiroat, ilmu-l-a'qod, usulu-l-fiqh, asbobu-n-nuzul, nasih va mansuh, ilmu-l-fiqah, hadis, ilmu-l-vahbiy. Zamaxshariyning mazkur fanlarni yaxshi bilganligini iroqlik tarixchi Ibn Xallikon o'zining “Vafoyotu-l-a'yon va anbo' abno'i-z-zamon” asarida ta'kidlab o'tgan [Ibn Xallikon 1881, 107]. Darhaqiqat, Zamaxshariy o'z tafsirida Qur'oni karim tilining go'zalligini ochib bera olgan, qolaversa, mufasssir o'zining “Kashshof” asari orqali Qur'oni karim bu buyuk mo'jiza ekanligini yana bir bor isbotlagan.

Inglizsharqshunosi X.A.Gibb “Arab adabiyoti” asarida shunday yozadi: “Zamaxshariy, birinchi navbatda, o'z tafsiri bilan mashhur bo'lgan. Asrlar o'tsa-da, bu tafsir qayta-qayta nashr ettirilmoqda va hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan” [Gibb 1960, 85 – 86]. Qator omillar, jumladan, “Kashshof” tafsirining nusxalariga yozilgan sharh va hoshiyalarning ko'pligi, uning turli xorijiy tillarga tarjima qilinganligi, bir qator mamlakatlarda qayta-qayta chop etilganligi uning haqiqatan ham buyuk asarligidan dalolat beradi.

Nemis sharqshunosi Karl Brokkelmanning “Arab adabiyoti tarixi” kitobida keltirilgan ma’lumotlarga ko’ra, London, Manchester, Berlin, Myunxen, Gamburg, Leypsig, Milan, Sankt-Peterburg, Peshovar, Kalkutta, Raypur, Istanbul, Tunis, Qohira kabi dunyoning turli shaharlarida joylashgan eng yirik kutubxona va fondlarda “Kashshof” asarining yuzga yaqin qo’lyozma nusxalari saqlanadi. Shuningdek, Mahmud ibn Mas’ud Sheroziy (vafoti 1310-yil), Husayn ibn Muhammad Toyibiy (vafoti 1342-yil), Muhammad Taftazoniy (vafoti 1389-yil), Jurjoni (vafoti 1413-yil) singari o’z davrining ko’zga ko’ringan, yetuk olim va tadqiqotchilari tomonidan Zamaxshariy tafsiriga yozilgan yigirmadan ortiq sharhlar hozirda dunyo bo’ylab keng tarqalgan [Brokkelman 1868, 507 – 509].

“Kashshof” asarining muallif o’z qo’li bilan oqqa ko’chirgan dastxat nusxasi (1134-yil) bugungi kunda Tehron kutubxonasida saqlanadi [Oqilov 1982, 57].

Asosiy qism

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomi-dagi Sharqshunoslik institutining Qo’lyozmalar fondida “Kashshof” asarining 14 ta qo’lyozma nusxasi saqlanadi. Biroq ularning birortasi ham to’liq nusxa emas. Ularning ayrimlarida asarning birinchi qismi, ba’zilarida ikkinchi yoki uchinchi qismi berilgan. Yana ayrimlarida esa bitta jildda asarning turli bo’laklari jamlangan. Quyida asarning fondga mavjud 14ta qo’lyozma nusxasining tavsifini keltiramiz.

“Kashshof” asarining fondga saqlanayotgan qo’lyozma nusxalaridan birinchisi 1909-inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa. Mazkur qo’lyozma hijriy 528 \ milodiy 1134-yilda Makkada yozilgan asardan olingan nusxa bo’lib, u Muhammad ibn Muhammad al-Kozruniy tomonidan hijriy 837 \ milodiy 1433-yilda suls xatida ko’chirilgan. Arab tilida bitilgan asarning mazkur qo’lyozmasi 762 varaqdan (1524 betdan) iborat bo’lib, 18x26 sm o’lchamga ega. Har bir sahifadagi yo’llar soni 29ta. Qo’lyozmaning har bir varag’i poygirlangan. Karton muqovali mazkur qo’lyozma ta’mirtalab. Qo’lyozma suvga tushib, nuqsonli bo’lib qolgan. Aksariyat sahifalarda matn o’chib ketgan, bir sahifaning yozuvi ikkinchi sahifaga tushib qolgan joylar ham talaygina. Juda ko’p sahifalar yirtilib ketgan, lekin asar matni varaq o’rtasidagi jadval ichida berilganligi bois, unga putur yetmagan, faqatgina so’nggi 761- va 762-varaqlardagi matn o’qib bo’lmaydigan holatga kelgan. Aynan 761-varaqda Falaq surasining tafsiri boshlangan, qo’lyozmaning so’nggi varaqlari nuqsonli bo’lganligi uchun tafsirning oxiri yo’q.

Qo'lyozmaning titul varag'i yo'q, u muqaddimadan boshlangan. Muqaddima bezakli mayda suls xatida bitilgan va u naqshinkor jadvalga olingan. Mazkur sahifalarda miniatyura san'atidan lavhalar ko'rish mumkin. Mo'jazgina muqaddimadan keyin Fotiha surasining tafsiri boshlangan. Har bir sahifadagi matn jadval ichida berilgan. Tafsir qilinayotgan oyatlar tilla suvi bilan, uning tafsiri esa qora siyohda yozilgan. Biroq tilla suvi bilan yozilgan oyatlar aksariyat sahifalarda o'chib ketgan. Qo'lyozmaning ayrim sahifalariga qo'lyozma egasining muhri bosilgan. Qo'lyozma sahifalari raqamlanmagan, sahifalar ketma-ketligini poygirlar yordamida aniqlash mumkin.

Qo'lyozmada Fotiha surasidan Falaq surasigacha bo'lgan suralar tafsirlangan, biroq so'nggi varaqlar nuqsonli bo'lganligi uchun Falaq surasining tafsiri oxirigacha emas.

Asarning yana bir qo'lyozma nusxasi **6048** inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa bo'lib, 17,5x25,5 sm o'lchamga ega, hajmi 82 varaq (164 bet). Unda "Kashshof" asarining 2ta turli bo'lagi jamlanib, bir jild qilingan. Jilddagi asarning birinchi qo'lyozmasi suls xatida qora siyohda yozilgan. Matn har bir sahifada 19 qatorga joylashtirilgan, u harakatlantirilmagan. Tafsir matnida sura va oyatlar ajratib ko'rsatilmagan, ular tafsir matni bilan bir xil xatda, bir xil siyohda, bir xil o'lchamda berib ketilgan. Bu esa o'quvchiga kerakli suraning tafsirini topishda noqulaylik tug'diradi. Matn jadvalga olinmagan. Hoshiyada sharh va izohlar yo'q.

Sahifalar raqamlanmagan. Sahifalar ketma-ketligini poygirlar yordamida aniqlash mumkin. Jilddan joy olgan asarning mazkur qismida Fotiha surasidan Kahf surasigacha bo'lgan jami 18ta sura (Fotiha, Baqara, Oli Imron, Niso, Moida, An'om, A'rof, Anfol, Tavba, Yunus, Hud, Yusuf, Ra'd, Ibrohim, Hijr, Nahl, Isro, Kahf) tafsir qilingan.

Mazkur jildga kiritilgan asarning yana bir bo'lagi 254 varaq (508 bet) hajmga ega. Bu qo'lyozmada asar matni har bir sahifada 19 qatorga joylashtirilgan. Matn nasx xatida, u to'liq harakatlantirilgan. Asar matni jadvalga olinmagan, biroq hoshiyada ko'plab izoh va sharhlarni ko'rish mumkin. Ular nasx, riqo, nasta'liq xatlarida bitilgan. Sharh va izohlarning ko'pligi asarning bu qismi ko'pchilik tomonidan o'qilganligini bildiradi. Ayrim sahifalarda matn qatorlari orasida ham sharh va izohlarni uchratish mumkin. Qo'lyozma poygirlingan, biroq ayrim yirtilgan sahifalarda poygirlar yo'qolib ketgan.

Mazkur qo'lyozmada Yunus surasidan Kahf surasigacha

bo'lgan jami 9 ta (Yunus, Hud, Yusuf, Ra'd, Ibrohim, Hijr, Nahl, Isro, Kahf) sura tafsirlangan. Tafsir matnidan suralarning nomi, undagi oyatlar soni, oyatlar nozil bo'lgan joyni ajratib ko'rsatish uchun ular ko'chiruvchi tomonidan qizil siyohda biroz yirikroq harflar bilan berilgan.

Mazkur jildga kiritilgan asarning har ikki bo'lagi qachon va kim tomonidan ko'chirilganligi noma'lum.

"Kashshof" asarining **7946**-inventar raqam ostida saqlanayotgan yana bir qo'lyozma nusxasi 478 varaq (956 bet) hajmga ega, o'lchami 16x27 sm, sahifadagi yo'llar soni 21ta.

Asar matni mayda suls xatida yozilgan, matn harakatlantirilmagan. Suralarning nomi, undagi oyatlar soni va ular nozil bo'lgan joy nomlarini tafsir matnidan ajratib ko'rsatish uchun ko'chiruvchi ularni qizil siyohda bergan. Asar matni jadvalga olinmagan. Hoshiyada sharh va izohlar yo'q. Qo'lyozma hijriy 1059 \ milodiy 1649-yilda Hofiz Solih tomonidan ko'chirilgan.

Mazkur qo'lyozma nusxada asarning Maryam surasidan boshlangan qismi berilgan. Unda Maryam surasidan Nos surasigacha bo'lgan jami 97ta sura tafsirlangan.

6043-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma 415 varaq (830 bet) hajmga ega, o'lchami 17x26,5 sm, sahifadagi yo'llar soni 27ta.

Asar matni mayda nasx xatida yozilgan, matn harakatlantirilmagan. Asarning titul varag'i yo'q. Qo'lyozma muqaddimadan boshlangan. Muqaddima naqshinkor jadvalda berilgan. Muqaddimadan keyin suralarning tafsiri jadvalga olinmagan. Tafsir matni qora siyohda berilgan, suralarning nomi, qayerda nozil bo'lganligi, undagi oyatlar soni qizil siyoh bilan ajratib ko'rsatilgan. Hoshiyada qizil va qora siyohda sharh va izohlar bor. Nusxaning qator sahifalarida qo'lyozma egasining muhri tushirilgan. Har bir varaq poygirlingan.

Qo'lyozmaning so'nggi 415-varag'ida (830-bet) mazkur nusxa hijriy 823 \ milodiy 1420-yilda Abdurahmon ibn Abu Bakr tomonidan ko'chirilganligi qayd etilgan.

Mazkur qo'lyozma nusxada asarning Fotiha surasidan boshlangan birinchi qismi berilgan. Unda Fotiha surasidan Hijr surasigacha bo'lgan jami 15 ta (Fotiha, Baqara, Oli Imron, Niso, Moida, An'om, A'rof, Anfol, Tavba, Yunus, Hud, Yusuf, Ra'd, Ibrohim, Hijr) sura tafsirlangan.

"Kashshof" asarining **7949**-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi fondagi 6043-inventar raqamli

qo'lyozmaning davomi. Bu qo'lyozma 516 varaq (1032 bet) hajmga ega, o'lchami 17x26,5 sm, sahifadagi yo'llar soni 27ta.

Asar matni mayda nasx xatida yozilgan, matn harakatlantirilmagan. Asarning titul varag'i yo'q. Qo'lyozma Isro surasi tafsirining davomidan boshlangan, ya'ni qo'lyozmaning dastlabki sahifalari – Isro surasi tafsirining boshi yo'q. Keyingi sura, ya'ni Kahf surasidan boshlab Nos surasigacha bo'lgan barcha suralarning to'liq tafsiri mavjud. Suralarning tafsiri jadvalga olinmagan. Tafsir matni qora siyohda berilgan, suralarning nomi, qayerda nozil bo'lganligi, undagi oyatlar soni qizil siyoh bilan ajratib ko'rsatilgan. Hoshiyada qizil va qora siyohda nasx, suls hamda nasta'liq xatlarida yozilgan sharh va izohlar bor. Nusxaning qator sahifalarida qo'lyozma egasining muhri tushirilgan. Har bir varaq poygirlingan.

Qo'lyozmaning so'nggi 516^b varag'ida (1032-bet) mazkur nusxa hijriy 823 \ milodiy 1420-yilda Abdurahmon ibn Abu Bakr tomonidan ko'chirilganligi qayd etilgan.

"Kashshof" asarining yana bir qo'lyozmasi **2423**-inventar raqam ostida saqlanadi. Nusxa 237 varaq (474 bet) hajmga ega, o'lchami 13,5x24 sm, sahifadagi yo'llar soni 31ta. Mazkur qo'lyozma suvga tushib, juda ko'p sahifalariga putur yetgan, matnning ko'plab joylarida siyoh tarqab ketgan, buning natijasida ayrim jumalarni o'qish mumkin emas. Qolaversa, ba'zi sahifalarda matnning qizil siyohda yozilgan qismi anchayin xiralashib, o'qib bo'lmaydigan holatga kelgan. Qo'lyozma bir necha marta ta'mirlangan bo'lishiga qaramay, hozirgi holatida ham ta'mirtalab joylari bor. Qo'lyozma varaqlari raqamlangan, raqam har bir varaq yuqori qismining chap tomoniga qo'yilgan. Sahifalar poygirlanmagan.

Asar matni mayda suls xatida yozilgan, mazkur xat turining xususiyatidan kelib chiqqan holda aksariyat harflar nuqtasiz berilgan, matn harakatlantirilmagan. Asarning titul varag'i yo'q. Qo'lyozma Maryam surasining tafsiri bilan boshlangan. Tafsirning boshida naqshinkor lavh berilib, uning ichiga "Bismillahi-r-rohmoni-r-rohim" deb yozib qo'yilgan. Mazkur qo'lyozmada Maryam surasidan Nos surasigacha bo'lgan suralarning tafsiri berilgan. Suralarning tafsiri jadvalga olinmagan. Tafsir matni qora siyohda berilgan, suralarning nomi tafsir matnidan ajralib turishi uchun biroz yirikroq harflar bilan yozilgan, sura oyatlari esa qizil siyohda ajratib berilgan. Hoshiyada qora siyohda nasx, suls hamda nasta'liq xatlarida yozilgan sharh va izohlar bor.

Qo'lyozma hijriy 759-yilda Ahmad ibn Mahmud Shoshiy tomonidan ko'chirilgan.

11583-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma 318 varaq (636 bet) hajmga ega, o'lchami 18x26 sm, sahifadagi yo'llar soni 25ta. Qo'lyozma bir necha marta ta'mirlangan bo'lishiga qaramay, hozirgi holatida ham ta'mirtalab joylari bor. Qo'lyozma sahifalariga qo'yilgan muhrlar bittalab o'chirib chiqilgan, buning natijasida sahifalar teshilgan, bu joylarning ayrimlari ta'mirlangan, ayrimlari yo'q. Qo'lyozma varaqlari raqamlanmagan, hatto poygirlar ham yo'q.

Asar matni nasx xatida yozilgan, matn harakatlantirilgan. Asarning titul varag'i yo'q. Qo'lyozma Isro surasi tafsirining davomidan boshlangan, ya'ni qo'lyozmaning dastlabki sahifalari – Isro surasi tafsirining boshi yo'q. Keyingi sura, ya'ni Toha surasidan boshlab Nos surasigacha bo'lgan barcha suralarning to'liq tafsiri bor. Suralarning tafsiri jadvalga olinmagan. Tafsir matni qora siyohda berilgan, suralarning nomi va sura boshidagi basmala yirikroq harflar bilan yozilib, tafsir matnidan ajratib berilgan. Ayrim sahifalarning hoshiyasida nasta'liq xatidagi izohlar bor.

Qo'lyozma hijriy 728- yilda Ilyos Ansoriy ibn Qudsiy tomonidan ko'chirilgan.

“Kashshof” asarining **2902**-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi 257 varaq (514 bet) hajmga ega, o'lchami 14,5x22 sm, sahifadagi yo'llar soni 17ta. Qo'lyozma bir necha marta ta'mirlangan bo'lishiga qaramay, hozirgi holatida ham ta'mirtalab joylari bor.

Asar matni yirik nasx xatida yozilgan, matn harakatlantirilgan. Asarning titul varag'i yo'q. Qo'lyozma muqaddimadan boshlangan. Muqaddimadan keyin Fotiha surasining tafsiri boshlangan. Mazkur qo'lyozmada Fotiha, Baqara va Oli Imron suralari tafsir qilingan. Tafsir matni qora siyohda berilgan, suralarning nomi, undagi oyatlar qizil siyoh bilan ajratib ko'rsatilgan. Suralarning tafsiri jadvalga olinmagan. Hoshiyada qizil va qora siyohda tartibsiz yozilgan sharh va izohlar bor. Har bir varaq poygirlangan.

Qo'lyozmaning so'nggi 257^a varag'ining oxirida mazkur nusxa hijriy 745-yilda Abdulloh ibn Umar ibn Abdulaziz tomonidan ko'chirilganligi qayd etib qo'yilgan.

2403-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma 334 varaq (668 bet) hajmga ega, o'lchami 17x28 sm, sahifadagi yo'llar soni 27ta. Qo'lyozmada suv tegib, nuqsonli bo'lgan sahifalar talaygina. Nusxa bir necha marta ta'mirlangan bo'lishiga qaramay, hozirgi holatida ham ta'mirtalab joylari bor.

Asar matni mayda suls xatida yozilgan, mazkur xat turining

xususiyatidan kelib chiqqan holda aksariyat harflar nuqtasiz berilgan, matn harakatlantirilmagan. Asarning titul varag'i yo'q. Qo'lyozma asarning muqaddima qismidan boshlangan. Mazkur qo'lyozmada Fotiha surasidan Anfol surasigacha bo'lgan jami 8ta (Fotiha, Baqara, Oli Imron, Niso, Moida, An'om, A'rof, Anfol) sura tafsir qilingan. Tafsir matni qora siyohda berilgan, suralarning nomi qizil siyoh bilan ajratib ko'rsatilgan. "Kashshof" asarining mazkur nusxasining boshqa nusxalaridan farqi, bu qo'lyozmada suralarning nozil bo'lgan joyi, ulardagi oyatlar soni ko'rsatilmagan. Suralarning tafsiri jadvalga olinmagan. Hoshiyada nasx, nasta'liq va riqo xatlarida tartibsiz kiritilgan sharh va izohlar bor. Ayrim sahifalarda matn qatorlarining orasida ham izohlarni ko'rish mumkin. Qo'lyozma varaqlari raqamlanmagan, sahifalarga poygirlar ham qo'yilmagan. Qo'lyozmaning ko'chirilgan yili va ko'chiruvchisi noma'lum.

"Kashshof" asarining **4464**-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozmasi 197 varaq (394 bet) hajmga ega, o'lchami 16x24 sm, sahifadagi yo'llar soni 23ta. Qo'lyozma ta'mirlanmagan, ta'mirtalab joylari ko'p, sahifalar joyidan chiqib ketgan. Varaqlarning raqamlanmaganligi, ularga poygirlar qo'yilmaganligini hisobga olsak, varaqlar ketma-ketligining buzilib ketish ehtimoli bor. Qo'lyozmaning bir qator sahifalari teshilgan, buning natijasida hoshiyadagi sharh va izohlar yo'qolib ketgan.

Asar matni yirik nasx xatida yozilgan, matn harakatlantirilgan. Asarning titul varag'i yo'q. Suralarning tafsiri jadvalga olinmagan. Tafsir matni qora siyohda berilgan, suralarning nomi, ular nozil bo'lgan joy nomlari, ulardagi oyatlar soni va sura boshidagi basmala yirikroq harflar bilan qizil siyohda yozilib, tafsir matnidan ajratib berilgan. Qo'lyozma sahifalarining hoshiyasida nasta'liq, nasx va riqo xatidagi izoh hamda sharhlarni ko'rish mumkin.

Qo'lyozma hijriy 717 \ milodiy 1317-yilda Qavomiddin Itqoniy tomonidan ko'chirilgan.

4458-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma 259 varaq (518 bet) hajmga ega, o'lchami 18x28 sm, sahifadagi yo'llar soni 27ta. Qo'lyozmada suv tegib, nuqsonli bo'lgan sahifalar bor. Ayrim sahifalarda matnning ma'lum bir qismida yozuv tarqab ketgan. Nusxa bir necha marta ta'mirlangan.

Asar matni nasx xatida yozilgan, matn harakatlantirilgan. Asarning titul varag'i yo'q. Qo'lyozma asarning muqaddima qismidan boshlangan. Mazkur qo'lyozmada 6ta sura (Fotiha, Baqara, Oli Imron, Niso, Moida va An'om) tafsir qilingan. Tafsir matni qora siyohda berilgan, ko'chiruvchi suralarning nomini, ular nozil bo'lgan joyni,

ulardagi oyatlar sonini tafsir matnidan ajratib ko'rsatish uchun biroz yirikroq harflar bilan bergan. Suralarning tafsiri jadvalga olinmagan. Hoshiyada nasx va nasta'liq xatlarida qora va qizil siyohda kiritilgan sharhlar bor. Ayrim sahifalarda qizil siyohda kiritilgan sharh va izohlarning rangi xiralashib, o'qib bo'lmaydigan holatga kelgan. Qo'lyozma varaqlari raqamlanmagan, sahifalarga poygirlar ham qo'yilmagan. Qo'lyozma hijriy 794-yili Muhammad ibn Abu Mufaxir tomonidan ko'chirilgan.

3427-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma 86 varaq (172 bet) hajmga ega. Mazkur qo'lyozma katta o'lchamli bo'lib, 31x38,5 sm, sahifadagi yo'llar soni ham 41ta. Qo'lyozmada suv tegib, nuqsonli bo'lgan sahifalar bor. Ayrim sahifalarda matnning ma'lum bir qismida yozuv tarqab ketgan. Hoshiyalarda tartib bilan husnixatda berilgan sharh va izohlarning ham ko'pgina qismi o'chib ketgan. Nusxa bir necha marta ta'mirlangan.

Asar matni suls xatida yozilgan, matn harakatlantirilgan. Asarning titul varag'i yo'q. Qo'lyozma asarning muqaddima qismidan boshlangan. Muqaddima jadval ichida berilgan bo'lib, boshida lavh bor. Mazkur qo'lyozmada 6 ta sura (Fotiha, Baqara, Oli Imron, Niso, Moida va An'om) tafsir qilingan. Tafsir matni qora siyohda berilgan, ko'chiruvchi suralarning nomini, ular nozil bo'lgan joyni, ulardagi oyatlar sonini tafsir matnidan ajratib ko'rsatish uchun ularni qizil siyohda bergan. Har bir sahifada tafsir matni jadvalga olingan, hoshiyada esa nasx, suls va nasta'liq xatlarida qora siyohda kiritilgan sharh va izohlar bor. Qo'lyozma varaqlari raqamlanmagan, sahifalarga poygirlar ham qo'yilmagan. Qo'lyozmaning ko'chirilgan yili va ko'chiruvchisi ma'lum emas.

"Kashshof" asarining yana bir qo'lyozma nusxasi **6421**-inventar raqam ostida saqlanmoqda. Qo'lyozmaning varaqlari raqamlangan. Har bir varaq yuqori qismining chap tomoniga raqamlar qo'yib chiqilgan. Qo'lyozmaning boshi yo'q. Uning birinchi varag'i 159^a raqami bilan raqamlangan. Shuning o'zi ham qo'lyozmaning boshi yo'qligini ko'rsatadi. Mazkur varaqdan Hud surasi 77-oyatining tafsiri boshlangan. Qo'lyozmaning oxiri ham mavjud emas. 239^a varaqda boshlangan Muzammil surasi tafsirining oxiri yo'q. Qo'lyozmaning so'nggi 242-varag'ining (aslida qo'lyozmaga qo'yilgan raqamlar bo'yicha bu 401-varaq) yarmi yirtilgan. "Kashshof" tafsirining mazkur nusxasida Hud surasidan Muzammil surasigacha bo'lgan jami 12ta suraning tafsiri keltirilgan.

Qo'lyozma jami 242 varaqdan (484 bet) iborat, uning o'lchami 24x32,5 sm, sahifadagi yo'llar soni 41ta.

Qo'lyozma bir necha bor ta'mirlangan bo'lishiga qaramay, hozirgi holatida ham ta'mirtalab joylari bor. Aksariyat sahifalarda suvdan qolgan dog'lar bor. Biroq bu holat tafsir matniga salbiy ta'sir ko'rsatmagan. Tafsir matnini bemalol o'qish mumkin.

Tafsir matni nasx xatida yozilgan, matn harakatlantirilmagan. Suralarning nomi, undagi oyatlar soni va ular nozil bo'lgan joy nomlarini tafsir matnidani ajratib ko'rsatish uchun ko'chiruvchi ularni qizil siyohda yirikroq harflar bilan bergan. Asar matni jadvalga olinmagan. Ayrim sahifalarda hoshiyada sharh va izohlar uchraydi. Qo'lyozmaning titul varag'i va oxiri yo'qligi bois uning ko'chiruvchisi va ko'chirilgan yilini aniqlashning imkoni yo'q.

Asarning yana bir **6450** -inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozmasi 293 varaq (586 bet) hajm, 29x18,5 sm o'lchamga ega. Mazkur jildda "Kashshof" asarining ikkita har xil qo'lyozmasining ma'lum bir qismi jamlangan. Qo'lyozma varaqlari raqamlanmagan, biroq har bir varaq poygirlangan. Qo'lyozma ta'mirlanganda varaqlarning yuqori qismi chap tomoniga qalamda raqamlar qo'yib chiqilgan. Jildda 1^b varaqdan boshlab 61^b varaqqacha "Kashshof"ning nasta'liq xatidagi nusxasi berilgan. Unda asarning muqaddima qismi hamda Fotiha va Baqara suralarining tafsiri keltirilgan. Asarning muqaddima qismi va Fotiha surasining dastlabki suralarining tafsiriga sharh va izohlar berilgan. Sura nomlari tafsir matnidani ajratib ko'rsatilmagan. Sahifadagi yo'llar soni 19ta.

Mazkur jildning 62^a varag'idani boshlab "Kashshof" asarining nasx xatida bitilgan qo'lyozma nusxasining yana bir boshqa qismi boshlangan. Asarning ushbu qismi 231 (62-293) varaq. Unda dastlab A'rof surasi tafsirining so'nggi qismini ko'rish mumkin. Mazkur sura tafsirining boshi yo'q. 97^a varaqdan boshlab Anfol surasining tafsiri boshlangan. Mazkur qo'lyozmada suralarning nomi, ularning nozil bo'lgan joylari va ulardagi oyatlar soni qizil siyoh bilan ajratib ko'rsatilgan. Mazkur qo'lyozmada tafsirlangan oxirgi sura Kahf surasi bo'lib, uning tafsiri 279^b varaqdan boshlangan. Biroq bu sura tafsirining ham oxiri yo'q. Demak, "Kashshof" asarining mazkur qismida jami 11ta suraning tafsiri keltirilgan. Mazkur qo'lyozmada sahifadagi yo'llar soni 25ta. Asar matni harakatlantirilmagan. Ayrim sahifalarni hisobga olmaganda, sharh va izohlar yo'q. Qo'lyozmada suv tegib, nuqsonli bo'lgan sahifalar bor. Ayrim sahifalarda matnning ma'lum bir qismida yozuv tarqab ketgan.

Yuqorida so'z yuritilgan "Kashshof" asarining O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida mavjud 14ta qo'lyozma nusxasi

haqidagi bibliografik ma'lumotlarni yaqqolroq ko'rish uchun quyida berilgan jadvalga murojaat etish mumkin.


1-jadval

“Kashshof” asarining O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi harqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida mavjud qo‘lyozma nusxalarining qisqacha bibliografik ko‘rsatkichlari.

№	Inven- tar raqam	Qo‘lyozma ko‘chiril- gan yili	Xattot ismi	Varaq- lar soni	Qo‘lyozma- ning o‘lchami (sm.da)
1.	1909	837/1433	Muhammad Kozruniy	762	18x26
2.	6048	noma'lum	noma'lum	336	17,5x25,5
3.	7946	1059/1649	Hofiz Solih	478	16x27
4.	6043	823/1420	Abdurahmon ibn Abu Bakr	415	17x26,5
5.	7949	823/1420	Abdurahmon ibn Abu Bakr	516	17x26,5
6.	2423	759/1358	Ahmad ibn Mahmud Shoshiy	237	13,5x24
7.	11583	728/1328	Ilyos Ansoriy ibn Qudsiy	318	18x26
8.	2902	745/1344	Abdulloh ibn Umar ibn Abdulaziz	257	14,5x22
9.	2403	noma'lum	noma'lum	334	17x28
10.	4464	717/1317	Qavomiddin Itqoniy	197	16x24
11.	4458	794/1392	Muhammad ibn Abu Mufaxir	259	18x28
12.	3427	noma'lum	noma'lum	86	31x38,5
13.	6421	noma'lum	noma'lum	242	24x32,5
14.	6450	noma'lum	noma'lum	293	29x18,5

**Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" asarining O'zbekiston
Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida
saqlanayotgan qo'lyozma nusxalaridan lavhalar**


**1-rasm. "Kashshof" asarining 6048-inventar raqam ostida
saqlanayotgan qo'lyozma nusxasining 112^b varag'i. Tafsir matnidan
suralarning nomi, undagi oyatlar soni, oyatlar nozil bo'lgan joyni
ajratib ko'rsatish uchun ular ko'chiruvchi tomonidan qizil siyohda
biroz yirikroq harflar bilan quyidagi tarzda berilgan:**



سورة هود عليه الصلوة و السلام مكية
و هي مائة و ثلاث و عشرون آية

Hud surasi, Makkada nozil bo'lgan, 123 oyatdan iborat.


2-rasm. "Kashshof" asarining 6048-inventar raqam ostida saqlanadigan qo'lyozma nusxasining 149^a varag'i. Mazkur varaqda ham suralarning nomi, undagi oyatlar soni, oyatlar nozil bo'lgan joyni ajratib ko'rsatish uchun ular ko'chiruvchi tomonidan qizil siyohda biroz yirik xat orqali tafsir matnidan ajratib ko'rsatilgan:



سورة يوسف عليه الصلوة و السلام مكية
و هي مائة و احدى عشر آية



Yusuf surasi, Makkada nozil bo'lgan, 111 oyatdan iborat.

3-rasm. "Kashshof" asarining 7946-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasining 228^b varag'i. Mazkur qo'lyozmada ham suralarning nomi, ulardagi oyatlar soni, oyatlar nozil bo'lgan joy ajratib ko'rsatilgan. Biroq ko'rib turganimizdek, unda ko'chiruvchi tomonidan xatolikka yo'l qo'yilgan. Ya'ni ko'chiruvchi tomonidan berilgan quyidagi jumlada "**yuz**" so'zi tushib qolgan va natijada 182 oyatdan iborat Soffot surasi "**82 oyatdan iborat**", deb noto'g'ri berilgan.



سورة الصافات مكية اثني و ثمانون آية

4-rasm. “Kashshof” asarining **6043** inventar raqam ostida saqlanayotgan qo’lyozma nusxasining 1^B varag’i. Asarning titul varag’i yo’q. Qo’lyozma muqaddimadan boshlangan. Muqaddima naqshinkor jadvalda berilgan. Muqaddimadan keyin suralarning tafsiri jadvalga olinmagan.




5-rasm. “Kashshof” asarining **6043** inventar raqam ostida saqlanadigan qo’lyozma nusxasining 150^B varag’i. Mazkur qo’lyozmada ham suralarning nomi, ulardagi oyatlar soni, oyatlar nozil bo’lgan joylar ajratib ko’rsatilgan:

سورة النساء مدنية

و هي مائة و خمس و سبعون آية

Niso surasi, Madinada nozil bo’lgan, 175 oyatdan iborat.



6-rasm. "Kashshof" asarining 4464 inventar raqam ostida saqlanadigan qo'lyozma nusxasining 189^a varag'i. Mazkur qo'lyozmada ham suralarning nomi, ulardagi oyatlar soni, oyatlar nozil bo'lgan joy ajratib ko'rsatilgan:

سورة الفتح مدنية و هي تسع و عشرون آية

Fath surasi, Madinada nozil bo'lgan, 29 oyatdan iborat.

Xulosa

Buyuk alloma Mahmud Zamaxshariyning diniy merosidagi yirik asar hisoblangan Qur'oni karim tafsiri bo'lmish "Kashshof" asarining yuqorida so'z yuritilgan barcha qo'lyozma nusxalari O'zbekiston fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan nodir asarlar sirasiga kiradi. Ularning barchasi bugungi kundagi holatiga ko'ra, ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganish uchun yaroqli holatda. Alloma ilmiy merosidagi bu kabi asarlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish, manbashunoslik jihatidan tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Adaniyotlar

- Brockelmann, C. 1898. *Geschichte der arabischen litteratur*. B.1. Weimar.
- Ibn Xallikon. 1881. *Vafoyotu-l-a'yon va anbo' abno'i-z-zamon*. J.1. Misr.
- Гибб, Х.А.Р. 1960. *Арабская литература. Классический период*. Москва: Восточная литература.
- Oqilov, M. 1982. Mahmud "Zamaxshariy asarlarining qo'lyozma va bosma asarlari". *Adabiy meros*, 4, 57.
- Uvatov, U. 1992. *Nozik iboralar*. Toshkent: Kamalak.
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 1909
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 2403
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 2423
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 2902
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 3427
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 4458
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 4464
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 6043
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 6048
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 6421
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 6450
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №. 7946
- Zamaxshariy. *Kashshof*. Qo'lyozma. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. №.

Nigora Sulaymonova

(Tashkent, Uzbekistan)

nigora_sulaymonova@mail.ru

About Manuscripts of Mahmud Zamakhshari's “Kashshof”

Abstract

This article discusses one of the famous religious works named “Kashshof”, in particular, its manuscript copies (full name – “al-Kashshof fi haqiqi ghavomidi-t-tanzil va uyuni-l -aqovil fi vujuhi-t-ta'vil”) (“The one that opens the eyes of narrations by interpreting the hidden truths of the Quran”) of the great Chorasmian scholar Abul Qasim Mahmud Zamakhshari dedicated to the interpretation of the Holy Quran. Today, fourteen manuscripts of this tafseer (a comentary to the Holy Quran) are kept in the manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. The article analyzes these fourteen manuscripts in detail from the point of view of source studies. The complete bibliographic index of each manuscript is recorded. The manuscripts also contain detailed information about the surahs (chapters in Quran) - how many verses, where they were revealed, how the surah interpretations were given, and the calligraphy of the manuscripts. At the end of the article, photos from the manuscripts of “Kashshof” are attached to give an idea of the manuscripts.

Key words: *Khorezm scholar, Mahmud Zamakhshari, commentator, Kashshof, commentary, Holy Quran, manuscript, source analysis, bibliographic index.*

About the author: *Nigora Sulaymonova* – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Tashkent state University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

Recommended citation: Sulaymonova, Nigora. 2020. “About Manuscripts of Mahmud Zamakhshari's “Kashshof”. *Golden Scripts* 4: 78—97.

References

- Brockelmann, C. 1898. Geschichte der arabischen litteratur. B.1. Weimar.
- Ibn Xallikon. 1881. Vafoyotu-l-a'yon and anbo abnoi-z-zamon. V.1. Egypt.
- Gibb, X.A.R. 1960. Arabskaya literatura. Klassicheskiy period. Moscow: Vostochnaya literature.
- Oqilov, M. 1982. Mahmud "Zamaxshariy asarlarining qo'lyozma va bosma asarlari". Adabiy meros, 4, 57.
- Uvatov, U. 1992. Nozik iboralar. Tashkent: Kamalak.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 1909.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 2403.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 2423.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 2902.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 3427.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 4458.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 4464.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 6043.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 6048.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 6421.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 6450.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 7946.
- Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy

of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 7949.

Zamakhshari. Kashshof. Manuscript. The manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Inv. №. 11583.

Bahriddin Umurzoqov

(Toshkent, O'zbekiston)

bahrumr_nur@mail.ru

“Rashahot aynu-l-hayot” asarining Turkiya fondlaridagi nusxalari ilmiy tavsifi va tekstologik tadqiqi

Abstrakt

Ushbu maqola XVI asrda yashab, o'zidan boy ilmiy meros qoldirgan yetuk manoqibnavis va tazkiranavis olim Faxruddin Aliy Safiy ibn Husayn Voiz Koshifiy Hiraviy (1463 – 1533) qalamiga mansub “Rashahot aynu-l-hayot” (Hayot bulog'i tomchilari) asari nodir qo'lyozma nusxalari tavsifi va tadqiqiga bag'ishlangan.

“Rashahot” asarining eng qadimiy va bexato kitobat qilingan nusxasi qayerda saqlanadi? Nima uchun asarning tanqidiy matni bilan yangi topilgan muallif dastxati nusxasi orasida ulkan tafovut, farqlar mavjud? Mazkur asarning yangi tanqidiy matni yoki qiyosiy-yig'ma matnini tuzish qanchalik muhim? Bir asarning turli xil diyorlarda ko'chirilgan matnlarida nima sababdan farqlar kuzatiladi? Maqolada ana shu xususlarda so'z boradi. Shuningdek, maqolada “Rashahot”ning Turkiya fondlarida mavjud nodir nusxalari, ularning soni, tavsiflari va Toshkentdagi nodir nusxasi bilan qiyosiy-tekstologik tadqiqi misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *“Rashahot aynu-l-hayot”, manoqib, “Rashahot”ning Süleymaniye (Turkiya) nusxalari, tavsif, muallif dastxati nusxasi, matnning qiyosiy-tekstologik tadqiqi.*

Muallif haqida: *Bahriddin Umurzoqov* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Umurzoqov, Bahriddin. 2020. “Rashahot aynu-l-hayot” asarining Turkiya fondlaridagi nusxalari ilmiy tavsifi va tekstologik tadqiqi”. *Oltin bitiglar* 4: 98—121.

Kirish

Mumtoz adabiyotimiz oʻziga xos badiiyat, gʻoyat teran mazmun-mohiyat, ulugʻvor maʼrifat va kuchli taʼsirga ega. Bu adabiyotning deyarli barcha durdona asarlari, avvalo, sogʻlom ishonch-eʼtiqod, soʻngra pokdomonlik, yuksak insoniy fazilatlarining samarasi, ulugʻ isteʼdodlarning ijobiy musobaqalari va taʼsirlari natijasida oʻlaroq paydo boʻlgan. Mana shu sababdan mumtoz adabiyotimizning bebaho asarlariga qiziqish soʻnggi yuz yillikda ortib bormoqda.

Jahon madaniyati va fani taraqqiyotiga oʻz ijodi bilan ulkan hissa qoʻshgan ijodkorlardan biri Faxruddin Aliy Safiy bin Husayn Voiz Koshifiy (vaf. 939/1532)dir. Uning ijodi dunyoviy va diniy ilmlarning turli sohalarini qamrab olgani bilan ahamiyatli. Faxruddin Aliy Safiy asarlari, xususan, “Rashahot aynu-l-hayot” (“Hayot bulogʻi tomchilari”)da¹ ajdodlarimiz ilmiy merosi orqali yuksak fazilatlarga ega boʻlgan insonni tarbiyalash, yoshlarni sogʻlom tafakkur va ezig axloqqa targʻib qilish gʻoyalari oʻz ifodasini topgan. Shu nuqtayi nazardan, shoir va olimning tasavvufiy mavzuni qanday, qaysi manbalar asosida yoritgani, eʼtiqodining asosini, ichki dunyosi mazmun-mohiyatini uning badiiy va diniy asarlari asosida ochib berish dolzarbdir. Buning uchun, avvalo, ijodkorning shoh asari hisoblangan “Rashahot”ning nodir nusxalarining matniy tadqiqi gʻoyatda muhim.

Asosiy qism

Oʻrta Osiyoda, yana ham aniqroq aytganda, Xurosonda bundan besh yuz sakson yetti yil muqaddam (1430-y.) “ilm-u maʼrifatga ragʻbati kuchli temuriyzoda, dovyurak hukmdor” [Аким-мушкин 1996, 99-100] Boysungʻur mirzo kutubxonasida “qoʻlyozma nusxaning yigʻma ishlarini olib borilishi natijasida” [Муродов 1971, 51]², Firdavsiy “Shohnoma”sining turli qoʻlyozma nusxalari toʻplanib, mazkur asar birinchi bor toʻliq va mukammal nusxada koʻchirildi. Adabiyot tarixida ushbu nusxa, “Boysungʻur muqaddimasi” nomi bilan mashhurdir” [Сирожибдинов, Умарова 2015, 35].

Bugungi kunga kelib oldimizda “Rashahot aynu-l-hayot”

¹ Bundan keyin “Rashahot” tarzida.

² Shohruh mirzoning oʻgʻli, ayni vaqtda uning vaziri. U nihoyatda noziktaʼb, adabiyot va sanʼat muxlisi, hunar ahlining jonkuyar homiysi boʻlgan. Boysungʻur mirzo sheʼr va xatda oʻz davrining eng mashhur kishisi edi. (Batafsil maʼlumot olish uchun qarang: Муродов, А. 1971. *Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан*. Тошкент: Фан, 51.)

(“Hayot bulog’i tomchilari”) asarining muallif dastxati nusxasi hamda ana shunday turli nodir qo’lyozma nusxalari asosida yagona, mukammal, to’liq, bexato qiyosiy-yig’ma matnini tuzish vazifasi turibdi. Chunki, yuqorida aytilanidek, “Rashahot”ning oxirgi to’rt yuz yil mobaynida kitobat qilingan barcha qo’lyozmalarida va bu qo’lyozmalar asos bo’lgan barcha toshbosma va litografik nashrlarida talaygina xatoliklar, chalkash o’rinlar uchraydi. Bu holat asardagi xojagon tariqati mashoyixiga doir ma’lumotlar bayonida, asardagi joy va shaxs nomlarida ko’proq namoyon bo’ladi. Bu esa mazkur asar ustida chuqur tadqiqot olib borishga to’sqinlik qiladi, hattoki adabiy manbashunoslarga bu borada katta qiyinchiliklar tug’diradi. “Rashahot”ning yangi ilmiy-tanqidiy yoki yig’ma-qiyosiy matnigina mazkur asar matni bilan bog’liq barcha muammolarni bartaraf etishi mumkin. “Rashahot” asarining yangi tanqidiy matnini tuzish, deyapmiz. Darhaqiqat, shunday deyishimizga arziqli muhim sabab bor. Ma’lumki, “Rashahot”ning Tehronda nashr etilgan tanqidiy matni ma’lum va mashhur [Mu’iyniyon 1977]. Ammo bu nashr “Rashahot”ning Angliya qo’lyozma fondida saqlanayotgan nusxasini Eron qo’lyozma nusxalariga qiyoslagan holda amalga oshirilgan va shu boisdan ham mazkur nashr matni dunyoning boshqa kutubxonalarida, xususan, yurtimiz fondlarida mavjud bo’lgan “Rashahot”ning qadimiy, nodir nusxalari matnidan jiddiy farq qiladi. Bu xususda biz maxsus ilmiy maqolamizda batafsil so’z yuritganmiz [Умурзоқов 2018, 41 – 44].

Bir asarning turli xil diyorlarda ko’chirilgan matnlarida nima sababdan farqlar mavjud? Kotiblarning saviyasi har xil bo’lishi tabiiy. Ammo buyurtmachining bunga befarq bo’lishi mumkin emas. Bexato va asliyatga sodiq qolingani holda asarni kitobat qilish shart qilingani aniq. Bizningcha, bu holat “Boysunqur mirzo tajribasi” urf bo’lmagani va yo umuman, qo’llanilmagani yoki bu xususga e’tiborsiz bo’lingani bilan izohlanadi.

Istanbul (Turkiya) qo’lyozma fondlarida ham “Rashahot” asarining turli davrlarda kitobat qilingan qo’lyozma nusxalari mavjud.

Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq etishga harakat qilgan turkiyalik manbashunos olim prof. N.To’sun o’z tadqiqodida Istanbuldagi Süleymaniye kutubxonasida mavjud bo’lgan “Rashahot” asarining ikkita nusxasidan istifoda etgani aytgan [Tosun 2012, 234].

Süleymaniye kutubxonasi elektron-fihristida “Rashahot” asari qo’lyozma nusxalari jami 8 ta ekanligi qayd etilgan. Bular

quyidagilar:

1. AYASOFYA 1823;
2. CARULLAH 1011;
3. CARULLAH 1012;
4. DUGUMLUBABA 294;
5. DUGUMLUBABA 523-M23;
6. HACIMAHMUD EFENDI 2909;
7. HAMIDIYE 649;
8. HEKIMOGLU 750.

“Rashahot” asarining Süleymaniye (Turkiya, Istanbul) kutubxonasida AYASOFYA 1823 raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma nusxasi. Bu qo’lyozma nusxa hajmi 21,5x13,5 sm. U jami 211 varaqdan (422 sahifa)dan iborat. Muqovasi charm va kartondan yasalgan. Qo’lyozma qog’ozi sifatli tut qog’ozi, och pushti rangda. Bu qog’oz diyorumizda keng ishlatilib kelingan Samarqand va Qo’qon qog’ozlaridan biroz farq qiladi. Qo’lyozmaning har bir sahifasiga nasta’liq xatida 20 qator matn joylashtirilgan. Qo’lyozma kotibi noma’lum, nusxa avvalidagi *“Vaqf-i Xodim-i Haramayn Sulton ibn sulton Mahmud-xon...”* qaydiga ko’ra qo’lyozma vaqf qilingan. Kitobat tarixi qo’lyozma kolofonida yozilgan, shunga ko’ra ushbu qo’lyozmaning *982-sanada Shavval oyining 10-kuni* yozib tamomlanganini bilish mumkin. Qo’lyozma tarixi yozilgan bo’lishiga qaramay, afsuski, kotibi haqida hech qanday ma’lumot yo’q. Qo’lyozmaning ichki sahifasiga yumaloq shakldagi muhr bosilgan bo’lib, unda *«Turkiye Yazma Eserler Kurumu»* so’zlari bitilgan. Bu nusxa muqovasi restavratsiya qilingan ko’rinadi. Muqova charm va qizg’ish-jigarrangda. Muqovaning ichki oldi qismida *“Kitob-i “Rashahot” li-Husayn al-Vo’iz”* so’zlari yozilgan. Keyingi sahifada *“Kitob-i “Rashahot” fiy ta’liyfot-i farzand-i arjumand-i Xoja Husayn Koshifiy”* degan yozuv bor. Quyirog’ida usmonli amaldorlariga tegishli yumaloq muhr, *“Basmala»* mustasno, xira bo’lgani uchun muhrdagi yozuvni o’qishning iloji bo’lmadi. Shundan so’ng 6 qator qayd bor, unda *“In vaqf-i Sulton ibn Sulton Mahmud-xon....”* degan yozuvlarni o’qish mumkin. So’ng yana bir muhr bosilgan, u yuqoridagi muhrdan farq qiladi, kichikroq va bodom shaklida.

“Rashahot” asarining matni 3^b sahifadan boshlangan. Matn qora qalamda jadvallarga olingan. Sahifaning yuqori qismidagi jadval chiroyli unvon bilan bezalgan. Unda asosan tilla va zangori ranglar ko’zga tashlanadi. Shu jadval ostida *رب يسر بسم الله الرحمن الرحيم* *basmla va qo’lyozmaning ko’chirilishini xayrli tugallanishi* *تم بخير* *Yaratgandan so’ralgan mazmundagi duo keltirilgan.*

Shundan so'ng qo'lyozma matni quyidagi arabiy jumlar bilan boshlangan:

الحمد لمن رشح رشحات الحقائق و الحكم على قلوب العارفين بفيضه الأقدس الأقدم و
الصلوة على مظهر الأتم و مظهر أوتيت جوامع الكلم ليكمل بها طوائف الأمم و السلام على آله
و أصحابه مفاتيح الكرم و مصابيح الظلم أما بعد¹---

1- va 2-varaqlarda poygir yo'q, ammo sahifaning yuqorisida chap tomonida 1, 2, 3 arabiy raqam qo'yilgan. Ammo 3^b sahifadan boshlab yana poygir mavjud. 3^b sahifada poygirda "مق" so'zi yozilgan bo'lib, keyingi 4^a sahifadagi matn ham shu so'z bilan boshlangan. Kotib noma'lum sabablarga ko'ra, qo'lyozmaning 1- va 2-varaqlariga poygir qo'ymagan.

Endi ushbu qo'lyozma nusxaning matnini Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 33/II qo'lyozma nusxa bilan solishtirib, uning kitobat saviyasini qiyosiy tadqiq qilsak. Süleymaniye nusxasining boshlanish qismida birinchi farqni ko'ramiz. 33/II raqamli qo'lyozma nusxa بسم الله الرحمن الرحيم bilan boshlangan. "Basmala"dan oldin va keyin Süleymaniye AYASOFYA 1823 nusxasidagi رب يسر va تم بخير so'zlari 33/II qo'lyozma nusxada mavjud emas.

Süleymaniye nusxasining 9^a sahifasida 33/II raqamli qo'lyozma nusxadan farqli o'laroq, "المين بابا" "o'rniga" "ايلامان بابا", yozilgan.

Navbatdagi farq 33/II nusxada "سيمعاني در انساب" so'zi bu nusxada اشباب shaklida yozilgan, ya'ni 33/II nusxada "Sim'oniy", Süleymaniye AYASOFYA 1823 nusxasida esa "Sam'oniy" shaklida, 33/II nusxada "Ansob", Süleymaniye AYASOFYA 1823 nusxasida esa bu so'z "Assob" shaklida xato yozilgan.

Bu qo'lyozma nusxani O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi fondi (O'zRFA DAM) fondidagi 33/II raqamli qo'lyozma nusxa bilan solishtirish natijalarini quyidagi qiyosiy jadval orqali ko'rsatib berishni lozim topdik. Unda asar "Muqaddima"sida so'zlarning yozilishida quyidagi farqlar bor:

¹ "Ammo ba'd" iborasi qo'lyozmada qizil rangda.

DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye AYASOFYA Qo'lyozma №1823	DAM Qo'lyozma № 33/II	Süleymaniye AYASOFYA Qo'lyozma №1823
على قلوب العارفين بفيضه	على قلوب بفيضه	و ملازمان آن دولة خانه دست داد و در خلال مجالس	و ملازمان آن دولة خانه دست داد و مجالس

“Rashahot” matni 3^b sahifada:

DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye AYASOFYA Qo'lyozma №1823	DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye AYASOFYA Qo'lyozma №1823
و اخلاق و اطوار حضرت ايشان و ابتدای سفر	و اخلاق و اطوار حضرت و ابتدای سفر	مراد حضرت ولايت بناهی عبيداللهی بود قدس الله تعالى سره و اعلى ذكره	مراد حضرت ولايت بناهی عبيداللهی بود قدس الله تعالى ارواحهم و هر جا از معارف و حقایق

DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye AYASOFYA Qo'lyozma №1823	DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye AYASOFYA Qo'lyozma №1823
و تاریخ ولادت آنحضرت و احوال ایام صبا و شماء از شمایل	و تاریخ ولادت آنحضرت و احوال ایام صباب و شماء از شمایل	و اخلاق و اطوار حضرت ايشان و ابتدای	و اخلاق و اطوار حضرت و ابتدای

“Rashahot” asarining Turkiyaning Süleymaniye kutubxonasida AYASOFYA 1823-raqami ostida saqlanib kelayotgan qo'lyozma nusxasini qiyosiy-tekstologik jihatdan tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Bu qo'lyozma nusxa Adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondida saqlanib kelayotgan 33/II raqamli nusxadan keyin o'zining qadimiyligi va nazarimizda qo'lyozmaning usmonli hukmdorlaridan Sulton Mahmudxonning buyurtmasiga va vaqf qilganiga ko'ra, asardan Xojagon tariqati asoslarini va mashoyixi hayoti va faoliyatini chuqurroq o'rganish maqsadida kitobat qilingan ko'rinadi. Bu qo'lyozma nusxaning o'ziga xosligi, afsuski, uning kotibi

noma'lum, qo'lyozmaning go'zal husnixat bilan ancha savodli kitobat qilinganligidir.

2. Süleymaniye kutubxonasida qo'lyozma nusxasining barcha sahifalari to'liq tartib bilan boshdan oxirigacha raqamlab chiqilgan, ilk ikki sahifasi mustasno, qolgan sahifalardagi poygirlar ham navbatdagi sahifalardan to'liq o'rin olgan.

3. "Rashahot" asarining Süleymaniye kutubxonasidagi *AYASOFYA 1823* raqami ostida saqlanib kelayotgan qo'lyozma nusxasi va Adabiyot muzeyidagi 33/II raqamli qo'lyozma nusxalari matnini qiyosiy-tekstologik tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, har ikkala nusxa matni asosan ayrim kichik farqlar e'tiborga olinmaganda, bir-birlariga monand, sarlavhalarining aksariyati aynan, asosiy matndan ajratilgan holda surx siyoh bilan go'zal qilib ko'chirilgan. Qur'oniy iqtibos va duolar matnlarining zer-u zabarlari qo'yilgan. Ular aniq o'qiladi. Lekin shunga qaramay, Süleymaniye nusxasining bir-ikki joyida tushib qolgan jumlar ham yo'q emas.

4. O'z navbatida Süleymaniye nusxasi "Rashahot"ning toshbosma nusxalarida ayrim o'rinlarda yo'l qo'yilgan kam-ko'stlarni bartaraf qilishda asosiy ishonchli manba sifatida xizmat qilishi tabiiy.

5. Bu qo'lyozma nusxaning Adabiyot muzeyida saqlanib kelayotgan 33/II raqamli qo'lyozma nusxa bilan solishtirish jara-yonida shunday xulosaga kelish mumkin: bu nusxa hozircha bizga noma'lum bo'lgan boshqa bir mo'tabar "Rashahot"ning qo'lyozma nusxasidan ko'chirilgan bo'lishi kerak. Chunki har ikkala nusxadagi tafovutlar va bir-birini to'ldiradigan joylarning uchrab turishi shunday xulosa qilishga asos bo'la oladi.

6. Süleymaniye kutubxonasida *AYASOFYA 1823*-raqami ostida saqlanib kelayotgan bu qo'lyozma nusxani Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida 33/II raqami ostida saqlanayotgan nusxadan keyin asosiy manba vazifasini o'tashga loyiq nusxa deb hisoblash mumkin.

"Rashahot" asarining Süleymaniye (Turkiya, Istanbul) kutubxonasida CARULLAH 1011-raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi. Bu qo'lyozma nusxa hajmi 21,5x13,5 sm. Kitob jami 285 varaq (570 sahifa). Muqovasi kartondan yasalgan. Qo'lyozma qog'ozi sifatli tut qog'ozi, sariq rangda.

Qo'lyozmaning ichki sahifasiga turli shakldagi katta va kichik jami beshta muhr bosilgan bo'lib, ulardan uchta qadimiy bo'lib, ular shaxsiy muhrlardir, bittasi zamonaviy muhr va unga "Turkiye Yazma Eserler Kurumu" so'zlari bitilgan. Muqovaning ichki qismida qaydlar mavjud. Yuqori tarafida *"Kitob-i "Rashahot" forsiyyah fiy*

manoqib al-mashoyix an-naqshbandiyya qaddasa-llohu asrorahum” soʻzlari yozilgan. Quyirogʻida usmonli amaldorlariga tegishli uchta bodom shaklida yumaloq kichik muhr, xira boʻlgani uchun ham kichik muhrlardagi yozuvlarni oʻqishning iloji yoʻq. Ammo katta muhr yozuvni oʻqisa boʻladi, unda quyidagilar yozilgan: *“Hazo kitob Abdulloh vaqf li-lloh..”* Bu muhrdagi ushbu qaydga koʻra qoʻlyozma vaqf¹ qilingan boʻlgan. Demak, keyinchalik Süleymaniye kutubxonasi mulkiga aylangan.

Asar matni 4^b sahifadan boshlangan. Qoʻlyozmada ilk poygir bu quyidagi soʻzdir:

و دقایق

Nastaʼliq xatida asar matni boshlangan sahifaga 15 qator, qolgan har bir sahifaga 17 qatordan matn joylashtirilgan. 284^a sahifadagi kolofondagi qaydga koʻra, qoʻlyozma kotibi Ibn Abu-l-makorim Saʼdulloh Buxoriy:

وفقت باتمام كتابة هذا الكتاب المرسوم بالرشحات المنفجرة من عين الحياة بعون الله تعالى و حسن توفيقه و انا اضعف عبادالله ابن ابو المكارم سعدالله البخارى فى خامس شهر ذى الحجة الحرام سنة ٢٩٩ تم بالخير

Kolofon pastiga kattakon muhr urilgan. Unda yuqorida aytib oʻtganimiz *“Hazo kitob Abdulloh vaqf li-lloh...”* soʻzlari oʻz ifodasini topgan.

Kitobat tarixi qoʻlyozmaning kolofonida yozilgan, unga koʻra ushbu qoʻlyozma 992-sanada *Zu-l-hijja* (1584, dekabr) oyida yozib tamomlangan.

“Rashahot” asarining matni 5^b sahifadan boshlangan. Ammo bu sahifa navbatdagi sahifaning oddiy qalam bilan 2 deb belgilanganiga qaraganda, qoʻlyozmaning 1^b sahifasi hisoblanadi. Matn hech qanday jadvallarga olinmagan. Unda unvon ham yoʻq.

Qoʻlyozma matni “Basmala”siz boʻlib, quyidagi arabiy jumlar bilan boshlangan:

الحمد لمن رشّ رشحات الحقائق و الحكم على قلوب العارفين بفيضه الأقدس الأقدم و الصلوة على مظهر الأتم و مظهر أوتيت جوامع الكلم ليكمل بها طوائف الأمم و السلام على آله و أصحابه مفاتيح الكرم و مصابيح الظلم أما بعد----

1 *Vaqf* – masjid, madrasa, xonaqoh, solihlar, yaʼni valiy zotlarning mozarotlari, tolibi ilmlar va boshqa shu kabilarning taʼminoti uchun yuqori mansabdorlar, olimlar, fozillar tomonidan Alloh taʼolo roziligi yoʻlida, savob umidida xatlab-belgilab qoʻyilgan daromadli yerlar, xoʻjalik binolari, mol-mulklar, kitoblar va h. narsalar.

“Ammo ba’d!” iborasi Süleymaniye *CARULLAH 1011* nusxasida ham 33/II raqamli qo’lyozma nusxadagi kabi surx (qizil) rangda yozilgan. Bu holat “Rashahot” muallif nusxasidagi ba’zi belgilarning asarning keyingi davrlarda kitobat qilingan aksariyat nusxalarida asliyatga mos qilib ko’chirishga harakat qilinganiga dalolat qiladi.

Süleymaniye *CARULLAH 1011* nusxasi 1^b sahifadan poygirli, 2^a sahifaning yuqorisida chap tomonida yirik qilib 2 raqami qo’yilgan.

1^b va 2^a sahifalarda “Rashahot” fihristi katak-jadval ichiga quyidagi tartibda, ya’ni oldin bob nomi so’ng esa surx rangda sahifa raqami yozilgan, biz mazkur sahifa raqamlarini qavs ichida ko’rsatdik:

فهرست رشحات مقاله و سه مقاصد و خاتمه (۳)، مقاله در ذکر طبقات خواجهان نقشبندیه (۳)، مقصد اول در ذکر ابا و اجداد و اقرباء و تاریخ ولادت آنحضرت (۳)، مقصد دوم در ذکر بعضی از حقایق و معارف و دقائق و لطایف (۴)، مقصد سیم در ذکر بعضی از تصرفات عجیبه و امور غریبه که بطریق خرق عادت از آنحضرت ظاهر شده (۴)، خاتمه در ذکر تاریخ وفات حضرت ایشان و کفایت انتقال و ارتحال آنحضرت از دار دنیا بدار آخرت (۴)، خواجه یوسف همدانی (۵)، خواجه عبد الله برقی (۵)، خواجه حسن انداکی (۶)، خواجه احمد یسوی (۷)، منصور اتا (۷)، خواجه عبدالملک (۷)، تاج خواجه (۸)، سعید اتا (۸)، صوفی محمد دانشمند (۸)، حکیم اتا (۸)، زکی اتا ۸ اوزن حسن اتا (۹)، سید اتا (۱۰)، اسماعیل اتا (۱۰)، اسحاق خواجه (۱۱)، صدر اتا و بدر اتا (۱۱)، ایمن بابا (۲۱)، علی شیخ (۲۱)، کمال شیخ (۲۱)، خادم شیخ (۲۱)، خواجه عبدالخالق (۳۱)-----

va hokazo.

DAM nusxasi “Rashahot” fihristi bilan Istanbul Süleymaniye kutubxonasi *CARULLAH 1011*-raqami bilan saqlanayotgan qo’lyozma nusxasidagi “Rashahot” fihristi qiyosi quyidagichadir:

DAM Qo’lyozma №33/II	Süleymaniye <i>CARULLAH</i> Qo’lyozma №1011	DAM Qo’lyozma №33/II	Süleymaniye <i>CARULLAH</i> Qo’lyozma №1011
-	فهرست رشحات مقاله و سه مقاصد و خاتمه ۳	- -	<i>Fihrist-i Rashahot</i> <i>Maqola va seh Maqosid</i> <i>va</i> <i>Xotima 3</i>
-	مقاله در ذکر طبقات خواجهان نقشبندیه ۳	- - -	<i>Maqola dar zikr-i</i> <i>tabaqot-i X’ojagon</i> <i>naqshbandiyya 3</i>

- - -	و تأريخ ولادت آنحضرت و احوال أيام صباب و شماء از شمایل و اخلاق و اطوار حضرت و ابتدای	- - -	<i>Va tariyxi valodat-i on-hazrat va ahvol-i ayyom-i sabob va shamma-i az shamoyil va axloq va atvor-i hazrat va ibtidoyi</i>
- - -	مقصد أول در ذکر ابا و اجداد و اقرباء و تاریخ ولادت آنحضرت ۳	- - -	<i>Maqsad-i avval dar zikr-i obo va ajdod va aqrabo va tariyx-i valodat-i on-Hazrat 3</i>
- - -	مقصد دوم در ذکر بعضی از حقایق و معارف و دقائق و لطایف	- - -	<i>Maqsad-i duvvum dar zikr-i ba'zi az haqoyiq va ma'orif va daqoyiq va latoyif</i>
- - - -	مقصد سیم در ذکر بعضی از تصرفات عجیبه و امور غریبه که بطریق خرق عادت از آنحضرت ظاهر شده	- - - -	<i>Maqsad-i seyyum dar zikr-i ba'zi az tasarrufot-i ajiyba va umur-i g'ariyba ki ba- tariyq-i xarq-i odat az on-hazrat zohir shuda</i>
- - -	خاتمه در ذکر تاریخ وفات حضرت ایشان و کبفیت انتقال و ارتحال آنحضرت از دار دنیا بدار آخرت	- - -	<i>Xotima dar zikr-i tariyx-i vafot-i Hazrat-i Əshon va kayfiyyat-i intiqol va irtihol-i on- hazrat az dor-i dunyo ba-dor-i oxirat</i>
- بسم الله الرحمن الرحيم حضرت قطب الاوليا خواجه يوسف همداني	خواجه يوسف همدانی ۵	- Basmala Hazrat qutbu- l-avliyo Xoja Yusuf Hamadoni	<i>Xoja Yusuf Hamadoni</i> 5

Ko'rib turganimizdek, DAM nusxasi “Rashahot” fihristi bilan Istanbul Süleymaniye kutubxonasi CARULLAH 1011 raqamli qo'lyozma nusxasi “Rashahot” fihristi “Xoja Yusuf Hamadoni”ga

kelgandagina o'zaro mos tushgan va shundan so'ng yana bir-biriga muvofiq shaklda davom etgan.

Endi ushbu Süleymaniye *CARULLAH 1011* qo'lyozma nusxaning matnini Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 33/II qo'lyozma nusxa bilan solishtirib, uning kitobat saviyasini qiyosiy tadqiq qilib chiqamiz.

CARULLAH 1011 nusxasining boshlanish qismida birinchi farqni ko'ramiz. 33/II raqamli qo'lyozma nusxa مېحرلانىمحرلادىنمىسب bilan boshlangan. Süleymaniye *CARULLAH 1011* nusxasi esa aksincha "Basmala" siz boshlangan.

CARULLAH 1011 nusxasining 1^b sahifasida 33/II raqamli qo'lyozma nusxadan farqli o'laroq, "مىللىلۇق تەبىئىيەت" o'rniga [O'zRFA DAM №33/II, 1^b] "مىللىلۇق تەبىئىيەت" yozilgan.

Shu o'rinda, muhim bir masalaga e'tibor qaratsak. O'zbek manbahunosligida muallifning dastxati sifatida qo'lyozmalarda satrning ust qismida va yoki ostida hamda hoshiyasida tahririy islohlari (tuzatishlar) borligi ta'kidlanadi [Ғанихўжаев 1999, 149]. Biz bu kuzatuvni to'g'ri, deb hisoblaymiz. Chunki tadqiqot asnosida malakali tadqiqotchida matn va tuzatishlarning bir xil dastxat ekanligiga shubha uyg'onmasa va tuzatishlar, haqiqatan, matndagi xatoliklar va yo jumla mazmuniga putur yetkazishni tuzatayotgan bo'lsa, demak, bu kabi jiddiy tahririy tuzatishlar bevosita muallifga tegishli bo'ladi. Biz №33/II raqamli qo'lyozma nusxada ana shunday holatni kuzatdik. Adabiyotshunos olimimiz tomonidan to'g'ri ta'kidlanganidek, bunday tuzatishlar kotib nusxasi ustidan qilingan tuzatishlarga qaraganda, oddiyligi va ko'pligi bilan yaqqol farqlanib turadi [Шодмонов 2009, 151]. Ammo kotibning asar matniga daxl qilishi hodisasi esa yana ham jiddiy holatdir. Bunga yuqorida biz qiyosan keltirayotgan matnga ilova qilingan so'z (ba'zan iboralar ham) misol bo'ladi. To'g'ri, bu kabi ilova matn mazmuniga zarar bermasligi mumkin, ammo muallif qalamiga mansub jumlagi so'z va yo ibora qo'shish bora-bora asar matnining o'zgarishiga, bu yesa shu jumla orqali muallif o'zi nazarda tutgan ma'no va mazmunning o'zgarishiga sabab bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu yerda diqqat qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masala muallif qalamiga yaqin bo'lgan asar matniga kotib tomonidan qilingan har qanday o'zgartirishning keyinchalik shu nusxa asosida asarning boshqa bir nusxasining kitobat qilinishi va bu o'zgarishlardan ikkinchi kotibning bexabar qolishi va hatto u ham shunday yo'l tutishi mumkinligidir. U holda muallif qalamiga tegishli asar matni bora-bora jiddiy o'zgarishga yuz tutadi. Demak, muallif matniga yaqin ilmiy-tanqidiy matnga har

doim zarurat tug‘ilaveradi. Afsuski, oxirgi vaqtda matnshunoslik va manbashunoslikda bu xususga beparvolik kuzatilmoqda. Bugungi kunda matnshunoslikni jonlantirish har qachongidan dolzarb bo‘lib qoldi, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Muallif matniga kotib ilovasiga misolni yuqorida ko‘rdik. Endi muallif matnidan so‘z va yo ibora, ba‘zan jumlaning qoldirib ketilishi hodisasi ham qo‘lyozmalarda oz bo‘lsa-da uchraydigan holat. Masalan, Süleymaniye nusxasining boshlanish qismida ana shunday holatni ko‘rish mumkin: 33/II raqamli qo‘lyozma nusxa على قلوب العارفين بفيضه bilan boshlangan. “Basmala”dan oldin va keyin Süleymaniye AYASOFYA 1823 nusxasidagi ريخ بمت رسي بر va so‘zlari muallif dastxati 33/II qo‘lyozma nusxada mavjud emas. 33/II raqamli qo‘lyozma nusxa على قلوب العارفين بفيضه bilan boshlangan. Süleymaniye CARULLAH 1011 nusxasi esa aksincha “Basmala”siz boshlangan.

Bu qo‘lyozma nusxani O‘zRFA DAM fondidagi 33/II raqamli qo‘lyozma nusxa bilan solishtirish natijalarini quyidagi qiyosiy jadval orqali ko‘rsatib berishni lozim topdik. Unda asar “Muqaddima”sida so‘zlarning yozilishida quyidagi farqlar bor:

DAM Qo‘lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo‘lyozma №1011	DAM Qo‘lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo‘lyozma №1011
<u>على قلوب العارفين بفيضه</u>	<u>على قلوب بفيضه</u>	و ملازمان آن دولة خانه دست داد و در خلال مجالس	و ملازمان آن دولة خانه دست داد و مجالس

“Rashahot” matnining “Muqaddima” qismi – 3^b sahifada:

DAM Qo‘lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo‘lyozma №1011	DAM Qo‘lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo‘lyozma №1011
و اخلاق و اطوار <u>حضرت ایشان و</u> <u>ابتدای سفر</u>	و اخلاق و اطوار <u>حضرت و ابتدای</u> <u>سفر</u>	مراد حضرت ولایت بناهی عبیداللهی بود قدس الله تعالی سره و اعلی ذکره و هر جا از معارف و حقایق	مراد حضرت ولایت بناهی عبیداللهی بود قدس الله تعالی ارواحهم و هر جا از معارف و حقایق

“Rashahot” asarining Turkiyaning Süleymaniye kutubxonasida *CARULLAH 1011* raqami ostida saqlanib kelayotgan qo'lyozma nusxasini qiyosiy-tekstologik jihatdan tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Bu qo'lyozma nusxa ham Adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondida saqlanib kelayotgan 33/II raqamli nusxadan keyin o'zining qadimiyligi bilan katta ahamiyatga ega. Qo'lyozma Abdulloh ismli shaxs tomonidan vaqf qilingan. Bu qo'lyozma nusxaning o'ziga xosligi uning nasta'liqda go'zal husnixat bilan ancha savodli kitobat qilinganidir Kolofondagi qaydga ko'ra kotibi Ibn Abulmakorim Sa'dulloh Buxoriydir.

2. Süleymaniye kutubxonasidagi *CARULLAH 1011* qo'lyozma nusxasining barcha sahifalari to'liq tartib bilan boshdan oxirigacha raqamlab chiqilgan, ilk sahifasidanoq poygirli va sahifalardagi poygirlari to'liq.

3. “Rashahot” asarining Süleymaniye kutubxonasidagi *CARULLAH 1011* raqami ostida saqlanib kelayotgan qo'lyozma nusxasi va Adabiyot muzeyidagi 33/II raqamli qo'lyozma nusxalari matnini qiyosiy-tekstologik tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, har ikkala nusxa matni asosan ayrim kichik farqlar e'tiborga olinmaganda, xuddi *AYASOFYA 1823* qo'lyozma nusxasida bo'lganidek bir-birlariga monand, sarlavhalarning aksariyati aynan, asosiy matndan ajratilgan holda surx siyoh bilan go'zal qilib ko'chirilgan. Qur'oniy iqtibos va duolar matnlarining zer-u zabarlari qo'yilgan. Ular aniq o'qiladi.

4. O'z navbatida Süleymaniye *CARULLAH 1011* nusxasi “Rashahot”ning XVIII–XIX asrlarda kitobat qilingan nusxalarida va toshbosma nusxalarida hamda litografik nashrlarida ayrim o'rinlarda yo'l qo'yilgan kam-ko'stlarni bartaraf qilishda asosiy ishonchli manba sifatida xizmat qilishi tabiiy.

5. Bu qo'lyozma nusxaning Adabiyot muzeyida saqlanib kelayotgan 33/II raqamli qo'lyozma nusxabilansolishtirish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkin: bu nusxa ham *AYASOFYA 1823* nusxasi kabi hozircha bizga noma'lum bo'lgan boshqa bir mo'tabar “Rashahot”ning qo'lyozma nusxasidan ko'chirilgan bo'lishi kerak. Chunki har ikkala nusxadagi tafovutlar va bir-birini to'ldiradigan joylarning uchrab turishi shunday xulosa qilishga asos bo'la oladi.

6. Turkiyaning Süleymaniye kutubxonasida *CARULLAH 1011* raqami ostida saqlanib kelayotgan bu qo'lyozma nusxani O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida 33/II raqami ostida saqlanayotgan nusxadan keyin asosiy manba vazifasini o'tashga loyiq nusxalardan biri deb hisoblash mumkin.

“Rashahot” asarining Turkiya Istanbul Süleymaniye kutubxonasida CARULLAH 1012 raqamli qo'lyozmasi. Bu qo'lyozma nusxa hajmi 23,5x15,5 sm. Jami 273 varaq (546 sahifa)dan iborat. Qo'lyozma ko'p uringan, shu sababdan hozirda ta'mirtalab holatda. Qo'lyozma boshi va oxiridan ham ayrim sahifalar etis'hmagani tufayli uning muallifi, kotibi, ko'chirilgan vaqti haqida ma'lumotlarga ega bo'lishning imkoni yo'q. Asar quyidagi jumlar bilan boshlangan (2^b sahifa): بسم الله الرحمن الرحيم و به نستعين

Bunda “Basmala” qora siyohda, “*Va bi-hi nasta'iy*n” so'zlari esa surx (qizil) rangda bitilgan. Keyin “Rashahot”ning “Muqaddima” qismi boshlangan (2^b sahifa):

الحمد لمن رشّ رشحات الحقائق و الحكم على قلوب العارفين بفيضه الأقدس الأقدم و الصلوة على مظهر الأتم و مظهر أوتيت جوامع الكلم لبكمل بها طوايف الأمم و السلام على آله و اصحابه مفاتيح الكرم و مصابيح الظلم و اما بعد جنين كويد فقير بى بضاعت و حقير خالى از استطاعت على بن الحسين الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى ثبته الله على محبة اوليائه و شرفه بكمال متباعدة اصفياه كه جون بميامن الطاف الهى و ببركات اعطاف نامتناهى در اواخر شهر ذى القعدة سنة تسع و ثمانين و ثمانميه تقيل عتبه عليه سرمد سنيه حضرت ولايت منزلت و هدايت منقبت قطب المحققين و غوث العظماء الموحدين خواجه ناصر الحق و الحقيقه و الدنيا و الدين عبيد الله رضى عنه و ارضاه اتفاق افتاد و نوبتى ديكر در اوایل ماه ربيع الآخر سنة ثلاث و تسعين و ثمانميه شرف باى يوس خدام آن آستانه و ملازمان آن دولخانه دست داد

Endi ushbu CARULLAH 1012 qo'lyozma nusxaning matnini O'zRFA Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 33/II qo'lyozma nusxa bilan solishtirak.

Süleymaniye CARULLAH 1012 nusxasining boshlanish qismida ham o'ziga xos farqni ko'ramiz. 33/II raqamli qo'lyozma nusxa بسم الله الرحمن الرحيم bilan boshlangan bo'lsa, Süleymaniye CARULLAH 1012 nusxasi esa “Basmala” va unga ilova qilingan “(Va bi-hi nasta'iy)n”) so'zlari bilan boshlangan.

Süleymaniye CARULLAH 1012 nusxasining 1^b sahifa 1-qatorda 33/II raqamli qo'lyozma nusxadan farqli o'laroq, “و مصابيح الظلم اما بعد” o'rniga “جنين كويد” yozilgan.

CARULLAH 1012 nusxasining 1^b sahifasi 1-qatorda 33/II raqamli qo'lyozma nusxadan farqli o'laroq, “سنة تسع و ثمانين و ثمانميه تقيل عتبه” o'rniga “سنة تسع و ثمانين و ثمانميه تقيل عتبه” yozilgan.

Bu qo'lyozma nusxani O'zR FA DAM fondidagi 33/II raqamli qo'lyozma nusxa bilan solishtirish natijalari quyidagi qiyosiy jadvalda aniqroq ko'rinadi. Unda asar “Muqaddima”sidan boshlab matndagi so'zlarning yozilishida quyidagi farqlar bor:

DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo'lyozma №1012	DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo'lyozma №1012
بسم الله الرحمن الرحيم	بسم الله الرحمن الرحيم و به نستعين	و الصلوة على مظهر الأثم و مظهر أوتيت جوامع الكلم	و الصلوة على مظهر الأثم و مظهر أوتيت جوامع الكلم

DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo'lyozma №1012	DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo'lyozma №1012
ثبته على محبة اوليائه	ثبته الله على محبة اوليائه	شرف باى بوسى	شرف باى بوس

DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo'lyozma №1012	DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo'lyozma №1012
خدام آن آستانه و ملازمان آن <u>دولة</u> <u>خانه</u> دست داد	خدام آن آستانه و ملازمان آن <u>دولتخانه</u> دست داد	در خلال مجالس افادت <u>مآب</u>	در خلال مجالس افادت <u>مآب</u>
DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo'lyozma №1012	DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye CARULLAH Qo'lyozma №1012
<u>حکیم</u> انا رحمه الله <u>تعالی</u> خلیفه چهارم خواجه احمد اند و نام ایشان سلیمان است و حکیم لقب از <u>کبار</u> مشایخ <u>ترکند</u> و حکمتهای ایشان که	<u>حکیم</u> انا رحمه الله از کبار مشایخ <u>ترکند</u> و خلیفه <u>چهارم</u> خواجه احمد اند نام ایشان سلیمان است و حکیم لقب و حکمتهای ایشان که	صوفی محمد <u>دانشمند</u> رحمه الله <u>تعالی</u> خلیفه سیم اند از <u>خلفاء</u> خواجه احمد رحمه الله و سالها بر مسند ارشاد بوده اند و خلق را بحق دعوت نموده اند حضرت ایشان میفرموده اندکه صوفی محمد دانشمند	صوفی محمد دانشمند رحمه الله خلیفه سیم اند از <u>خلفاء</u> اربع خواجه احمد و سالها بر مسند ارشاد بوده اند و خلق را بحق دعوت نموده اند حضرت ایشان میفرموده اندکه صوفی محمد دانشمند

Ushbu qo'lyozma nusxani o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu nusxa “Rashahot” ning boshqa nusxalari kabi to'liq. Poygirlari ham izchil qo'yilgan. Faqat qo'lyozmaning ta'mirtalab holatda. Qo'lyozma oldin ham ta'mirlangan ko'rinadi, lekin sifatsiz ta'mirlangani uchun ham yana qayta ta'mirga muhtoj holatga kelgan. Qayta ta'mirlangani sahifalari tartibga solingan vaqtda biroz beparvolikka yo'l qo'yilgan. Qo'lyozma nusxani tavsif qilgan usta ham bu holatga e'tibor bermagan. Aks holda hozir qo'lyozma bir necha yerdan muqovasidan ajralib, bo'laklanishga yuz tutar holga kelmagan bo'lur edi. Bu kitobni tezda tartibga solish va uning sarlavhalarining izchilligini ta'minlash zarur.

Muqova kartondan iborat bo'lib, yuza qismiga charm qoplangan, kitob muqovasi ham hozirda abgor holatda. Muqova ichidagi ilk sahifaga muhr urilgan va unda “*MILLET GENEL Kütubhanesi*” *kısım V. Carullah eski kayıtları 1012*” yozuvi aks etgan. Kitobning oxirgi sahifasiga ham muhr bosilgan bo'lib, unga yuqoridagi qaydlar o'z ifodasini topgan. Asar matni go'zal nasta'liq xatida qora siyoh bilan ko'chirilgan. Bir sahifaga 1^b sahifada “Basmala” bilan qo'shib hisoblaganda 15 qator, qolgan sahifalarda esa 19 qatordan matn joylashtirilgan.

Bu qo'lyozma yakuni nimagadir 33/II inv. raqamli qo'lyozma nusxa oxiriga o'xshamaydi. Kolofondan oldin bir qit'a yozilgan, ammo u “Rashahot” muallifining qit'asi emas. Chunki 33/II inventar raqamli qo'lyozma va boshqa nusxalarda “*Qit'a bar itmom-i tariyx-i Rashahot*” mavjud. Süleymaniye *CARULLAH 1012* nusxasi oxiridagi forsiy qit'a:

که بود سلخ به فوت احمد مرسل
شراب صافی عیش ابد ز جالم جل
معاج درجات مشاهد اکمل

بهشتصد و نود و پنج در سب
کشید خواجه، دنیا و دین عبیدالله
قرارگاه دلش باد در مدارج قرب

Mazkur qit'adan so'ng qo'lyozmaning kolofon qismida quyidagi yozuvlar bitilgan (273^b sahifa):

اللهم اغفر لي و لوالديه و الاستاذيه و لجميع المؤمنين و المؤمنات و المسلمين و
المسلمات برحمتك يا ارحم الراحمين الفقير الحقير عبد الضعيف الراجي بهبود على ابن
کردعلى غفر ذنوبهما و ستر عيوبهما تم

Kolofonning o'ng tarafiga katta yumaloq muhr mavjud bo'lib, u kitobning oldingi egasining muhri.

“Rashahot” *asarining Süleymaniye (Turkiya, Istanbul) kutubxonasida HAMIDIYYE 649 raqamli qo'lyozma tavsifi*. Ushbu

qo'lyozma nusxa 20,5x35 hajmdagi kitobdan iborat, u jigarrang mustahkam qilib ishlangan charm muqovaga ega. Muqovaning har ikki yuqori va pastki qismlaridagi muhrlarida muqova ustasining tamg'asi, markazda esa naqshinkor gul bezaklari bosilgan. Muqova ta'mirlangan, saqlanishi yaxshi.

Qo'lyozmaning ichki, ya'ni muqovaga tutash sahifada kutubxona shtampi urilgan bo'lib, unda "*Suleymaniya U. Kutubhanesi. Hamidiyye 649*" qaydi mavjud.

Keyingi sahifa o'rtasiga aylanisiga "Turkiye Yazma Eserler Kurumu" so'zlari aks etgan. Qo'lyozmaning saqlanish raqami esa kitob ichidagi ilk sahifada belgilab qo'yilgan, u arab raqamida bo'lib, qalin qilib 649-soni yozib qo'yilgan. Bu raqam yuqorisida usmonli amaldorlariga tegishli katta yumaloq muhr, unda "Basmala" usmonlilar tug'rosi shaklida, keyin "*Vaqf li-lloh...*" yozuvi mavjud. Bu muhr bilan yonma-yon bodom shaklida kichikroq bir muhr bosilgan, undagi yozuvni o'qishning iloji yo'q, chunki uning tusi qop-qora rangda.

Katta yumaloq muhr ostida quyidagi bitik mavjud (1^a sahifa):

كتاب رشحات بخط نستعليق

وقف اعدل السلاطين و اورع الملوك و الخوافين ابن السلطان محمدخان---

Bu qo'lyozma usmonli podshohlaridan Sulton Muhammadxonning maxsus kitobat qildirib, so'ng vaqf ettirgan qo'lyozmasidir. Süleymaniye kutubxonasida *AYASOFYA 1823* raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasida "*In vaqf-i Sulton ibn Sulton Mahmud-xon....*" degan yozuvlar bor edi. Demak, ma'lum bo'lmoqdaki, *HAMIDIYYE 649* raqamli qo'lyozmasi ham ana shunday vaqf qilingan qo'lyozmalardan biri. Qo'lyozmaning saqlanishi yaxshi.

Asar matni 2^b sahifadan boshlanadi. Qadimiy, nodir qo'lyozmaga xos unvon ishlangan. Qo'lyozma jami 203 varaq (406 sahifa)dan iborat. Ilk sahifada unvon quyisida 17 satr, qolgan sahifalarning har birida esa 23 satrdan matn joylashtirilgan. Poygir mavjud emas. Har bir sahifaning yuqorisida chap burchagida arabiy raqam qo'yilgan.

Qo'lyozma 201^a sahifada tugagan. "*Ruboiyya-i forisiyya dar tariyx-i itmom*" sarlavhasi 200^b sahifada, forsiy ruboiy matni 201^a sahifa yuqori qismiga yozilgan. Afsuski, kotibning ismi, qo'lyozma qachon va qayerda ko'chirilgani qayd etilmagan.

Endi ushbu *HAMIDIYYE 649* qo'lyozma nusxaning matnini O'zR FA DAM. Q. №33/II qo'lyozma nusxa bilan solishtirib, uning kitobat saviyasini qiyosiy tadqiq qilib chiqsak.

“Rashahot”ning “Muqaddima” qismi boshlanishi (2^b sahifa) quyidagicha:

الحمد لمن رشح رشحات الحقائق و الحكم على قلوب العارفين بفيضه الأقدس الأقدم و الصلوة على مظهر الأتم و مظهر أوتيت جوامع الكلم ليكمل بها طوائف الأمم و السلام على آله و اصحابه مفاتيح الكرم و مصابيح الظلم اما بعد جنين كويد فقير بى بضاعت و حقير خالى از استطاعت على بن الحسين الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى ثبته الله على محبة اوليائه و شرفه بكمال متباعدة اصفياه كه جون بميامن الطاف الهى و ببركات اعطاف نامتاهى در اواخر شهر ذى القعدة سنة تسع و ثمانين و ثمانمائه تقبيل عتبه عليه سرمد سنيه حضرت ولايت منزلت و هدايت منقبت قطب المحققين و غوث العظماء الموحدين خواجه ناصر الحق و الحقيقه و الدنيا و الدين عبيد الله رضى عنه و ارضاه اتفاق افتاد و نوبتى ديكر در او ايل ماه ربيع الآخر سنة ثلاث و تسعين و ثمانمائه شرف باى بوسى خدام آن آستانه و ملازمان آن دولت خانه دست داد

Süleymaniye HAMIDIYYE 649 nusxasining boshlanish qismida birinchi farqni ko‘ramiz. 33/II /II raqamli qo‘lyozma nusxa esa بسم الله bilan boshlangan. Süleymaniye HAMIDIYYE 649 nusxasi esa “Basmala”siz boshlangan. Shu holida bu nusxaning boshlanishi Süleymaniye CARULLAH 1011 nusxasi boshlanishi bilan bir xil. Ba’zi matniy so‘zlarning o‘zgarishi va xato yozilishiga qarab, bu ikki qo‘lyozma biri ikkinchisidan kitobat qilingan, degan fikr-mulohazaga borish ham mumkin. Bunga quyida amin bo‘lamiz.

Süleymaniye HAMIDIYYE 649 nusxasining 1^b sahifa ikkinchi qatorda 33/II /II raqamli qo‘lyozma nusxadan farqli o‘laroq, “الصلوة على مظهر الأتم و مظهر أوتيت جوامع الكلم ليكمل بها طوائف الأمم” o‘rniga “الصلوة على” yozilgan.

HAMIDIYYE 649 nusxasining 1^b sahifasi birinchi qatorda 33/II raqamli qo‘lyozma nusxadan farqli o‘laroq, “المشتهر بالصفى ثبته على” o‘rniga “تسع سنة” yozilgan.

Bu qo‘lyozma nusxani O‘zRFA DAM fondidagi 33/II raqamli qo‘lyozma nusxa bilan solishtirish natijalari quyidagi qiyosiy jadvalda yana ham aniqroq ko‘rinadi. HAMIDIYYE 649 nusxasida ham xuddi oldingi nusxalardagi kabi asar “Muqaddima”sidan boshlab matndagi so‘zlarning yozilishida, ayniqsa, “Sufiy Muhammad Donishmand rahmatullohi taolo”, “Hakiym Ota rahmatullohi taolo” zikrlari bayoni qismlarida esa juda katta farqlar, matniy o‘zgarishlar bor:

DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye HAMIDIYYE 649	DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye HAMIDIYYE 649
بسم الله الرحمن الرحيم	-----	و الصلوة على مظهر الأتم و مظهر أوتيت جوامع الكلم	و الصلوة على مظهر الأتم و مظهر أوتيت جوامع الكلم

DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye HAMIDIYYE 649	DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye HAMIDIYYE 649
ثبتته على محبة اوليائه	ثبتته الله على محبة اوليائه	حكيم اتا رحمه الله تعالى خليفه جهارم خواجه احمد اند و نام ايشان سليمان است و حكيم لقب از كبار مشايخ تركند و حكمتهاى ايشان كه	حكيم اتا رحمه الله تعالى خليفه جهارم خواجه احمد قدس سره و سالها بر مسند ارشاد بوده اند و بعد از خلفاء ثلاثه خلق را بحق دعوت نموده
و ملازمان آن دولة خانه دست داد	و ملازمان آن دولت خانه دست داد	---	----

DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye HAMIDIYYE 649	DAM Qo'lyozma №33/II	Süleymaniye HAMIDIYYE 649
صوفى محمد دانشمند رحمه الله تعالى خليفه سيم اند از خلفاء خواجه احمد رحمه الله و سالها بر مسند ارشاد بوده اند و خلق را بحق دعوت نموده اند حضرت ايشان ميفرموده اندكه صوفى محمد دانشمند	سليمان اتا رحمة الله خليفه سيوم خواجه احمد بوده اند و ايشان از كبار مشايخ تركند و حكمتهاى ايشان كه به بزبان تركى در معاملات درويشان گفته در تركستان معروف و مشهورست	حكيم اتا رحمه الله تعالى خليفه جهارم خواجه احمد اند و نام ايشان سليمان است و حكيم لقب از كبار مشايخ تركند و حكمتهاى ايشان كه	حكيم اتا رحمه الله از كبار مشايخ تركند و خليفه جهارم خواجه احمد اند نام ايشان سليمان است و حكيم لقب و حكمتهاى ايشان كه

Süleymaniye kutubxonasida HAMIDIYYE 649 raqami ostida saqlanib kelayotgan bu qo'lyozma nusxani Davlat adabiyot muzeyida

33/II raqami ostida saqlanayotgan nusxa matniga nisbatan katta farqlari mavjudligi sababli “Rashahot”ning nodir bo’lmagan, ammo matni to’liq nusxalaridan biri deb hisoblash mumkin.

“Rashahot” asarining Süleymaniye (Turkiya, Istanbul) kutubxonasida HEKIMOGLU 750 raqamli qo’lyozmasi. Ushbu qo’lyozma nusxa 20,5x25 sm. hajmdagi kitobdan iborat bo’lib, u jigarrang mustahkam ishlangan charm muqovaga ega. Muqovaning har ikki yuqori va pastki qismlaridagi muhrlarida muqova ustasining tamg’asi, markazda esa naqshinkor gul bezaklari bosilgan. Muqova ta’mirlangan, saqlanishi yaxshi.

Qo’lyozmaning ichki, ya’ni muqovaga tutash sahifasida kutubxona shtampi urilgan bo’lib, unda “MILLET GENEL KÜTÜBHANE- NESİ. H. Alipaşa 750” qaydi mavjud.

Shu sahifa o’rtasida aylanisiga “Turkiye Yazma Eserler Kurumu” so’zlari aks etgan. Qo’lyozmaning saqlanish raqami esa kitob ichidagi ilk sahifada belgilab qo’yilgan. U arab raqamida bo’lib, qalin qilib 750 soni yozilgan. Bu raqam yuqorisida o’rtacha kattalikda yumaloq muhr, unda *“Vaqf-i vazir Unsuriy...”* yozuvi mavjud.

Bu qo’lyozma *usmonli vazir-i a’zami Aliy pos’ho ibn marhum...* nomli shaxsning maxsus kitobat qildirib, so’ng vaqf ettirgan qo’lyozmasidir. Süleymaniye kutubxonasida *AYASOFYA 1823, HAMI-DIYYE 649* raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma nusxalaridagi muhrlarda ham shunday yozuvlar bor edi. Demak, ma’lum bo’lmoqdaki, *HEKIMOGLU 750* raqamli qo’lyozmasi ham ana shunday vaqf qilingan qo’lyozmalardandir. Qo’lyozmaning saqlanishi yaxshi.

Asar matni 2^b sahifadan boshlanadi. Qadimiy, nodir qo’lyozmaga xos unvon ishlangan. Qo’lyozma jami 200 varaq (400) sahifadan iborat. Ilk sahifada unvon quyisida 15 satr, qolgan sahifalarning har birida esa 20 satrdan matn joylashtirilgan. Poygir mavjud emas. Har bir sahifaning yuqorisida chap burchagida raqam qo’yilgan.

Qo’lyozma 199^a sahifada tugagan. Afsuski, kotibning ismi yozilmagan. Ammo kolofonda bu qo’lyozma qachon ko’chirilib tamomlangani qayd etilgan (119^a sahifa):

قد وفقت باتمام كتابة هذا الكتاب الموسوم بالرشحات المتفجرة من عين الحيات بعون الله و حسن توفيقه في وقت الظهر من يوم السبت شهر ذى القعدة سنة عشر و الف

Ushbu qaydda kotib bu qo’lyozma kitobatini hijriy 1010 sana Zul-qa’da oyining Shanba kuni peshin vaqtida tugatishga muvaffaq bo’lganini yozgan.

Kalofon tagida uchta muhr mavjud. Uch muhr ham aslida bitta muhr bo'lib, kimdir so'nggi sahifaga qayta-qayta muhr urgan. Muhrdagi "*Vaqf vazir-i a'zam Aliy pos'ho ibn marhum...*" so'zinigina o'qish mumkin. Demak, bu qo'lyozma ham saroy amaldori tomonidan kitobat qildirilib, so'ng vaqf qilingan nusxadir.

Endi ushbu *HEKIMOGLU 750* qo'lyozma nusxaning matnini O'zR FA Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 33/II qo'lyozma nusxa bilan solishtirib, uning kitobat saviyasini qiyosiy tadqiq qilib chiqaylik.

Süleymaniye *HEKIMOGLU 750* nusxasining boshlanish qismida birinchi farqni ko'ramiz. 33/II raqamli qo'lyozma nusxa esa بِسْمِ اللّٰهِ الرَّحْمٰنِ الرَّحِیْمِ bilan boshlangan. Süleymaniye *HEKIMOGLU 750* nusxasi esa "Basmala"siz boshlangan. Shu holida bu nusxaning boshlanishi Süleymaniye *CARULLAH 1011* nusxasi boshlanishi bilan bir xil.

Süleymaniye kutubxonasi yana uch manba bor. Kutubxona elektron fihristida bu kitoblar "Rashahot"ning qo'lyozmalari sifatida qayd etilgan. Bu manbalar *DUGUMLUBABA 294*, *DUGUMLUBABA 523-M 23* va *HACIMAHMUD EFENDI 2909* deb nomlangan. Ammo bu manbalarni tadqiq etganimizda, bu uch kitobning "Rashahot"ning qo'lyozma nusxalari emas, balki asarning Istanbul, Misr litografik nashrlari ekanligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa

"Rashahot" asarining Turkiyaning Istanbul shahri Süleymaniye kutubxonasi qo'lyozmalar fondida saqlanib kelayotgan qo'lyozma nusxalarini qiyosiy-tekstologik jihatdan tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Bu qo'lyozma nusxalarda uchta – *AYASOFYA 1823*, *CARULLAH 1011* va *CARULLAH 1012* O'zR FA Adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondida saqlanib kelayotgan 33/II raqamli nusxadan keyin o'zining qadimiyligi bilan ahamiyatli nusxalardir. Bu ikki qo'lyozma nusxaning o'ziga xosligi esa go'zal husnixat bilan ancha savodli kitobat qilinganidir.

2. "Rashahot" asarining barcha Süleymaniye qo'lyozma nusxalarining sahifalari to'liq tartib bilan boshdan oxirigacha raqamlanmagan, lekin sahifalardagi poygirlik navbatdagi sahifalardan to'liq o'rin olgan. Shunga ko'ra, mazkur qo'lyozma nusxalarining asar matni to'liqligi ayon bo'ladi.

3. "Rashahot" asarining Süleymaniye qo'lyozmalar fondidagi *AYASOFYA 1823*-raqami ostida saqlanib kelayotgan qo'lyozma

nusxasi va O‘zR FA Adabiyot muzeyidagi 33/II raqamli qo‘lyozma nusxalari matnini qiyosiy-tekstologik tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikkala nusxa matni asosan ayrim kichik farqlar e‘tiborga olinmaganda bir-birlariga monand, sarlavhalar, kishi nomlari va har bir “rashha” (ter, tomchi) so‘zining aksariyati aynan, asosiy matndan ajratilgan holda surx siyoh bilan chiroylik qilib ko‘chirilgan. Qur’oni karimdan olingan iqtibos va duolar matnlarining zer-u zabarlari, ya’ni harakatlari qo‘yilgan. Ular aniq o‘qiladi. Lekin Süleymaniye nusxasining tushunarsiz jumalari ham yo‘q emas.

4. O‘z navbatida Süleymaniye nusxalari O‘zRFA Adabiyot muzeyi nusxasida ayrim o‘rinlarda yo‘l qo‘yilgan kam-ko‘stlarni bartaraf qilishda asosiy ishonchli manba sifatida xizmat qilishi tabiiydir. Bu nusxa 33/II nusxada o‘qilishi qiyin bo‘lgan ayrim jumalarning (masalan, “Maqola qismi”da ko‘p qo‘l tekkani boisidan xira tortib o‘chayozgan o‘rinlarni) tiklanishida qo‘l keladi.

Süleymaniye qo‘lyozma nusxalarining Toshkent qo‘lyozma fondlarida mavjud bo‘lgan qo‘lyozma nusxalari bilan solishtirish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkin: mazkur nusxalar hozircha bizga noma’lum bo‘lgan boshqa bir mo‘tabar qo‘lyozma nusxalardan ko‘chirilgan bo‘lishi kerak. Chunki mazkur nusxalardagi tafovutlar va bir-birini to‘ldiradigan joylarning uchrab turishi, shuningdek, Süleymaniye nusxalarida mavjud ayrim nodir hoshiya qaydlarining ilmiy ahamiyati katta.

“Rashahot”ning Süleymaniye fondi nusxalari yordamchi nusxalar sifatida asarning tayanch nusxasi bo‘la oladigan – O‘zR FA Adabiyot muzeyi 33/II raqami ostida saqlanayotgan nodir nusxasi, ya’ni muallif dastxati nusxasi va O‘zRFAShI 10147-raqamli qo‘lyozmasiga kelgusida “Rashahot”ning mukammal bo‘lgan yangi ilmiy-tanqidiy yoki yig‘ma-qiyosiy matnini tayyorlashimizda asqotishi aniqligi shunday qat’iy xulosaga borishimizga asos bo‘la oladi.

Adabiyotlar

- Акимущкин, О.Ф. 1996. “Байсунгур-мирза: меценат, политик, воин”. *Амир Тимур и его место в мировой истории: международная конференция*, 99–100. Тошкент.
- Муродов, А. 1971. *Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан*. Тошкент: Фан.
- Сирождидинов, Ш., Умарова, С. 2015. *Ўзбек матншунослиги қирралари*. Тошкент: Академнашр.
- Умурзоқов, Б. 2018. “Рашаҳот” асарининг нодир қўлёзма нусхаси”. *Убайдулла Каримов номидаги XV илмий-амалий конференцияси материаллари*, 41–44. Тошкент.
- Tosun, Necdet. 2012. *BAHAEDDIN NAKSBEND. Hayati-Gorisleri-Tarikati*. Is-

tanbul: İnsan yayınları.

Рашахот. Қўлёзма. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат Адабиёт музейи фонди. Р. №33/II.

Ғанихўжаев, Ф. 1999. "Топилмалар". *Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон (Огаҳий ҳақида мақолалар)*. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси.

Шодмонов, Н. 2009. *"Шоҳиду-л-иқбол" – адабий манба*. Тошкент: ФАН.

رشحات عين الحيات تأليف: مولانا فخر الدين علي صفى بن حسين الواعظ الكاشفى،
6352 بامقدمه و تصحيحات و حواشى و تعليقات دكتور على اصغر معينان ، جلد اول و جلد دوم
تهران / 1977 ، مجموعه متون قديم و احوال دانشمندان و عارفان

Bahriddin Umurzokov

(Tashkent, Uzbekistan)

bahrumr_nur@mail.ru

"Rashahot ayn al-hayat" in the Turkish Manuscript Collections Scientific Description and Textological Study of Copies

Abstract

'Rashakhot Ain al-Hayat' (Drops of the Source of Life), written by Fakhruddin Ali Safi ibn Husayn Vaz Kashifi Hiravi (1463-1533), a mature manakibnavis and tazkiranavis scholar who lived in the 16th century and left a rich scientific heritage. This article is a study of a rare manuscript of this work.

"Where is the oldest and most accurate book of the work "Rashakhot" kept?" "Why is there such a huge difference between a critical text of a work and a manuscript of a newly discovered author?" "How important and necessary is it to draft a new critical text or a comparative text of this work?" "Why are there differences in the texts of a work copied in different countries?" This article addresses these issues. The article also discusses rare copies of "Rashakhot" in the fund of Stanbul (Turkey), their number, descriptions and comparative textological study of them with Tashkent copies by examples.

Key words: *"Rashakhot ain al-Hayat", manokib, Suleymani copies of "Rashakhot", description, Tashkent copy - copy of the author's signature, comparative textological study of the text "Rashakhot".*

About the author: *Bahriddin Umurzokov* – Doctor of Philosophy in Philology, Tashkent State University of Oriental Studies.

Recommended citation: Umurzokov, Bahriddin. 2020. “Rashahot ayn al-hayat” in the Turkish Manuscript Collections Scientific Description and Textological Study of Copies”. *Oltin bitiglar* 4: 98—121.

References

- Akimushkin, O.F. 1996. “Baysungur-mirza: metsenat, politik, voin”. *Amir Timur i yego mesto v mirovoy istorii: mejdunarodnaya konferensiya*, 99–100. Toshkent.
- Murodov, A. 1971. *O’rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan*. Toshkent: Fan.
- Sirojiddinov, Sh., Umarova, S. 2015. *O’zbek matnshunosligi qirralari*. Toshkent: Akademnashr.
- Umurzoqov, B. 2018. “Rashahot” asarining nodir qo’lyozma nusxasi”. *Ubaydulla Karimov nomidagi XV ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*, 41– 44. Toshkent.
- Tosun, Necdet. 2012. *BAHAEDDIN NAKSBEND. Hayati-Gorisleri-Tarikati*. Istanbul: İnsan yayınları.
- Rashahot. Qo’lyozma. O’zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi fondi. R. №33/II.
- G’anixo’jaev, F. 1999. “Topilmalar”. *Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon (Ogahiy haqida maqolalar)*. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi.
- Shodmonov, N. 2009. *“Shohidu-l-iqbol” – adabiy manba*. Toshkent: FAN.
- رشحات عين الحيات تأليف: مولانا فخر الدين علي صفى بن حسين الواعظ الكاشفى، 6352 بامقدمه و تصحيحات و حواشى و تعليقات دكتور على اصغر معينيان ، جلد اول و جلد دوم تهران / 1977 ، مجموعه متون قديم و احوال دانشمندان و عارفان

Ozoda Tojiboyeva

(Toshkent, O'zbekiston)

ozoda@navoiy-uni.uz

“Iskandarnoma”larning nasriy manbalari xususida

Abstrakt

Maqolada Sharq va G'arb adabiyotida eng ko'p ishlangan obrazlardan biri – Iskandar obrazining badiiy adabiyotdagi talqinlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni va uning XVII – XIX asrlar yozma va og'zaki adabiyotga ko'rsatgan ta'siri ko'rib chiqilgan. “Iskandarnoma” nomidagi nasriy talqinlar, tarjima asarlar va xalq og'zaki ijodi uslubida yaratilgan mustaqil qissalar birlamchi manbalar misolida tahlilga tortilgan. Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni va uning “Iskandarnoma” nomli nasriy bayoni, forsiy tildan qilingan tarjima, o'zbek tilida yaratilgan mustaqil qissa “Iskandarnoma”lar alohida xususiyatlariga ko'ra tavsiflanib, ta'riflangan. Dunyo adabiyotida talqin etib kelinadigan bahstalar o'rinlar, lavhalardagi fikrlarga munosabat bildirilgan. “Shohnomayi turkiy”ning o'zbek tilidagi “Iskandarnoma”lar yaratilishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgani sujetlar asosida qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *doston, nasr, nazm, folklor, qissa, tarjima, kitobxon, davr.*

Muallif haqida: *Tojiboyeva Ozoda* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Tojiboyeva, O. 2020. “Iskandarnoma”larning nasriy manbalari xususida”. *Oltin bitiglar* 4: 122—136.

Kirish

Dunyo adabiyotida an’anaviy yashab keladigan obrazlar tizimi hududiy mansublik kasb etishi bilan farqlanadi. G’arb va Sharq adabiyotidagi obrazlar o’zining milliy xususiyati, evolyutsiyasiga ko’ra xarakterlanadi. Har bir badiiy ijod namunasida, gavdalan tirilgan obrazlarda o’sha xalqning milliy qiyofasi, orzu-umidlari, tarixi yashaydi. Farhod, Majnun, Bahrom, Rustam, Siyovush, Afrosiyob, Jamshid obrazlari ana shunday asrlar davomida an’anaviy yashab kelgan yetakchi obrazlar sirasiga kiradi. Adiblar har safar ular haqida yangi asar bitganlarida, davr ruhi bilan sug’orib, yangi qiyofa bag’ishlanganlar. Tarixiy shaxs siymosidan badiiy adabiyotga ko’chib o’tgan Iskandar mavzusi G’arb adabiyotida ham, Sharq adabiyotida ham eng ko’p ishlangan obrazlardan biridir. Qadim dunyo xalqlarining har birida Iskandar mavzusi tarixiy va badiiy asarlardan o’rin olgan. Markaziy Osiyo va Xuroson hududiga sarkardaning kirib kelishi, jang-u jadallari haqidagi ma’lumotlar asardan asarga ko’chib o’tib, keyingi asarlarning yaratilishiga zamin yaratgan. Dastlab tarixiy-afsonaviy asosga ega kichik sujetlar zaminida, keyinroq yirik epik asarlarning asosiy qahramoni sifatida gavdalanib, yuksalib borgan. Yozma adabiyotda “Shohnoma” dostonidan o’rin olgan bo’lsa, “Xamsa” dostonlari tarkibida Iskandar haqida dostonlar yozilganidan so’ng og’zaki ijoddagi “Iskandarnoma” nomli xalq kitoblariga asos bo’lgan. Albatta, hayot va badiiy asar o’rtasida, tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiy va yozma adabiyotdagi ideallashtirilgan Iskandar obrazlari farqlanib borgan.

O’zbek adabiyotida obrazning mashhurlik mavqeyi Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari tarkibidagi “Saddi Iskandariy” dostoni bilan bog’lanadi. O’zbek adabiyotshunosligidagi barcha ilmiy izlanishlar, talqin va tahlillar Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni bilan chambarchas bog’liq. Navoiynning dostoni asos sifatida olinib, XV asrdan yuqoriga – avvalgi asrlarga qarab o’rganiladi. E’tibor berilsa, keyingi davrlarda ham Navoiydan ta’sirlanish natijasida ko’plab “Iskandarnoma”lar maydonga kelgan. Ularni maxsus “Iskandarnoma”ning xalqona versiyalari”, “Iskandarnoma”ning tarjima variantlari”, “Iskandarnoma”larning qiyosiy-tipologik tahlili” mavzusidagi bir qancha tadqiqotlar doirasida o’rganish – mavjud tasavvurlar va ma’lumotlar qamrovini kengaytirishi shubhasiz. Ushbu maqolada mazkur masala ilk bora yangi, hali ilmiy iste’molga olib kirilmagan qo’lyozma va toshbosma kitoblar misolida ko’rib chiqilgan.

Materiallar tahlili va tadqiqot usullari

Sharq adabiyotining buyuklari Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma”, Xusrav Dehlaviyning “Oyinayi Iskandariy”, Abdurahmon Jomiy “Xiradnomayi Iskandar” va Alisher Navoiyning turkiy tildagi “Saddi Iskandariy” dostonlarini chuqur o’rgangan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida Iskandar obrazining genezisi dunyo tarixi bilan bog’lab o’rganiladi. Jumladan, rus sharqshunos olimi Y.Bertelsning “Роман об Александре и его главные версии на Востоке” [Бертельс 1948], Y.Kostyuxinning “Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции” [Костюхин 1978], A.Qayumov “Saddi Iskandariy” [Қаюмов 1975], F.Sulaymonovanning “Sharq va G’arb” [Сулаймонова 1997] nomli monografiyalari Iskandar obrazini o’rganishda muhim ilmiy qimmatga ega.

Tojik olimasi R.Vosiyeva “Роман об Александре и его рецепция в народных романах “Искандар-наме” nomli dissertatsiyasida ana shunday uzoq tarixiy davr mahsuli bo’lgan fors-tojik tilidagi “Iskandarnoma”larni o’rganadi [Восиева 2016]. “Iskandarnoma”larning mantiqiy davomi bo’lgan “Dorobnoma”, “Iskandarnomayi kabir” asarlarini sujet, kompozitsiya jihatidan qiyoslaydi. Ishning ahamiyatli jihati ilk marotaba yozma va og’zaki versiyalarini qo’lyozma manbalar asosida batafsil o’rganilganidir.

O’zbek adabiyotida ham xalq og’zaki ijodida yaratilgan “Iskandarnoma”larni ana shunday qiyosiy o’rganishga zarurat bor. Kuzatishlar natijasida yangi aniqlangan manbalar hali mustaqil tadqiqotobyekti bo’lganemas. Kelajakdamazkur asarlar joriyalifboga ko’chirilib, tadqiq etilishi o’zbek adabiyotini yangi ma’lumotlar bilan boyitishi aniq. Ushbu tadqiqotlarga muayyan darajada ulush bo’lib qo’shilishni ko’zlagan holda “Iskandarnoma”larning qo’lyozma va toshbosma nusxalari Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni bilan birgalikda qiyosiy tahlil qilindi.

Iskandar mavzusining ishlanishi

E’tibor qaratilayotgan masalaning asosiy jihati bu – Iskandar obrazining xalq og’zaki ijodida ishlanishidir. Obraz xalq ijodiyotida ham ko’plab yirik “Iskandarnoma”larning bosh qahramoni hisoblanadi. Turkiy xalqlar o’z Iskandarlarini gavalantirishda yunon tarixchilari asarlari bilan birga “Qur’oni Karim”, Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otitt turk”, “Shohnoma”, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, arab tarixchilari Tabariyning “Tarixi Tabariy”, Bal’amiyning “Tarixi Bayhaqiy”

asarlaridan ham keng foydalanishgan. Turkiy xalqlar orasida Iskandar qadim shaharlarning nomi, xalqlarning nomlanishi kabi rivoyatlar bilan ham bogʻlanadi.

Oʻzbek adabiyotida “Iskandarnoma” sujetidagi asarlarning eng koʻp yaratilishi xalq ogʻzaki ijodining oltin davri boʻlgan XVII-XIX asrlarga toʻgʻri keladi. “Qadim Sharqning koʻp asrlik badiiy-estetik tajribalari, adabiy anʼanalari, hikmat va zakovatini bir karra yakunlagan” [Комилов 2005, 283]. Alisher Navoiydan keyin oʻzbek adabiyotida Iskandar obrazi asosan xalq ogʻzaki ijodida ishlangan. “Yusuf va Zulayxo”, “Vomiq va Uzro”, “Tohir va Zuhra” asarlari qatorida adiblar Navoiy dostonlaridan ijodiy taʼsirlandi, natijada xalq ogʻzaki ijodida “Qissayi Layli va Majnun”, “Qissayi Farhod va Shirin”, “Qissayi haft manzari Bahrom”, “Iskandarnoma” asarlari yaratildi.

Olim B.Toʻxliyev hamda I.Ismoilov Navoiyning oʻz Iskandarini yaratishiga asos boʻlgan manbalarni quyidagicha tasniflaydi: Navoiyning Iskandarga oid tasavvurlari shakllanishi manbalarini uch guruhga boʻlish mumkin: 1) tarixiy manbalar; 2) diniy manbalar; 3) adabiy manbalar [Tukhliev, Ismailov 2020, 1195]. Oʻz navbatida Navoiydan keyingi davrlarda “Iskandarnoma”larning yaratilishiga taʼsir koʻrsatgan omillardan uchtasini alohida koʻrsatish mumkin: 1. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni; 2. Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni; 3. Forsiy tildagi “Iskandarnoma” qissalari.

Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni oʻzidan keyingi koʻplab yirik asarlarning yaratilishiga taʼsir koʻrsatgan. Oʻzbek adabiyotida Iskandar mavzusining ishlanishi forsiy va turkiy tilli xalqlarning qoʻshni-qardosh aloqalari, xalq orasidagi tarjimasiz oʻqish imkoniyatini bergan ikki tillilik kabi koʻplab omillarga bogʻliq holda kechadi. Firdavsiynig “Shohnoma” asari oʻzbek tiliga XVII asrda Nurmuhammad Buxoriy, XVIII asrda Shoh Hijron, XVII asrda Mullo Mirzo Xomushiy tomonidan tarjima qilingan. Ulardan eng mashhuri Mullo Mirzo Xomushiy tarjimasi hisoblanadi. XVII asrdan boshlab qoʻlyozma holida qariyb uch asr oʻzbek kitobxonlarining qiziqarli voqeband asarlarga boʻlgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilib kelgan. Kitob 1905-, 1906-, 1908-yillarda Toshkentda Porsev, Orifjonov, “Shirkati xayriya” toshbosma matbaalarida koʻp sonda nashr qilingan [Firdavsiy 1905; 1908]. “Shohnomayi turkiy”ni koʻchirgan xattot Rahmatulloh oʻgʻli Abdushukur asar mazmuniga muvofiq anʼanaviy miniatyura emas, litografiya imkoniyatini hisobga olib, Oʻzbekistonda ilk marotaba grafika sanʼatida 40 dan ziyod surat ishlagan [Firdavsiy 1908]. Kitob eski oʻzbek yozuvi – nastaʼliq xatida

yozilgan. Ular o'z davri kitobxonlariga ma'lum bo'lgani holda bugun xalq orasida o'z o'quvchisini yo'qotgan va hozirda qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Hozirgi paytda O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'l-yozmalar fondida XVIII – XIX asrlarga mansub bir qancha "Iskandarnoma"larning qo'lyozma va toshbosma nusxalari saqlanadi. Ularni mazmun va mohiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflab olamiz:

1. Iskandarnoma. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining xalq kitobi uslubida yaratilgan nasriy bayoni [Navoiy 1908]. 1908-yili Toshkentda Orifjonov matbaasida chop etilgan, nasta'liq xatida ko'chirilgan. Asar "Xamsa"ning boshqa dostonlari nasriy bayoni o'rin olgan "Nasri Xamsayi benazir" tarkibida berilgan. Voqealar to'g'ri Eron shohlari ta'rifidan boshlanadi. O'z davri kitobxonlari saviyasiga monand xalq kitoblari usulida og'zaki bayonchilik uslubida hikoya qilingan. Mazkur kitobni o'zbek adabiyotida birinchi marotaba "Shohnomayi turkiy"ni nashrga tayyorlagan Mir Maxdum ibn Shohyunus nasriy bayon qilgan va nashr qildirgan. Nasriy bayonda xalq og'zaki ijodi unsurlari yetakchilik qilsa-da, Navoiy dostonidan uzoqlashib ketmaydi. Asosiy sujet tanlab olingan, dostondagi falsafiy-axloqiy bo'limlar bayon qilinmagan. Bu o'rinda muallif kitobning o'qimishli va xaridorgir bo'lishini ham ko'zlagan.

2. Namanganlik Mirzo Iskandar ibn Mirzo Abdurahim Namangoniy tartib bergan "Iskandarnoma" [Namangoniy 1270]. Asar XIX asrda, muallif nomidan ko'rinib turibdi, Namanganda yaratilgan. Nasta'liq xatida ko'chirilgan. Muallifning shaxsiyati, ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar mavjud emas. Zero, bu davrda xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot vakillari o'rtasidagi farq juda katta bo'lgan. Yozma adabiyot vakillari haqidagi ma'lumotlar saqlanib, xalq og'zaki ijodini ko'chirgan, qayta ishlagan shaxslar haqidagi ma'lumotlar yetarlicha saqlanib qolmagan. Ular odatda original asarlar ijod etuvchi ijodkorlar sirasida qabul qilinmagan. Adabiyotshunos S.Tohirov lirik turdagi asarlar ko'proq xoslar tomonidan o'qilganini ta'kidlaydi. Shuning uchun "iqtidorli, madrasa ta'limini olgan, ammo original mumtoz asarlar yaratish darajasiga yetmagan ijodkor shaxslar" qayta yaratilgan sodda asarlar bilan xalqning ehtiyojini qondirgani va bu holat hozirgi kundagi teleseriallarga bo'lgan qiziqishga o'xshashligini aytadi [Тоҳиров 2005, 109]. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganimizda muallif xalqning didi-qiziqishiga monand tarzda asarni tayyor sujetlar asosida ijodiy qayta ishlab chiqqan. Bugungidek ommaviy axborot vositalari bo'lmagan bir

sharoitda xalq orasida uyushtirilgan qissaxonlik kechalarida mazkur asarlar katta qiziqish bilan o'qilgan. Asar yirik voqealar ko'lamiga ega, hajman yirik. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” sujetidan ijodiy foydalanib yaratilgan.

3. Forsiy tildan tarjima qilingan “Iskandarnoma” asari [Toshkandiy 1908]. Asarni Mullo Azim Toshkandiy tarjima qilgan va kitob 1908-yili Toshkentda arab alifbosida toshbosma matbaada nashr etilgan, 504 sahifadan iborat. Ulkan hajmdagi ushbu kitobda tarixiy-afsonaviy shaxslar Bahrom, Jamshid, Afrosiyoblar ham ishtirok etadi. Agar “Shohnoma”da “Iskandar” dostoni kitobning ma'lum bir qismini tashkil qilsa, uning o'zi yaxlit “Shohnoma” singari hajmga ega. Tarjimon asarni o'z davridagi kuchli talab va istaklardan kelib chiqib turkiy tilga o'g'irgan. Tarjima qilish davomida o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, milliy xususiyatlarni singdirib ketadi. Bayon davomida o'zbek xalq ertaklari singari *“Bul so'zlar munda tursin, emdi ikki kalima so'zni ... eshiting”*, deya voqealar zanjirini ulab, bobdan bobga o'tib boradi. Bu usul bayon qilinayotgan voqeaning cho'zilib ketmasligi, kitobxonni zeriktirib qo'ymaslik uchun diqqatini boshqa yoqqa burish yoki ikkinchi qahramonning hayoti nima bo'ldi ekan, deb qiziqayotgan kitobxonga javob tariqasida ham qo'llangan. Tarjimalarning ham o'zbek adabiyotida o'rni va ta'siri juda katta bo'lgan va qator xalq qissalarining yaratilishiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Iskandar haqidagi voqealarning tadrijiy davomi “Qissayi jangnomayi podshohi Jamshid”, “Dahmayi Shohon” kabi asarlarda ham davom etadi. Mazkur asarlarning hammasi qo'lyozmalar fondida saqlanadi, hali joriy alifboga ko'chirilgan, keng kitobxonlar ommasiga havola qilingan emas. Faqatgina “Nasri Xamsayi benazir” tarkibidagi “Iskandarnoma” nashr qilingan.

Iskandarning tug'ilishi bilan bog'liq talqinlar

Tarixiy haqiqatdan afsonaviy tus olib borgan Aleksandr Makedonskiy hayoti, faoliyati haqidagi ma'lumotlar qanchalik xilma-xil bo'lsa, uning badiiy adabiyotdagi talqinlari ham shunchalik rang-barang. Dunyo xalqlari adabiyotidagi sujetlar rivoji ba'zida bir-biridan jiddiy farqlanib borsa, ba'zida umumiy o'zaro yaqin sujetlar atrofida aylanadi. Hayot yo'li kabi u haqidagi asarlar ham shunchalik murakkab, bahsli. Kitobxon tomonidan har doim Iskandarning tug'ilishi, Iskandar ikkitami-bittami, Iskandar payg'ambar bo'lganmi, suv ostiga tushganmi, degan ko'plab savollar tug'iladi. Adabiyotshunoslar mumkin qadar ularni sharhlashga,

izohlashga harakat qilishadi. Ulardan eng ko'p muammoli, bahstlab o'rinlardan biri – Iskandarning tug'ilishi bilan bog'liq lavhalardir. Jumladan, o'zbek adabiyotida yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodida yaratilgan hamda forsiy tildan tarjima qilingan asarlarning hammasidagi ma'lumotlarni hisobga olganimizda Iskandarning tug'ilishi bilan bog'liq quyidagicha talqinlar mavjud:

1. Iskandarning vayronada tug'ilishi, onasi vafot etishi va uni shoh Faylaqus boqib olishi.

2. Iskandarning shoh Faylaqus oilasida dunyoga kelishi.

3. Iskandarning onasi g'orda tashlab ketishi va uni echki emizib katta qilishi.

Yuqoridagi talqinlardan birinchisiga e'tibor qaratamiz:

1. Albatta, o'zbek adabiyotida Iskandar mavzusi borasida tayaniladigan asar – Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidir. Unda ko'tarilgan ideal shoh va ideal jamiyat, ota va farzand munosabatlari, shoh va olimlar, shoh va fuqaro, inson umri mohiyati, o'zligini izlash kabi ko'plab masalalar muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotida Navoiy asariga tenglasha oladigan boshqa bu kabi asar yaratilgan emas. Shuning uchun adabiyotshunoslik uchun ham, badiiy ijod jarayoni uchun ham mezon vazifasini bajaruvchi Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandar voqealariga qisman to'xtalib o'tamiz.

Alisher Navoiy ham dostonni yozishda tarixiy asarlarni sinchiklab o'qib chiqqanini, Iskandar haqida ixtiloflar, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan o'rinlar ko'pligini qayd etadi:

Ki, olamda iki Skandar emish

Ki, ikisi davronda dovar emish.

Biri ulki, Doro bila qildi razm,

Biri buki, sad bog'layu etti azm [Навоий 1960, 852].

Asar yozilgandan boshlab besh asr davomida kitobxon qanday tushungan va qabul qilganligi haqida umumiy ma'lumotlar ko'p. Biroq XX asr kitobxoni Navoiyning Iskandari vayronada tug'ilgan, deb o'qishgan va tushunishgan. Ya'ni shoh Faylaqus farzandini topib oladi va parvarish qilib katta qiladi. Bunday fikrning yuzaga kelishiga matndagi birgina so'z sabab bo'lgan:

Skandarni **topti** malik Faylaqus,

Yasab mulkin andoqki zebo arus [Навоий 1960, 852].

Misradagi *topti* so'zidan, *topib oldi* degan ma'no anglashiladi. Va bu misralar 1978-yilda Inoyat Maxsumov tayyorlagan dostonning nasriy bayonida quyidagicha izohlanadi: "*Tarixchi shunday bayon qiladiki, o'tkinchi dunyoning ko'magida shoh Faylaqus Iskandarni*

topib olgach, xonadonini xuddi kelindek yasadi” [Навоий 1978, 33]. Matndan Faylaqus Iskandarni *topib oldi, oʻz farzandi emas*, degan xulosa chiqadi. Dostonning mustaqillikka yaqin – 1990-yilda M.Hamidova tayyorlagan nasriy bayonida ham xuddi shu fikr davom etgan [Навоий 1990, 553]. Kitobxonlar tomonidan matndagi *topti* soʻziga va matnni tushuntirishga qaratilgan nasriy bayonlarga tayanib Faylaqus Iskandarni *topib oldi*, degan fikr qabul qilingan.

Sharq adabiyoti klassiklari Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy ijodidan, tasavvuf va diiniy taʼlimotlardan oziqlangan Navoiyning mohiyatan chuqur matnga ega asarlarini oʻqib, tushunish oddiy kitobxon uchun oson kechmaydi. Tahlillar baʼzida barqaror, oʻzgarmasdek boʻlib koʻrinadi, biroq yangi davr asarga yangicha yondashadigan oʻz tadqiqotchilarini beradi. Jumladan, adabiyotshunos I.Ismoilov mazkur tahlillar xato ekanligini dalillab, Iskandar Faylaqus oʻgʻli, degan xulosaga keladi. Bundan Navoiyning koʻzlagan maqsadi umuman boshqa boʻlgani – Iskandar aslzoda shoh ekanligini butun doston matnidagi ishoralarga asoslanib isbotlab beradi va ushbu talqinning ilmiy zaruratiga ham toʻxtaladi: “Navoiyning Iskandari Faylaqus oʻgʻli ekanini eʼtirof etish ijodkor asarlarining ilmiy asoslangani, undagi muhim oʻrinlar tarixiy haqiqatlarga mos kelishi, doston uydirma yoki afsonalarga tayanmaganini isbotlash uchun ham zarur”, degan fikrni bildiradi [Исмаилов 2019, 18].

Shu oʻrinda yana matnga eʼtibor beramiz. Kitobxonni chalgʻitgan *topti* soʻzi toʻgʻri anglanmasa ikki xil maʼno chiqadi. Birinchi talqinda odatdagi – Iskandarning vayronada tugʻilgani va uni Faylaqus topganiga ishora qilinadi. Ikkinchi xil talqindagi *topti* soʻzini toʻgʻri anglash uchun xalq jonli nutqi, milliy tushunchalarni yaxshi bilish lozim boʻladi. Oʻzbek xalqida oilada farzand tugʻilsa, bola tugʻildi, deb aytib oʻtirishmaydi-da, oʻgʻilcha yoki qizcha *topib oldik*, deb suyunishadi. Agar matnga shu fikr asosida yondashsak, *topti* degan soʻzning maʼnosi Iskandarning oʻz oilasida tugʻilganini anglatadi. Yuqoridagi tadqiqotda yana koʻplab ishonchli dalillar mavjud. Modomiki, ushbu fikr isbotlangan ekan, qariyb 70-80 yillar davomida kitobxon oʻrgangan eski talqinlarni oʻzgartirishga toʻgʻri keladi.

1. Klassik davr kitobxonlari bir qadar oʻtmish adiblarning ruhi, didi, muhitiga yaqin turgani uchun klassik asarlarni tushunishlari oson kechgan. Asarni har holda asl matn mazmuniga yaqin tushungan va talqin qilganlar. Shu maʼnoda hali oʻz sharqona muhitini saqlab turgan XIX – XX asrlarda yaratilgan “Saddi Iskandariy”ning nasriy

bayoni bo'lgan "Iskandarnoma"ga e'tibor beramiz. Mazkur nasriy bayon yaratilgan davrda hali kitobxonlar mumtoz adabiyot ruhiga ong, dunyoqarash jihatidan yaqin edilar. Muallifning matnni qanday anglagani va talqinda to'g'ri yoki hozirgi nasriy bayonlarga o'xshab yanglish berilganini tekshirib ko'ramiz. Nasriy bayon muallifi bu o'rinda izohtalab, isbottalab o'rinlarga ortiqcha to'xtalib o'tirmagan. Navoiyning o'z fikrlari davomida *"oxir tahqiq va diqqat birla ma'lum bo'ldiki, Iskandar Faylaqus o'g'lidur, "G'iyos ul-lug'at"da ham mazkurdurur"*, deb *"G'iyos ul-lug'at"da ham shunday berilgan deb ishora qilib o'tadi* [Navoiy 1908, 5]. Quvonarlisi, muallif Navoiyning ishorasini to'g'ri anglagan va *topti* so'zi kitobxonni chalg'itishi mumkinligini tushunib, bu so'zni umuman ishlatmagan: *"Alqissa, podshoh Faylaqus Iskandarni toj shahrini yasab, zeb-ziynatlar birla saxovat eshigin ochib, fuqarolarga in'omlar qilib, ... ko'zini ul farzandi arjumand diydori birlan yorug' qildi"* [Navoiy 1908, 5].

Asardagi talqin kitobxonni yanglish xulosa chiqarishga olib kelmagan. Demak, XX asr boshlariga qadar kitobxon bu o'rindagi nozik ma'noni to'g'ri anglab yetgan. Bu nasriy bayon qiluvchining matnga sinchkov nazar bilan qaragani, matnosti sirlarini teran anglagani natijasidir.

2. Mirzo Iskandar Namangoniy "Iskandarnoma"si xuddi Navoiy dostonidagidek davom etadi. Ijodkor Navoiy dostonidan ijodiy foydalangan. Odatdagi an'anaviy hamd va na'tdan so'ng asar matni 5-sahifadan boshlanadi. Kayoniy tabaqasidan Doro yetti mamlakatga podshoh ekani va Faylaqus Dorog'a har yilda ming tovuqning tuxmidek oltun xiroj berishini aytadi. Faylaqusning farzandi yo'q edi, xudoga nolalar qilib farzand so'raydi va malika homilador bo'ladi: *"Necha kun, necha soatda malika homilador bo'lub, to'qquz oy, to'qquz soatda tavallud qildilar. Doyalar xushxabar aytib dedilarkim: Ey podshoh Faylaqus, bu farzandning ikki mung ko'zi bor, - deb. Faylaqus mutaxayyir bo'lub, farzandga nazar qildi, rost mung ko'zlukturur"* [Namangoniy 1270, 7]. Faylaqus usturlob bilan kitoblarni olib farzandining hayotidan fol ko'radi.

Demak, Iskandar o'z oilasida tug'ilib, voyaga yetadi. Agar ijodkor Navoiy dostonidan ta'sirlangan bo'lsa, Navoiy dostonidagi Iskandarning Faylaqusning o'g'li ekani va o'z oilasida tug'ilishi to'g'ri bo'lib chiqadi. Asar Navoiy "Saddi Iskandariy"si sujetida davom etgan. Uni mutolaa qilgan kitobxonda bir qarashda Navoiy asarining nasriylashtirilgan bayoni emasmikin, degan fikr uyg'onadi. Biroq asarda keyingi voqealar ko'lamini umuman o'zgacha. Asarning hajm jihatidan kattaligi, ma'no ko'lamining kengligidan uni haqiqiy sarguzasht roman

deyish mumkin.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan Iskandar haqidagi o‘zbek tilidagi asarlarda qahramonning tug‘ilishi tarixiy haqiqatga muvofiq talqin etilgan.

3. O‘zbek tiliga tarjima qilingan “Iskandarnoma” fors-tojik tilidagi mashhur asarlardan biridir. Undagi Iskandar tug‘ilgan o‘rinlarni bevosita “Shohnomayi turkiy”dagi Iskandar voqeasi bilan qiyoslash juda yaqin o‘xshashlikni ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotidagi Iskandar haqidagi asarlar safini Firdavsiy “Shohnoma”si tarjimasi bo‘lgan “Shohnomai turkiy” tarkibidagi “Iskandarnoma” ham to‘ldiradi. Mazkur asar o‘zbek ijodkorlariga namuna bo‘lib, “Xamsa”ning nasriy bayonlari yaratilishida ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Dorob bilan Faylaqus jang qiladi, jangda yengilgan Faylaqus qizi Husnoroni Dorobga nikohlab beradi. Dorob qizni olib yurtiga jo‘naydi, o‘rtada bo‘lib o‘tgan tushunmovchiliklardan so‘ng Husnoroni kanizlari bilan birga haydab yuboradi. Husnoro yo‘lda keta turib dardi qo‘zg‘oladi va husni oftobni xira qiladigan va peshonasidin sohibqironliq nishonasi ko‘rinib turgan bir o‘g‘il tug‘iladi. Malika yig‘lab, ming xayollar bilan bolani o‘sha joyga qo‘yib, xat yozib ketadi. Chaqaloqni bir kampirning echkisi emizadi va kampir echkini izlab borib ko‘rib qoladi. Bola o‘sib katta bo‘ladi va uni keyinchalik shu mamlakat vaziri farzandlikka oladi. Orada ko‘p voqealar bo‘lib o‘tadi, bola onasini izlab yo‘lga tushadi. Bir shaharga yetib borib, u erda saroy devori ustida onasini ko‘radi. Tafsilotlar “Shohnomayi turkiy”dagi Iskandar tafsilotiga juda yaqin. “Shohnomayi turkiy”da bolani g‘or og‘zida sher qo‘riqlab yotadi. Mazkur asar sof o‘zbek muhitida yaratilmagan bo‘lsa-da, tarjimon uni o‘girishda o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, xalqona uslubda tarjima qilgan.

Qahramonning g‘ayritabiiy tug‘ilishi turkiy qahramonlik eposida buyuk kelajagiga ishora qiladi. Iskandarning tug‘ilishiga oid taxminlar har bir hudud adabiyotini qiziqtirgan, imkon boricha ulardan foydalanishga intilgan. Demak, xalq og‘zaki ijodidagi “Iskandarnoma”lar “Shohnoma”dagi Iskandar voqeasi va forsiy tildagi “Iskandarnoma”lardan ham oziqlangan.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, ulardagi farqni yaqqol ajratish mumkin:

1. Iskandarning g‘ayritabiiy tug‘ilishi voqealarida asar quyidagi qismga ajraladi: bolaning tug‘ilishi – voyaga yetishi – onasini izlab topishi – jahongashtalik sarguzashtlarining boshlanishi.

2. Iskandar Faylaqus o'g'li deya talqin etilgan asarlarda quyidagicha yo'nalish ketadi: qahramonning o'z oilasida voyaga yetishi – shohlik, jahongirlik sarguzashtlari. Yozma adabiyotda tug'ilishiga juda katta o'rin ajratilmaydi. Namangoniy "Iskandarnoma"sida Iskandar tug'ilishi va uning voyaga yetishidan boshlanadi. Iskandarning Kashmirga borishi, Hind diyoriga borishi, Chin Xoqoni bilan suhbat, mag'rib va mashriq diyorlariga borishi, cho'llarni kezgani, dengizda bo'lgani barchasi birma-bir bayon etilgan.

Xulosa

Turkiy "Iskandarnoma"da ham xalq og'zaki ijodi unsurlari yetakchilik qiladi. Ular "Qissayi Jamshid", Qissayi Go'ro'g'li sulton", "Qissayi Bobo Ravshan" kabi jangnoma tipidagi asarlarga bo'lgan ehtiyoj natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin. Agar bu kabi asarlarni XX asr zamonaviy adabiyotidagi dedektiv-sarguzasht asarlarga qiyoslasak, ularning qadimdan turkiy xalqlar adabiyotda tagzaminlari mavjud bo'lganini ko'rish mumkin. "Iskandarnoma", "Qissayi jangnomayi Jamshid" kabi qissa va dostonlarni o'rganish xalqning ruhiyatida kechgan o'zgarishlarni ham anglashga yo'naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Shohnoma" va xamsanavislar ijodida o'zining muayyan qiyofasini topgan Iskandarning hayot yo'li keyingi xalq kitoblari uchun tayyor material vazifasini bajardi. Iskandar haqidagi asarlar birgina o'zbek adabiyoti bilan chegaralanib qolmay, o'zining fors-tojik adabiyotidagi manbalaridan ham oziqlandi. Shu ma'noda "Iskandarnoma" turkumidagi asarlar dunyo adabiyotining buyuk sahifalaridan boqiy meros hisoblanadi. Mazkur asarlar orqali milliy adabiyotlar umumbashariy dunyo adabiyoti sari ko'tarilib boradi. Ularni jahon adabiyotshunosligi ilm-fani erishgan metodologiya orqali tekshirish yangi ilmiy natijalarni berishi aniq.

Adabiyotlar

- Адабий турлар ва жанрлар. 1991. I-жилд. Б.Назаров таҳрири остида. Тошкент: Фан.
- Бертельс, Е.Э. 1948. Романе об Александре и его главные версии на Востоке. Изд-во Академ наук. Москва. Ленинград.
- Эркинов, А. 2018. Алишер Навоий "Хамса"си талқини манбалари (XV-XX аср боши). Тошкент: Tamaddun.
- Эшонбобоев А. 1997. "Адабий анъана: манбаларда Искандар образининг талқини". Манбашунослик: матн ва унинг

- талқини: илмий мақолалар тўплами, 36-48. Тошкент.
- Ҳомидов, Ҳ. 1967. Фирдавсий "Шоҳнома"сининг ўзбекча таржимаси. Филол. фан. номз... дис. Тошкент.
- Ҳомидов, Ҳ. 2012. Фирдавсий ва ўзбек адабиёти. Тошкент: Миллий кутубхона.
- Китоби Шоҳномаи туркий Ҳаким Абдулқосим Фирдавсий Тусий. Хомуший таржимаси. 1905. Тошбосма. Тошкент: Порцев. ЎЗР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди. Инв № 2484, 6165.
- Комилов, Н. 2005. Хизр чашмаси. Тошкент: Маънавият.
- Костюхин, Е.А. 1972. Алексанр Македонский в литературной и фольклорной традиции. Москва: Наука.
- Намонгоний, Мирзо Искандар ибн Мирзо Абдурахим. Искандарнома. Қўлёзма. 1270/1852. ЎЗР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди. Инв № 997. -1736.
- Искандарнома. 1908. Тошбосма. Тошкент: Орифжонов матбааси. ЎЗР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди. Инв № 696.
- Искандарнома. 1332. Форс тилидан Мулло Азим Тошкандий таржимаси. Тошбосма. Тошкент. ЎЗР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди. Инв №3083.
- Исмоилов, И. 2019. Алишер навоий «Садди Искандарий» достонининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент.
- Исмоилов, И. 2017. Алишер Навоий ижодида Искандар образи. Тошкент: Вауоз.
- Қаюмов, А. 2008. Асарлар. I –жилд. №1. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Қаюмов А. 2008. Асарлар. I –жилд. №2. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Қаюмов, А. 2009. Асарлар. III – жилд. Тошкент: Мумтоз сўз.
- Қаюмов, А. 1974. Садди Искандарий. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат.
- Навоий, А. 1978. Садди Искандарий. Насрий баён муаллифи Иноят Махсумов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978.
- Навоий А. 1991. Садди Искандарий. Насрий баёни билан М.Ҳамидова қайта тўлдиришлари асосида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Навоий, А. 1960. Хамса. Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. Тошкент: ЎзФА нашриёти.
- Сулаймонова, Ф. 1997. Шарқ ва Ғарб (Қадимий давр ва ўрта асрлар маданий алоқалари). Тошкент: Ўзбекистон.
- Tukhliev, Bokyjon, Ismailov, Ilyos. 2020. "The Image of Iskandar in Turkic Sources". *International Journal of Scientific & Technology Research* 9 (02): 1195-1200.
- Тоҳиров, С. 2005. Ўзбек мумтоз адабиётида туркум сюжетлар ва "Нўҳ манзар". Филол. фан. номз... диссертацияси. Самарқанд.
- Восиева, Р.К. 2016. Роман об Александре и его рецепция в народных романах «Искандар-наме». Дисс.... докт. филол. наук. Душанбе.
- Шоҳномаи туркий Ҳаким Абдулқосим Фирдавсий Тусий. 1326/1908. Тошбосма. Тошкент: Орифжонов матбааси. ЎЗР ФА ШИ

Ҳамид Сулаймон фонди. Инв № 2940.
Шоҳномаи Фирдавсий Тусий. 1326/1908. Тошбосма. Тошкент.
Ширкати хайрия матбааси, ЎзР ФА ШИ Ҳамид Сулаймон фонди. Инв
№ 3528.

Ozoda Tajibaeva

(Tashkent, Uzbekistan)

ozoda@navoiy-uni.uz

About the Prose Sources of “Iskandarnoma”

Abstract

The article focuses on the interpretation of the image of Alexander in fiction, one of the most widely used images in Eastern and Western literature. Alisher Navoi's epic “Sadd-i-Iskandari” and its influence on the written and oral literature of the XVII-XIX centuries are considered. Prose interpretations of “Iskandarnama”, translated works and independent short stories created in the style of folklore are analyzed on the basis of primary sources, manuscripts and lithographs. An epic “Sadd-i-Iskandari” by Navoi and its prose statement “Iskandarnama”, a translation from Persian, an independent short story “Iskandarnama” written in Uzbek are described according to their specific features. The controversial places that have been interpreted in the world literature, the attitude to the ideas in the plates. A comparative analysis of the plots shows that the “Shah-Namai Turkish” had a significant influence on the creation of the “Iskandarnama” in the Uzbek language. Keywords: Epic, Prose, Poetry, Folklore, Narration, Translation, Bookstore, Period.

Key words: *Epic, Prose, Poetry, Folklore, Narration, Translation, Bookstore, Period.*

About the author: *Tajibaeva Ozoda* – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Tashkent state University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Recommended citation: Tajibaeva, O. T. 2020. “About the prose sources of “Iskandarnoma”. *Oltin bitiglar* 4: 122—136.

References

- Adabiy turlar va zhanrlar*. 1991. I-zhild. B.Nazarov tahriri ostida. Toshkent: Fan.
- Bertel's, E.J. 1948. *Romane ob Aleksandre i ego glavnye versii na Vostoke*. Izd-vo Akadem nauk. Moskva. Leningrad.
- Erkinov, A. 2018. *Alisher Navoiy "Hamsa"si talqini manbalari* (XV-XX asr boshi). Toshkent: Tamaddun.
- Eshonboboev A. 1997. "Adabiy anana: manbalarda Iskandar obrazining talqini". *Manbashunoslik: matn va uning talqini*: ilmiy maqolalar tuplami, 36-48. Toshkent.
- Homidov, H. 1967. *Firdavsij "Shohnoma"sining uzbekcha tarzhimasi*. Filol. fan. nomz... dis. Toshkent.
- Homidov, H. 2012. *Firdavsij va uzbek adabijoti*. Toshkent: Millij kutubhona.
- Kitobi Shohnomai turkij Hakim Abdulqosim Firdavsij Tusij*. Homushij tarzhimasi. 1905. Toshbosma. Toshkent: Porcev. UzR FA ShI Hamid Sulajmon fondi. Inv № 2484, 6165.
- Komilov, N. 2005. *Hizr chashmasi*. Toshkent: Manaviyat.
- Kostjuhina, E.A. 1972. *Aleksandr Makedonskij v literaturnoj i fol'klornoj tradicii*. M.: Nauka.
- Namongonij, Mirzo Iskandar ibn Mirzo Abdurahim. *Iskandarnoma*. Quljozma. 1270/1852. UzR FA ShI Hamid Sulajmon fondi. Inv № 997.
- Iskandarnoma*. 1908. Toshbosma. Toshkent: Orifzhonov matbaasi. UzR FA ShI Hamid Sulajmon fondi. Inv № 696.
- Iskandarnoma*. 1332. Fors tilidan Mullo Azim Toshkandij tarzhimasi. Toshbosma. Toshkent. UzR FA ShI Hamid Sulajmon fondi. Inv №3083.
- Ismoilov, I. 2019. *Alisher Navoiy «Saddi Iskandarij» dostonining qijosij tahlili*. Filol. fan. bo'jicha falsafa doktori (PhD) disser.... Toshkent.
- Ismoilov, I. 2017. *Alisher Navoiy izhodida Iskandar obrazi*. Toshkent: Bayoz.
- Qajumov, A. 2008. *Asarlar*. I –zhild. №1. Toshkent: Mumtoz suz.
- Qajumov A. 2008. *Asarlar*. I –zhild. №2. Toshkent: Mumtoz suz.
- Qajumov, A. 2009. *Asarlar*. III – zhild. Toshkent: Mumtoz suz.
- Qajumov, A. 1974. *Saddi Iskandarij*. Toshkent: Gafur Gulom nomidagi Adabijot va sanat.
- Navoiy, A. 1978. *Saddi Iskandarij*. Nasriy bajon muallifi Inojat Mahsumov. – Toshkent: Adabijot va sanat, 1978.
- Navoiy A. 1991. *Saddi Iskandarij*. Nasriy bajoni bilan M.Hamidova qajta tuldirishlari asosida. Toshkent: Adabijot va sanat.
- Navoiy, A. 1960. *Hamsa*. Nashrga tajjorlovchi Porso Shamsiev. Toshkent: UzbFA nashrijoti.
- Sulajmonova, F. 1997. *Sharq va Garb* (Qadimij davr va urta asrlar madaniy aloqalari). Toshkent: Uzbekiston.
- Tukhliev, Bokyjon, Ismailov, Ilyos. 2020. "The image of Iskandar in turkic sources". *International Journal of Scientific & Technology Research* 9 (02): 1195-1200.
- Tohirov, S. 2005. *Uzbek mumtoz adabijotida turkum sjuzhetlar va "Nuh manzar"*. Filol. fan. nomz... dis. Samarqand.

- Vosieva, R.K. 2016. *Roman ob Aleksandre i ego recepcija v narodnyh romanah «Iskandar-name»*. Diss.... dokt. filol. nauk. Dushanbe. *Shohnomai turkij Hakim Abdulqosim Firdavsiy Tusij*. 1326/1908. Toshbosma. Toshkent: Orifzhonov matbaasi. UzR FA ShI Hamid Sulajmon fondi. Inv № 2940.
- Shohnomai Firdavsiy Tusij. 1326/1908. Toshbosma. Toshkent. Shirkati hajrija matbaasi, UzR FA ShI Hamid Sulajmon fondi. Inv № 3528.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta-siga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo’limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo’limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa,

bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*,
Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi
raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

**Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish
tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI
manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL).
DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron
adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi [http://
dx.doi.org/](http://dx.doi.org/) manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va
o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3:
229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. “Milliy qadriyat va globallashuv”. *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini *"The Chicago Manual of Style, 16th Edition"* qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son "Oltin bitiglar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiklar@gmail.com
Tel.: +99891 166-31-38
Bosishga 00. 00 2019-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8
Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77, +99894
659 94 62.